

METODIST

ILMIY-INNOVATION, METODIK JURNAL

2024-YIL 3-SON



METODIST

ILMIY-INNOVATSION, METODIK JURNAL

2024
3-son

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
ro'yxatga olingan. Guvohnoma №229146,



MUNDARIJA

BOSH MUHARRIR MINBARI

Husanboyeva Q. Qizil shapkachaning muammosi.....3

ONA TILI TA'LIMI MUAMMOLARI

Yusupova T. Yozma ishlarning bayon qilinishiga doir bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish10

Qipchoqova S. Ona tili ta'limida interaktiv metodlarni qo'llashning zaruriyati.....20

Yo'ldosheva N. Ona tili va adabiyot darslarida innovatsion usullardan foydalanish28

MUMTOZ ADABIYOTNI O'RGANAMIZ

Qodirov V. Adabiy ta'limda g'azal janrini o'rganish.....39

ADABIYOT DARSLARI – KO'NGIL DARSLARI

Yusupov Q. Orazbay Sábbaev poeziyasini tallovi usullari50

Safarova Z. Adabiyot darslarida "landshaft" loyihasini tayyorlash59

Tursunova D. Bir she'r tahlili72

BOSHLANG'ICH TA'LIM – POYDEVOR

Kenjayeva M. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida lingvistik kompetensiyalarni takomillashtirishning nazariy asoslari78

TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Tojiyev M., Akkulova Y. Ta'lim jarayonini modulli o'qitish texnologiyasi asosida tashkil qilish88

PSIXOLINGVISTIKA

Mardiyeva F., Jabborov A. Psixodiagnostikaning afzalliklari93

KITOB – MA'NAVIY KOMILLIK VOSITASI

G'ulomova M. O'quvchilarda kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish yo'llari101

Rahim A. Yo'lda ketayotgan odam (hikoya)111

PEDAGOGIK HAMKORLIK

Tillaboyeva I. O'qituvchi+ota-ona=muvaffaqiyatli farzand121

KASBIM MENING – FAXRIM MENING

Mahmudov R. Oliy maktabda kasbiy ma'naviyat fanini o'qitish zaruriyati.128

MA'NAVIY SOG'LOMLIK SIRI

Hazratqulov M. Metodikaning oltin qonuniyatlari141

ADABIY ALOQALAR

Sadullayeva M. Adabiy do'stlik – abadiy do'stlik.....147

Mualliflarning fikrlari tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin. Maqolalardagi fikr va mulohazalarning haqqoniyligi va to'g'riligiga mualliflar mas'uldirlar.



BOSH MUHARRIR MINBARI

QIZIL SHAPKACHANING MUAMMOSI



Qunduzxon HUSANBOEVA.

*Pedagogika fanlari doktori,
SamDU professori*

El-manzil:

qunduz56@gmail.com

Annotatsiya. Metodik tavsiya yo'nalishidagi ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida Sh.Perroning "Qizil shapkacha" nomli ertagini muammoli shaklda o'rganish borasida mashg'ulot ishlanmasi namuna sifatida taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: ertak, muammo, muammoli savol, mantiqli savol, mustaqil fikrlash, mantiqli tafakkur.

Maktabgacha ta'lim muassasalari nutq o'stirish va badiiy adabiyot bilan tanishish mashg'ulotlarida fransuz bolalar yozuvchisi Sharl Perro qalamiga mansub "Qizil shapkacha" ertagini o'rganishni muammoli ta'lim asosida tashkil etmoqchi bo'lgan tarbiyachi avval bolalarni ertak matni bilan tanishtiradi yoki havoladagi multfilmni [2] taqdim etadi.

Bu ertak maktabgacha ta'lim muassasalarining yuqori va maktabga tayyorlov guruhlarida tarbiyalanayotgan bolalar bilan o'rganiladi. Ya'ni ertak matni bolalar bilan birga amaliy-didaktik tahlilga tortiladi. Bu mashg'ulotni oddiy ertak darsi sifatida ham, muammoli ta'lim shaklida ham amalga oshirish mumkin. Bu



tarbiyachining saviyasi va guruhdagi bolalarning intellektual imkoniyatiga bog'liq bo'ladi. Agar ertak muammoli tarzda o'rganiladigan bo'lsa, buning tarbiyalanuvchilarga hech qanday farqi ham, ahamiyati ham yo'q, albatta, ular buni bilmaydilar ham. Bu tarbiyachining tadbirkorligi, tarbiyalanuvchilarini bolalikdan mustaqil va mantiqiy fikrlashga yo'naltirishi borasidagi oqilaligi, bilimdonligi bilan bog'liq bo'ladi. Bu “qog'oz”lardagina aks etishi va tarbiyachining o'zi bilishi kerak bo'lgan jarayon. Lekin buning mahsuli, natijasi millat farzandlarining kamolotiga kattagina ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniq. Demak, muammo: **“Qizil shapkacha landovur, laqma va befarosat qiz”**.

“Qizil shapkacha” ertagi asosida suratga olingan multfilm [2] ko'rsatiladigan bo'lsa, ertak bolalar uchun ancha qiziq va tushunarli bo'ladi va matn ustida ishlash ham nisbatan oson kechadi. Chunki bolalar ko'rgan narsalarini juda yaxshi eslab qoladilar. Buning imkoni bo'lmagan holatlarda tarbiyachi ertakni [1] ifodali ohangda o'zi o'qib berishi ham mumkin. Ertak mazmuni bilan tanishgan bolalarga ularning taassurotlari sovumay turib: “Nima deb o'ylaysiz, nega hamma qizaloqqa “Qizil shapkacha” deb murojaat qiladi?” degan oddiygina, ertakning matnini takrorlashga qaratilgan savol bilan murojaat qilinadi. Tabiiyki, bolalarning xotirasi kuchli, ular: “Buvisi nevarasining tug'ilgan kuni munosabati bilan qizchaga bitta qizil shapkacha sovg'a qiladi. O'shandan beri qizcha qayoqqa borsa, shu chiroyli, yangi qizil shapkachasini kiyib borardi. Shuning uchun hamma uni “Qizil shapkacha” deb chaqiradi”, tarzidagi javobni o'z so'zlari bilan imkon qadar batafsil aytib berishadi.

Bolalarni mashg'ulot oldiga qo'yilgan muammo atrofida mulohaza yuritishga yo'naltiradigan navbatdagi: “Qizil shapkachaning o'rmonda to'xtab Bo'ri bilan gaplashish xavfli ekanini bilmasligi sababi haqida o'ylab ko'ring-chi! Sizningcha, bu nimadan dalolat beradi?” savoli – bolalarni asar matniga yondashishda o'zgachalikni talab qiladi.

Ertak matni mazmuniga diqqat qilinsa, unda hech qanday yetakchi g'oya ham, tinglovchi ma'naviyatiga u yoki bu darajada



ta'sir ko'rsatadigan ijobiy jihat ham, mantiq ham (balki bu tarjima jarayonida tushirib qoldirilgandir) yo'q. "Bog'cha opasi" tomonidan qo'yilgan bu savolga javob berishga urinayotgan bolalar Qizil shapkachani "befarosat" deb aytisha olmaydi, albatta, lekin o'rmon chekkasida yashaydigan, o'rmondagi yovvoyi hayvonlar haqida tuzukroq bilimga ega bo'lmagan qizaloq haqida yaxshi gap ayta olmasliklari ham aniq. Chunki bugunning bolalari bu qadar bilimsiz emas. Asar qahramoniga xos bo'lgan bilimsizlik mana shu savolga javob berish asnosida ma'lum bo'ladi.

"O'ylab ko'ringchi, nega bo'ri yaqin yo'ldan o'zi yurib Qizil shapkachani uzoq yo'ldan borishga undadi?" savoli ko'magida bolalar bo'ri ayyorlik qilganini, qizaloqni laqillatganini payqaydilar va o'z fikrlarini aytadilar. Bo'ri qo'zichoqni aldashi mumkindir, lekin uning insonni, aql sohibi bo'lgan yaratiqni alday olishi mumkinligi bugungi bolalarning aqliy mezonlariga sig'maydi. Tarbiyachi tomonidan beriladigan bunday mantiqli savollar tarbiyalanuvchilarni shu kabi haqiqatlarni o'zlari kashf etishlariga yo'naltirganligi bilan ham diqqatga sazovordir.

Bolalarga taqdim etiladigan navbatdagi savol-topshiriqlar: "Qizil shapkacha bo'rining gapiga kirib uzoq yo'ldan ketgani sabablari haqida o'ylab ko'ring. U aqlli qizmi, laqmami yoki qo'rqqoqmi? Buni qanday aniqladingiz?" – ularni o'ylantiradi. Asar qahramonining qilib turgan ishi aqlli odamning qilmishi emasligini bolalar juda yaxshi tushunishadi. Har holda, mazkur savoldan keyin ularda bu qarashning kurtaklari paydo bo'ladi. Lekin bolalar hali uni birdaniga "u laqma, o'ylamasdan ish qiladi" yoki "qo'rqqoq, shuning uchun bo'ri aytgan yo'ldan ketdi" yoxud "uning o'z fikri yo'q, kim nima desa shuni qilib ketaveradi" deyishga jur'at qilisholmaydi, albatta. Chunki ko'ngillarida qizaloqqa nisbatan achinish hissi bor. Qizchaning o'zlari singari kichkinaligi, "yo'lma-yo'l to'xtab, gullar terib, guldasta yasa" shi bolalarda o'ziga nisbatan ijobiy munosabat uyg'otgan. Shu bois birdaniga unga nisbatan salbiy fikr aytolmaydilar. Qolavrsa, qizaloq bo'ridan qo'rqqani ham yo'q. Bolalar bu savolga qanday javob berishlari mashg'ulot asnosida ma'lum bo'ladi, albatta. Lekin "bog'cha opa" o'zining



mantiqli savol va topshiriqlari bilan tarbiyalanuvchilarini mantiqli mulohaza yuritishga yo'naltira borishga mas'uldir. Bolalar javob bera olmaganlari taqdirida ham ular har qanday vaziyatga o'ziga xos tarzda yondashuvga o'rgana boradilar.

“Qizil shapkachaning Bo'ri yoniga borib yotib olishiga qanday qaraysiz?

Bu sizga yoqdimi yo'qmi? Nega?” tarzidagi savolga hamma bolalar “yoqmadi” deb javob berishlari aniq. Chunki bunday vaziyatda aqli bor bola hech qachon bo'rining yoniga borib yotib olmaydi va bugungi texnika zamoni bolalarining aqlliligidan ham ko'z yumib bo'lmaydi.

To'g'ri, “qizaloq uning bo'ri ekanligini bilmadi”, degan fikr kelishi mumkin. Lekin ertak matnida: “Qizil shapkacha Bo'rining xunuk ovozini eshitib, avval qo'rqibdi” degan jumla bor. Shu jumlaning o'zi qizaloqni ziyrakroq bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Chunki ko'ngildan kechgan ilk tuyg'u rost va odamzod bolaligidan, anglab-anglamay buni ilg'ashi, hamisha unga ergashishi kerakligini his qilgani ma'qul. Ko'ngil insondagi Allohning mulki. Undagi hislarga ergashgan odam yomon bo'lolmaydi.

Lekin, afsuski, ertakda voqea-hodisalar bu asosga tayanib rivojlanmaydi. Bu ertak bilan bugungi 5–6 yoshli bolalarni hayratga solib bo'lmaydi.

Voqealar rivojidan kelib chiqib tarbiyachi kichik tarbiyalanuvchilarga quyidagi savol bilan murojaat qilishga majbur bo'ladi: “Buvisining to'shagida yotgan bo'ri bilan Qizil Shapkacha o'rtasidagi suhbat asosida qizaloqqa baho bering. U aqllimi yoki esi yo'q qizmi?

Buni qanday bildingiz?” Tarbiyalanuvchilarning bu savolga qanday javob berishlarini vaziyat ko'rsatadi, albatta, lekin jun bosgan qo'llar, odamnikiga o'xshamagan og'iz, katta-katta oyoqlar, ko'zlar va tishlarni ko'ra-bila turib bo'riga “buvijon” deb murojaat qilish ziyrak tinglovchining g'ashini keltirsa kerak.

Ertak qahramonining bu tutumi bolalarni hayratga solmasligi ham mumkindir, balki. Faqat ular buni hozircha ifodalab bera olmasliklari aniq.



Lekin tarbiyachining vazifasi tarbiyalanuvchilarni badiiy asarlardagi, hatto ertaklarda bo'lsa ham, to'g'ri bilan noto'g'rini, hatto badiiy yolg'onda ham qandaydir mantiq bo'lishi lozimligini yo'naltiruvchi savol-topshiriqlari orqali anglatib borishdan iboratdir: “Nima deb o'ylaysiz, Qizil shapkachaning bo'rini ko'ra-bila turib unga bergan savollari nimani anglatadi?”

Ma'lumki, o'zbek xalq ertaklarida ham, adabiy ertaklarda ham pand-nasihat, yaxshilik, to'g'rilik, halollik, mardlik va hk. ijobiy hislarga yo'naltirish ustuvorlik qiladi.

Dunyo miqyosiga chiqqan, juda ko'p tillarga tarjima qilingan “Qizil shapkacha” ertagidan o'zbek bolalari bunchalar laqma, ahmoq va fikrsiz bo'lmaslikni, agar shunday bo'lsa, ayyor, aqlli yaratqlar qurboni bo'lib ketish mumkinligini anglab olarlar, degan umid bor.

Mazkur ertak zamirida odam qancha sodda bo'lsa, beg'ubor bo'lsa uni Xudoning o'zi asraydi, degan g'oya bo'lishi ham mumkin. Agar shunday bo'lganda, odamga xos bo'lgan aqllilik, ziyraklik, fikr qilish va hk. fazilatlar ijobiy hislat sifatida baholanmagan bo'lardi. Alloh insonga yuqtirgan bu sifatlar unga bekorga berilmagan.

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini o'ylab fikr aytishga undovchi keyingi savol-topshiriqlar:

1. Bo'rining Qizil shapkacha va uning buvisini yeb qo'yganiga ishonasizmi? Nima uchun?

2. O'tinchilar Bo'rining qornini yorganiga va u yerdan Qizil shapkacha bilan buvisining eson-omon chiqqaniga qanday qaraysiz? Nima uchun?

3. Sizningcha, ertak qahramonlaridan qaysi biri aqlli? Buni siz nimalarda ko'rdingiz?

4. Mazkur ertak mazmuni asosida o'zingiz yangi ertak yarata olasizmi? Bir urinib ko'ringchi!

Bu savollarga ham tarbiyalanuvchilar o'z bilganlaricha javob beradilar, topshiriqlarga munosabat bildiradilar. Albatta, Qizil shapkacha va buvisining bo'ri qornidan eson-omon chiqqanlari ijobiy hol.



Ertaklarda bu o‘rinli. Mazkur lavha bolalarning ko‘ngillarini yorishtiradi. Chunki ular tabiatan hamisha yaxshilikning, ayniqsa, ertaklar yaxshilik bilan tugashining tarafdori. Lekin aqllilik, ziyraklik va fikr yuritish masalasida ularning xulosasi hech ham Qizil shapkacha tomonda bo‘lmasa kerak, degan umid bor. Yana kim biladi...

Mana shunday tarbiyaviy-didaktik tahlil asnosida bolalar kichik yoshidanoq o‘zlari anglab-anglamay muammoning yechimiga qarab boradilar.

Ularga muammo-yu muammoli savollarning ahamiyati ham yo‘q. Lekin “bog‘cha opa”ning mahorati, bilimliligi bolalarning Qizil shapkachaga munosabatlarini o‘zgartirishi mumkin. Uni 2–3 yoshli bolalardek ko‘r-ko‘rona yaxshi ko‘ravermaydilar. Boshqacharoq munosabat, o‘zgacharoq yondashuvga ergashadilar.

Yangi ertak yaratish masalasini tarbiyalanuvchilarga uyda, ota-onalari ko‘magida bajarishni topshirish mumkin. Kichik yoshdagi ertakchilarning bog‘cha opasidan olgan bu topshirig‘i, ularning nazarida, boshqa har qanday aqlli odamning qarashlaridan balandroq.

Shu ma’noda, ularning ayrimlari ertasi kuni yangi ertak bilan kelishlari, ishonsa bo‘ladigan haqiqat.

Shunday bo‘lgan taqdirda bolalarning ertagini diqqat bilan eshitish, “tushunmagan” o‘rinlariga aniqlik kiritib olish, boshqa bolalarni yangi ertakni diqqat bilan eshitishga jalb etish, kam deganda, ma’naviy ozuqa beradi kichik ertakchiga. Uni bunday tuyg‘ulardan mahrum qilmaslik, tarbiyachining burchidir.

“Ertakdagi biror epizodning suratini chizishga urinib ko‘ring. Chizgan rasmingizni “o‘qib” bering” tarzidagi topshiriqni guruhdagi xos bolalar bajarishsa kerak. Lekin ular qanday chizishlaridan qat’i nazar, tarbiyachi tarbiyalanuvchisining ijodi mahsulini rag‘batlantirish bilan birga uni sharhlab berishni ham talab qilishi shart.

Tarbiyalanuvchi o‘zi chizgan suratining har bir detalini izohlashga urinib ko‘rsin. Nima uchun shu detalni suratiga kiritganini asoslab bersin.



Suratida nimalar aks etganini bog‘cha opasi va o‘rtoqlariga tushuntirib berish, har ikkalasi uni diqqat bilan tinglayotgani bola-muallifga zavq beradi. Uning ko‘nglini ko‘taradi. Shu tariqa, avvalo, shaxs shakllanishi yo‘lidagi taraqqiyotning samaradorligi ta‘minlanadi. Qolaversa, iqtidori bor bolani tasviriy san‘at namunalarini o‘qishga yo‘naltirishdek ma‘rifiy ish amalga oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://uzbaza.uz/qizil-shapkacha-qalpoqcha-ertak/#google_vignette
2. <https://www.youtube.com/watch?v=NBURuBu95AY>
3. <https://www.youtube.com/watch?v=w0cA6v-udCI>



ONA TILI TA'LIMI MUAMMOLARI

YOZMA ISHLARNING BAYON QILINISHIGA DOIR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH



Tursunoy YUSUPOVA

*Pedagogika fanlari nomzodi,
ToshDO'TAU dotsenti*

El-manzil: tursunoy05@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada matn yaratish turlari, ularning tavsifi, o'quvchilarda yozma ishlarning tashkiliy-texnik jihatlaridan boshlab to matn yaratishga doir bilim, ko'milma, malakalarni shakllantirish hamda rivojlantirish yo'l-yo'riqlari bayon qilingan. Shuningdek, yozma ishlar, xususan inshoning xatolari ustida ishlash, ularni baholashga oid fikr-mulohazalar ham aks etgan.

Kalit so'zlar: yozma ish, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, matn, savodxonlik, bayon, insho, hikoya, matn ustida ishlash.

Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi murakkab jarayondir. Chunki tugal fikr ifodalangan bitik matn hisoblanadi. Chunonchi, ona tili ta'limining maqsadi ham aynan shu parametrdan mujassamlashadi. O'quvchining ona tili ta'limi jarayonida egallagan ko'nikma va malakalari ham u yaratgan matnda o'z aksini topadi. Demak, o'qituvchi ham ta'lim sifatining natijasini aynan shu parametr asosida baholashda o'quvchi tomonidan egallangan ushbu ko'nikmalarning qay holatda ekanligi bilan aniqlanadi: a)



fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligi; b) fikrlash, mavzuning murakkablik darajasi (sodda, murakkab, aniq, mavhum va hokazo); v) tavsifning mavzuga muvofiqligi va tavsifning qiymati; g) tavsifda tilning ifoda vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish darajasi; d) imloviy (yozma) savodxonlikning sifati. Ko‘rinib turibdiki, o‘quvchilarning matn yaratish va matn ustida ishlashlari mashg‘ulotning ikkinchi, to‘rtinchi bosqichlarida va sinfdan tashqari beriladigan topshiriqlarda markaziy o‘rinni egallaydi.

O‘quvchilar yaratishi lozim bo‘lgan matnlar bir necha xildir. Ulardan asosiylari:

1. *Mashg‘ulotda hosil qilingan bilim va ko‘nikmani amalda qo‘llab matn yaratish.* Bunday matnlar ikki va uchta gapdan iborat bo‘lishi, monolog va dialog tarzida, qisqagina tasvir yoki hikoya shaklida bo‘lishi mumkin. Ularning aniq shaklini o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchining o‘zi tanlashi kerak.

2. *Berilgan mavzu asosida tasvir (kichik insho) yaratish.* Bunday tasvirlar yozma va og‘zaki ko‘rinishlarda o‘quvchilarning yosh va malaka darajasiga mos mazmun hamda hajmda bajarilishi lozim.

3. *Insho – matnning oliy ko‘rinishi.* Dastur quyidagi insho turlaridan foydalanishni ko‘zlaydi: a) ilmiy insho (til, tarix, biologiya va boshqa fanlardan har bir fan uchun xos bo‘lgan biror mavzu yoki masalani ochish); b) ilmiy-badiiy insho (badiiy asar, yozuvchi ijodi, adabiy jarayonlar tahliliga bag‘ishlangan insholar); v) badiiy-ijodiy insholar (san‘at asarini o‘rganishdan o‘quvchining hosil qilgan shaxsiy kechinmalari tasviri); g) tasviriy insho (narsa, shaxs, manzara va hk. tasviriga bag‘ishlangan insho); d) erkin mavzudagi insho.

Matn ustida ishlash ona tili mashg‘ulotlarida asosiy o‘rinni egallaganligi sababli, 8-sinfning boshida «Ijodiy matn. Insho va uning turlari» bo‘limi kiritilgan. Bu bo‘lim o‘quvchilarning 1–7 sinflarda matn ustida olib borgan ishlarini umumlashtirib, ularni yuqori sinflarda birmuncha murakkab bo‘lgan insho ustida ishlashga tayyorlaydi.





Biz bilamizki, insho – o‘quvchilarning ijodiy fikrlash darajasi, dunyoqarashi, adabiy til me‘yorlarini nutqiy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatlarini belgilovchi asosiy mezon. Shuning uchun ham inshoni yozishda yo‘l qo‘yladigan matniy xatolar va ularning kelib chiqish sabablarini o‘quvchiga anglatish juda ham muhim masala hisoblanadi. Matniy xatolar va ularning kelib chiqish sabablarini anglashga, matniy xatolarning oldini olish va ularni bartaraf qilishga yordam beradigan nazariy asoslarni o‘rganish maqsadida ko‘plab manbalarga murojaat qilindi. Manbalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, A. Aliyev, S. Dolimov, S. Ismatov, Q. Ahmedov, B. Turdiyev, O. Madayev, K. Qosimova, R. Abdulahatova, N. Shukrullayeva, R. Inog‘omova, N. Sattorovalarning nomzodlik dissertatsiyalari va uslubiy qo‘llanmalarida o‘quvchilarni insho yozishga o‘rgatishning ayrim jihatlari yoritilganligining guvohi bo‘ldik.

Ko‘p manbalarni o‘rganish va tahlil natijasida matnning mazmuni va tuzilishini o‘rgatishda doimiy va uzluksiz zarur bo‘ladigan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar mavjudligini, ularning quyidagi 4 ta guruh asosidagi tasniflangani ma‘lum bo‘ldi: a) inshoning tashqi tashkiliy-texnik jihatlariga doir bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar; b) yozma ishning (inshoning) mazmuniy-mantiqiy bayon qilinish jihatlariga doir bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar; d) matndagi xatboshilarning vazifaviy-ma‘noviy turlari bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar; e) matn yaratish bilan bog‘liq ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar [7, 76-b.].

Yozma ishning mazmuniy-mantiqiy bayon qilinish jihatlari haqida gap ketganda, dastavval, unda turli sintaktik qurilmalarni tuzish, ularning chegarasini belgilash, shu maqsadda tinish belgilarini ishlatish; ikkinchidan, yozma ishda ilgari surilgan fikrni asoslash, yozish jarayonida hayot tajribasidan kelib chiqish; uchinchidan, matnda so‘z ishlatish hamda matniy ma‘nodoshlardan foydalanishga doir bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni tahlil qilib olish zarurdir.





Matnda turli sintaktik qurilmalarni tuzish, ularning chegarasini belgilash, shu maqsadda tinish belgilarini ishlatish masalasi matnni yaratishda muhim sanaladi. Buning uchun o'quvchilarga mustaqil gaplarning, gap tarkibidagi sintaktik birliklarning, ya'ni undalma, ajratilgan gap bo'lagi, kirish so'z, kiritma kabilarning chegarasini tinish belgilari yordamida belgilash uchun ularning shakliga, ifoda maqsadiga, mazmuniga, aytilish ohangiga, tuzilishiga, ayniqsa, bir-biridan farqiga e'tibor berish lozimligi, matn tarkibidagi mustaqil gaplar sodda gap, qo'shma gap, undalmali gap, ajratilgan bo'lakli gap, ko'chirma gap, o'zlashtirma gap, dialogli gap, kirish so'zli gap, kiritma gapli gaplarning bo'lishi mumkinligi, matnda sodda gapning sodda gap bilan, sodda gapning qo'shma gap bilan, qo'shma gapning sodda gap bilan, sodda gapning ko'chirma gap bilan, atov gapning sodda gap bilan, atov gapning qo'shma gap bilan, so'z-gap bilan sodda yoki qo'shma gap bilan o'zaro bog'lanishi, bir-biridan nuqta, so'roq, undov belgisi, ikki nuqta, ba'zan uch nuqta, vergul, tire, qavs kabi belgilarni qo'yib ajratib yozish lozimligi *bilim* sifatida berilishi shart.

Ayni shu bilimlar amaliy ishlar orqali quyidagi *ko'nikmalarga* aylantiriladi: a) mustaqil gap turlarini shakllantira olish, ularni matndan ajrata olish, o'zaro farqlay bilish; b) mazmuni, ohangi, ifoda maqsadiga qarab ikki gapni bir-biridan nuqta, so'roq yoki undov belgisi, ba'zan qo'sh belgilarni qo'yib ajratib yozish. Bularni bilish va amalda qo'llay olish matnni yaratish jarayonida juda ham zarur, chunki ular mazmuniy va mantiqiy bayon qilishda muhim ahamiyat ega. Matnni yaratishda mustaqil gap turlarini hisobga olgan holda bir-biridan ta'lim bosqichlarida o'rganilgan tinish belgilarini o'rinli qo'yib ajratib yozish *malakasi* shakllantiriladi. Demak, bu bilim, ko'nikma va malakalar ustida ish olib borish 5-9-sinflarda ba'zi bir mavzularning o'tilishiga qarab muayyan izchillikda amalga oshiriladi. Ba'zi matniy xatolarning tipik va turg'un ekanligini hisobga olib, darslik asosida belgilangan tushunchalar amaliy ravishda nisbatan oldinroq o'rganilishini



rejalashtirish lozim. Buni amalga oshirish uchun esa quyidagi mashqlarni tanlash lozim bo'ladi.

Bunday mashqlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

– yozilgan matndagi gaplarning chegarasini to'g'ri belgilash, zaruriy tinish belgilarini to'g'ri qo'yish;

– matnda berilgan gaplarning qanday gap turlari ekanligini aniqlab, unda tushirib qoldirilgan tinish belgilarini to'g'ri qo'yish;

– matn tarkibidagi sintaktik qurilmalarning bir-biridan farqini aniqlash, farqni izohlash, qo'llanilgan tinish belgilarini tushuntirish;

– matn tarkibidagi sintaktik qurilmalarni to'g'ri o'qish, ohangiga qarab qaysi gap turi ekanligini izohlash, qo'llanilgan tinish belgilarining qo'yilish sabablarini tushuntirish.

Xullas, bu kabi mashqlardan foydalanishni uzluksizlik va uzviylik tamoyili asosida tadrijiy amalga oshirmoq kerak, chunki o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish masalasi ona tili ta'limi oldida turgan doimiy muammolardan hisoblanadi.

Ijodiy yozma ishlarda *ilgari surilgan fikrni asoslash va uni bayon qilishda hayot tajribasidan kelib chiqish, so'z ishlatish va matniy ma'nodoshlardan foydalanish* masalasi ham muhim sanaladi. Chunonchi, ijodiy yozma ishlarda o'z fikrlarini to'g'ri bayon qilish, keltirilgan asos va dalillarning yanglish bo'lishi yoki hayot haqiqatiga zid kelishi, so'z ishlatish ayrim holatlarda matnning umumiy mazmunini to'g'ri tushunishga xalaqit berishi, ba'zida fikriy g'alizlikni keltirib chiqarishi matnning mazmuniga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham o'quvchilarga turli sintaktik qurilmalarni tuzish, ularning chegarasini belgilash, shu maqsadda tinish belgilarini ishlatishni o'rgatish bilan bir qatorda ijodiy yozma ishlarda ilgari surilgan fikrni asoslash va uni bayon qilishda hayot tajribasidan kelib chiqishga o'rgatish juda ham zarur. Buning uchun o'quvchilarda dastavval, xat boshida bayon qilingan birinchi gap shu xatboshi uchun asosiy fikr sanalishi va uni keyingi gaplar orqali ochib berish, asoslash lozimligi, o'quvchilarga real voqelikni aniq ko'z oldiga keltirishi, hayot tajribasidan foydalanish zarurligi va bildirilayotgan fikrlar



haqiqatga yaqin bo'lishi zarurligi, gap tuzayotganda so'zning ma'nosini, jumla mazmunini real voqelik bilan nisbatlab ko'rish, so'zni u bilan bog'lanayotgan boshqa so'z bilan birika olish yoki birika olmasligiga e'tiborli bo'lish, bayon qilinayotgan fikrning aniqligiga diqqatni qaratish kabilar haqida *bilimlar* beriladi.

O'quvchilar ularga berilgan ushbu bilimlarni o'rganish va uqib olish natijasi avval voqelikni aniq tasavvur qilishga intilish va fikr ifodalash, yozma ishni yozishdan oldin ishlatmoqchi bo'lgan so'zlarining ma'nosini izohli lug'atlardan foydalangan holda aniqlab olish va gapda to'g'ri ishlatish kabi *ko'nikmalarga* ega bo'lib boradi. Ko'nikma matnning (masalan, inshoning) qoralama nusxasini tayyorlash jarayonida izchillik bilan hayot haqiqatini to'g'ri anglash va mushohada yuritish, yaratilayotgan matnda va tuzilayotgan gaplarda so'zlarning ma'nolarini bilib va to'g'ri ishlatish *malakasiga* aylanib boradi. Bu borada quyidagi so'z qo'llash bilan aloqador jihatlar doimo ona tili o'qituvchisining diqqat markazida bo'lishi lozim: a) so'zning real voqelikdan uzoq ma'noni anglatishi; b) tezis o'rnidagi gap orqali anglashilgan fikrning keyingi gaplar orqali rivojlanilmay qolishi. Demak, o'quvchilarda so'z ishlatish bilan bog'liq bilim va ko'nikmalarning malaka sifatida shakllanishi har bir darsda amalga oshirilib borishini ta'minlash talab qilinadi. Har bir ona tili darsida o'quvchi qaysi qoida ustida ishlamasin, albatta, gap va matnga duch keladi. Qilinadigan grammatik tahlillar ham gap va matn asosida olib boriladi. Shuningdek, yozma ishning tahlili jarayonida ham keyingi inshoda aynan shunday xato va kamchilikka yo'l qo'ymaslik uchun bu inshoda mantiqiy bayon qilish bilan bog'liq xato va kamchiliklarning tahlili o'tkazilishi shart. Bunda eng ko'p xatoga yo'l qo'yish, asosan, ayni bir so'zni har gapda yoki gap oralatib takror va takror qo'llayverishdir.

Bizningcha, bunday xatoga yo'l qo'yilgan inshoni sinfda barchaga eshittirib o'qib berish orqali anglatish zarur. Bunda o'quvchilar aynan shunday xatoni takror va takror qo'llanavergan so'zni toppish orqali ko'rsatib berishadi. Bunday xatoni bartaraf etish esa matniy ma'nodoshlardan foydalanish orqali bartaraf



etiladi. Aynan shu holatni o'quvchilar bilan birgalikda amaliy ish orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Bunda takror qo'llangan so'zni boshqa so'z bilan almashtirish harakatiga tushadi.

O'quvchilarda yuqorida sanab o'tilgan ko'nikma va malakalarni shakllantirishda yozma ishlar (insho)ni o'tkazishdan oldin bir qator amaliy mashqlarni bajartirish lozimki, bu – o'quvchilarga berilgan so'zga matniy ma'nodoshlar toptirish va ularni shu so'z o'rniga qo'yib aytirishdir. Shunday amaliy mashqlarga ona tili darslarida juda ko'p qo'llaniladigan mashqdagi xatolarni tuzatish ishidan foydalanish maqsadga muvofiq [8, 34-b.]. To'g'ri, bunday mashqlar asosan imlo va tinish belgilariga doir xatolarni bartaraf qilishda va imlo savodxonligini oshirishda muntazam qo'llanib kelinadi, ammo buni insho matnida uchraydigan so'z takrorini bartaraf etishda foydalanish ham yaxshi samara beradi. Bunda asosiy e'tibor amaliy mashq uchun tanlangan matndagi so'z takrori bilan bog'liq xatolarni tuzatish vazifa qilib beriladi, uning o'rniga mos keladigan olmoshlardan yoki ma'nodosh so'zlardan mosini qo'yib matnni tahrir qilish topshirig'ini bajaradilar. Muntazam bunday amaliy ishni bajarish mustaqil ravishda yozadigan bayon, insho va esse kabi yozma ishlarni yozishda aynan so'z takrori bilan bog'liq xatoga yo'l qo'ymaslik malakasining shakllanishiga yordam beradi.

Chunonchi, ona tili darslarida o'quvchilarga matniy ma'nodoshlarning bir so'z takroridan xalos etuvchi vosita ekanligini anglatish muhim masala hisoblanadi va bunda, nafaqat, olmosh va ma'nodosh so'zlar, balki bog'lovchilar, ayrim ko'makchilar, yuklamalar, turli ma'no ifodalovchi, shu jumladan, o'rin va payt ma'nosini bildiruvchi so'z shakllari, ko'makchili birikmalar va ravishlarning sintaktik ma'nodoshlarini yuzaga keltiruvchi jihatlariga ham e'tiborni qaratish kerak. Bu vositalar birinchi gapda ifoda etilgan ish-harakatning ikkinchi gap orqali bildiriladigan ish-harakatga aloqadorligini aks ettirishda, mustaqil gaplar yoki xatboshilarda aks etgan voqelikning keyingi gapdagi voqelikning oldingi gapdagi voqelik sababli sodir bo'lishida, o'rin-payt yoki sabab-natija munosabatlari ko'rsatilishi yoki umuman



shaxsiy fikrning ifodalanishda qo'llaniladi. Insho matnidagi mustaqil gaplar va xatboshilarni bog'lash kirish so'z, kiritmalar va iboralar yordamida amalga oshiriladi. Bular esa matnning mazmuniy va struktural boyligini ta'minlaydi. Ijodiy yozma ishlarda so'z ishlatish va matniy ma'nodoshlardan foydalanish masalasi haqida gap ketganda, matnda payt, mayl, nisbat munosabatini ifodalashda xatboshilarni tashkil etuvchi fe'llarning shakl uyg'unligini yoddan chiqarmaslik lozim. O'quvchilar bilishi lozim bo'lgan bir qator bilimlar borki, ular ham o'quvchilar yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, yozma ishning bayon qilinishi bilan bog'liq bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish doimiy ravishda inshoning tashkiliy-texnik jihatlar bilan bog'liq bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan uzviy tarzda amalga oshirilishi yo'lga qo'yish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu haqdagi fikrlarni O.Madayev, A.Sobirov, Z.Xolmanova, Sh.Toshmirzayeva, G.Ziyodullayeva, M.Shamsiyevalar tomonidan yozilgan “Yozma ish turlari: insho, bayon va diktant” metodik qo'llanmasida uhratish mumkin. Unda tashkiliy-texnik va maznuniy-mantiqiy jihatlar haqida umumiydashgan tavsif keltirilgan bo'lib, ularga quyidagilarni kiritadi:

- inshoning (yozma ishning) chiroyli husnixat bilan aniq va to'g'ri yozilishi lozimligi;
- insho matni (yozma ish matni) mavzuga mos reja asosida bayon qilinishi zarurligi;
- insho yozma ish sifatida matnning asosiy belgisi bo'lgan mazmuniy butunlikka ega bo'lishi lozimligi;
- inshoda (yozma ish matnida) uslubiy birlik va ifodalilikka amal qilishning o'ta muhimligi;
- fikrni ifodalash uchun so'zlarni aniq tanlash, jumlar soddaligiga rioya qilish kerakligi;
- inshoning (yozma ishning) hajm jihatidan talab darajasida bo'lishi kerakligi;



– insho (yozma ish matnining) matnining mazmuniy qismlarda muvofiq ravishda xatboshilarga ajratish va xat boshidan yozishni talab etish muhim.

Shuningdek, bilim, ko‘nikma va malakalar tekshirilib baholanganda quyidagi to‘rtta parametrga tayaniladi: a) imlo xatolari; b) tinish belgilari xatosi; d) uslubiy xatolar; e) mantiqiy xatolar [3, 52–58-b.].

Demak, dastavval, o‘quvchilarda inshoning tashkiliy-texnik jihatlariga doir bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish lozim. Bu esa o‘quvchilarda *inshoning (yozma ishning) mazmuniy-mantiqiy bayon qilinish jihatlarini, matndagi xatboshilarning vazifaviy-ma‘naviy turlari va matn yaratish* bilan bog‘liq ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarning shakllanishiga imkon yaratadi. *Inshoning (yozma ishning) mazmuniy-mantiqiy bayon qilinish jihatlarini, matndagi xatboshilarning vazifaviy-ma‘naviy turlari va matn yaratish* bilan bog‘liq ko‘nikma va malakalarning shakllanishi navbatdagi – *matndagi xatboshilarning vazifaviy-semantik turlari* bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish imkonini beradi. *Matndagi xatboshilarning vazifaviy-semantik turlari* bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllanishi oxirgi bosqich – *matn yaratish* bilan bog‘liq ko‘nikma va malakalarning shakllanishiga olib keladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bu bilim, ko‘nikma va malakalarni shunday tavsiflash va tasniflash o‘quvchilar yozma ishlaridagi yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan xatolarning oldini oladi, real baholanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Долимов С. Таълимий баён ва иншо. – Т.: Ўрта ва олий мактаб, 1964. – 100 б.
2. Ивченко П.Ф. Обучающие изложения. 5–9-классы: пособие для учителей / П.Ф.Ивченко. – Москва: Просвещение, 1994. – 224с.
3. Madayev O., Sobirov A., Xolmonova Z., Toshmirzayeva Sh., Ziyodullayeva G., Shamsiyeva M. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. – T.: Turon zamin ziyo, 2017. – 104 b.
4. Madayev O. Insho qanday yoziladi? O‘rta maxsus o‘quv yurtlarining o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 1991. – 91 b.

5. Сатторова Н. Ўқувчиларнинг иншо ёзиш малакаларини такомиллаштириш (5-синфда она тили ўқитиш жараёнида): Пед. фан. ном. ... дисс. – Т., 1995. – 141 б.

6. Урумбаева Г. Н. Лингводидактические основы обучения учащихся 7–9 классов сложному синтаксическому целому как базовой структуре монологической речи (на материале школ с каракалпакским языком обучения): Автореф. дисс. ... канд.пед.наук. – Т., 2001. – 23 с.

7. Yo'ldoshev R. A., Rixsiyeva M. M. Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi. – Т.: Fan va texnologiyalar, 2018. – 156 б.

8. Yo'ldoshev R. A., Mirjalolova L. R. Ona tili ta'limida kompetensiyaviy yondashuv. – Т.: Fan va texnologiyalar, 2019. – 46 б.

9. Юлдашева Д. Н. Таълим мақсади таълим жараёнининг энг асосий тушунчаси (*она тили таълими асосида*). – «Тилшунослик ва методика масалалари» илмий мақолалар тўплами. –Т.: Фан, 2008. – 45–50-б.

10. Yuldasheva D. N. O'zbek tilini o'qitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida) / Darslik. – Buxoro: OOO “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2021. – 424 б.

ONA TILI TA'LIMIDA INTERAKTIV METODLARNI QO'LLASHNING ZARURIYATI



Surayyoxon QIPCHOQOVA

*Izboskan tumani 18-maktabi ona tili va
adabiyot o'qituvchisi.*

El-manzil: xudoberdiqipchoqov@gmail.com:

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta'limda faol qo'llash mumkin bo'lgan bir qator interaktiv metodlar haqida gap boradi. Ularni dars jarayonida qo'llash, amaliyotga tatbiq etish usullari hamda ulardan kutiladigan natijalar, zamonaviy ta'limda olib borilishi kerak bo'lgan jihatlar o'z aksini topgan.*

Kalit so'zlar: *metod, usul, interaktiv metodlar, zamonaviy ta'lim, dars jarayoni, kreativ fikrlash, o'z-o'zini baholash.*

Bugungi kunda zamon bilan hamnafas bo'lish, u bilan birgalikda taraqqiyot yo'lidan borish har bir o'qituvchi-ustoz uchun zarurdir. Zero, yosh avlodni tarbiyalashdek ulkan vazifa zimmasiga yuklangan o'qituvchi ularni har tomonlama o'ziga jalb eta olishi, yangi pedagogik texnologiyalar asosida darslarni samarali tashkil etishi kerak. Sababi, “Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi” [1, 13-b.] O'quvchi diqqatini jalb etishda pedagogik texnologiyalar, turli metod va usullar qo'l keladi. Xususan, innovatsion texnologiyalar dars jarayonida o'quvchilarda quyidagi sifatlarni shakllantiradi:

1. Diqqatni jamlaydi.
2. Darsga qiziqtiradi.
3. O'z fikrini erkin bayon etishga o'rgatadi.
4. O'tilgan mavzuning yaxshi esda qolishini ta'minlaydi.
5. Topqirlik, ziyraklik sifatlarini shakllantiradi.

6. Og‘zaki va yozma savodxonlikni rivojlantiradi.

7. Taqqoslash, qiyoslash sifatlarini oshiradi.

8. O‘z-o‘zini baholashga o‘rgatadi.

Darslarni an‘anaviy metod va usullardan foydalangan holda tashkil etish bilan bir qatorda interaktiv o‘qitish kechimini ham qo‘llash samaradorlik garovidir. Dars jarayonini interaktiv usullarda tashkil etish, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish bugungi ta‘lim maqsadiga muvofiq bo‘ladi. Hozirda bunday metod hamda usullar ko‘p va xilma-xil bo‘lib, ulardan maqsadga muvofiq foydalanish uchun bu tushunchalarning mohiyatiga kirib olish zarur bo‘ladi.

Metod (yunoncha *methodos* – tadqiq qilish usuli) – hayotni estetik o‘zlashtirish, uni badiiy ifodalash va baholashning umumiy tamoyillarini anglatadi. Akademik I. Sultonov aytganidek, metod san‘atkorning hayotga, voqelikka munosabati masalasidir. [2, 519-b.] Uslub deganda esa, har bir yozuvchi ijodining faqat o‘zigagina xos, takrorlanmas xususiyati tushuniladi. Yana ham tushunarli qilib aytsak, metod sahna bo‘lsa, usul unda qo‘yiladigan asarlar hisoblanadi [3, 56-b.] Sahna asarlari xilma-xil bo‘lganidek, uslublar, usullar ham turlicha bo‘ladi. Dars jarayonida ham o‘qituvchi metod va usullarni to‘g‘ri tanlay bilishi va shu orqali ta‘lim jarayonini yuksak darjada olib borishi mumkin bo‘ladi. Albatta, tarbiya jarayoni darsda ta‘lim bilan yonma-yon olib borilmog‘i zarur. Zero, “Tarbiyada tanaffus bo‘lmaydi” [4, 26-b.].

Quyida dars mashg‘ulotlarida qo‘llash hamda o‘quvchilarni ta‘lim va tarbiya jihatidan yuksaltirishda foydalanish mumkin bo‘lgan bir necha kichik metod va ularga xos bo‘lgan usullarni taklif etamiz.

“Portret” metodi

Adabiyot darslarida turli o‘yinlar va metodlarni qo‘llash juda o‘rinli. Chunki bu o‘quv fani doirasida olinadigan ma‘lumotlar juda ko‘p. O‘quvchilar ma‘lumotlarni o‘zlashtirishda biroz qiynalishlari, muammolarga duch kelishlari mumkin. Shu sababli ularning esda olib qolish qobiliyatlarini yuksaltiruvchi turli usullar qo‘llash, buning uchun o‘rinli yechim bo‘la oladi. Tavsiya etayotgan usulimiz

adiblar va yozuvchilarning shaxs sifatida o‘quvchilar yodida yaxshi qolishiga yordam beradi.

Bunda tarqatmalar qo‘l keladi. Tarqatmaning bir tarafida ijodkorning surati yashirin holda turadi. Tarqatma qog‘ozning ko‘ringan tarafiga so‘roq belgisi tushirilgan bo‘ladi. Uning ortidan yashirilgan ijodkorning kim ekanligini topish va uning asarlaridan aytib berishi kerak bo‘ladi. Masalan:



Ushbu metodni darsning “O‘tilganlarni takrorlash” hamda “Mustahkamlash” qismlarida qo‘llash (bu yerda metodning asosi portret. Tinish belgisi va u bilan bog‘liq yo‘naltiruvchi savollar hamda portretni o‘qish bilan bog‘liq topshiriqlar berish, ular bilan ishlash bu metodning usullari hisoblanadi) maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda o‘quvchilar Said Ahmadning hayoti va ijodi, shaxsi, asarlari, ularning qahramonlari bilan bog‘liq savollar tuzadilar. Yozuvchining portretini o‘qishga yo‘naltiradilar. Savollarga sinfdagi boshqa o‘quvchilar javorb beradilar. Bir-birlarining javoblarini to‘ldiradilar. Adibning suratiga qarab uning o‘ziga xos jihatlarini o‘z imkoniyatlari doirasida ta’riflab beradilar. Bu orqali o‘quvchilar o‘zbek adabiyoti vakillarini yanada yaxshi tanib, esda olib qolishlari mumkin bo‘ladi.

“Yashirin so‘z” metodi

Har bir metod yoki usuldan foydalanishda o‘ziga xos bir maqsad belgilab olinadi. Bu maqsad, albatta, o‘tilayotgan darsning yaxshi o‘zlashtirilishida, o‘quvchilarni tetiklashtirishda, darsga jalb etishga xizmat qiladi. “Yashirin so‘z ” metodi o‘quvchilarni tetiklashtirib, ularni diqqatini jamlashga yordam beradi. Undan ona



tili darslarida ma’nodosh soʻzlar mavzusini oʻrganishda foydalanish mumkin. Bu oʻqituvchidan ma’lum tayyorgarlikni talab etadi. Chunki oʻqituvchida sheʼrlar zaxirasi boʻlishi, undan oʻrniga qarab foydalana bilish kerak. Shu bilan birgalikda oʻquvchilarga ham uy vazifasi sifatida shunday topshiriqlarni tuzib kelishni topshirish ularda ham sheʼriyatga boʻlgan qiziqishning ortishini, sheʼriy kitoblar bilan tanishishni taʼminlab beradi. Shu sababli bunday topshiriqlarni oʻquvchilarga tez-tez berish ularning salohiyatini oʻstiradi. Hozirgi zamonning talabi ham aynan oʻquvchining mustaqil fikrlashi va oʻz-oʻzini baholashiga qaratilgan. Oʻqituvchi esa oldiga qoʻygan maqsadiga oʻquvchilarni faollashtirish orqali erishadi. Oʻqituvchi kuzatib, yoʻnalish berib turuvchi – boshqaruvchi sifatida ishtirok etadi:

1

- Bir ... -ki, tuprogʻida oltin gullaydi,
- Bir ...-ki, bogʻlarida shivirlar bahor.

2

- Doʻstlar mening ... imni Oʻzbekiston deydilar,
- Dongʻi ketgan dunyoga bogʻ-u boʻston deydilar.

3

- Faqat ojiz qalamim manim,
- Oʻzbekiston ... im manim.

Yuqoridagi misralarda quyidagi soʻzlar tushib qolgan: oʻlka, yurt vatan

Shu soʻzlar vositasida oʻquvchilarga mavzuni oson va esda qolarli tarzda tushuntirish mumkin boʻladi. Ushbu usulni paronim soʻzlar mavzusida ham qoʻllash mumkin. Misol uchun:

1. ... lar chaling sozni,
2. Baland qoʻying ovozi.
2. Voy dod dunyolar ... i,
- Iskandarning bor ... i.

“Ortiqchasi qani?” metodi


Hozirgi kunda taʼlimda 4K modelini qoʻllash taʼlim samaradorligini oshirishda muhim rol oʻynamoqda. Zamonaviy taʼlimning asosiy maqsadlaridan biri oʻquvchilarning jamoa boʻlib



ishlashlari, tanqidiy baholashga o‘rgatish, o‘z fikrini erkin ifodalashga yo‘naltirishdir. Bu metod o‘quvchilarni o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lish va uni ifoda etishga o‘rgatadi. Shuningdek ularda topqirlik sifatlarini shakllantiradi.

Bunda doskaga uchta so‘z yoziladi. Ushbu so‘zlardan bittasi qatorda ortiqcha bo‘ladi. Masalan, Mustaqil so‘z turkumlari deb yoziladi yuqoriga. Ushbu uchta so‘zdan mustaqil so‘z turkumiga kirmaydigan bitta variant chiqarib tashlanadi.

Mustaqil so‘z turkumlari



“SSS (Suratdagi sirli so‘z)” metodi

Ushbu metod bevosita suratlar bilan bog‘liq bo‘ladi. O‘quvchilarni darsga qiziqtirishda turli qiziqarli topshiriqlar va rasmlar o‘yinlar juda qo‘l keladi. Sababi, suratni kuztish orqali o‘quvchi fikrlaydi, predmentlarni taqqoslaydi. Shu sababli bugungi kunda rasm asosida topshiriqlar talaygina. Rasm asosidagi iboralar, maqollar, topishmoqlar yoki asar nomlarini topish bilan bog‘liq turli boshqotirmalar fikrimizga yorqin misol bola oladi. Tavsiya etayotgan usullar ona tili va adabiyot darslarida faol qo‘llanilishi mumkin, xususan, “Ma‘nodosh so‘zlar “ mavzusini o‘tishda qo‘llash maqsadga muvofiq.



Qo'llanish tartibi: o'qtuvchi sinonimlar lug'atidan bir nechta so'zni tanlab oladi va ularning suratlarini chiqarib tarqatma qog'ozlarga yopishtiradi. Darsning “O'tilganlarni takrorlash” hamda “Mustahkamlash” qismida foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi:



Quyidagi surat o'quvchilardan biriga berilsa, u o'ylanmay, quyosh so'zining sinonimi “oftob” deb javob beradi. Bu jarayonda o'quvchi tezkor fikrlaydi, solishtiradi. Diqqatini jamlab, so'z zaxirasiga ko'z yugurtirib, o'zi uchun zarur bo'lgan so'zni ajratadi. Bu, albatta, o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishini, o'z imkoniyatlarini va kamchiliklarini ko'rish uchun zamin bo'ladi

“Jumboqli uslub”

Bizga ma'lumki, o'quvchilar topishmoq, mantiqiy savollarni berishga yoki ularni topishga juda qiziqadilar. Dars davomida ulardan foydalanish, albatta yaxshi samara beradi. Tavsiya etilayotgan metod bevosita topishmoqlar olami bilan aloqador. Ushbu usulda o'qituvchidan vaqt va tayyorgarlik talab etiladi. Zero, dars jarayonida har bir detal, har bir element o'qituvchining darsda qo'llashiga ko'mak berishi mumkin.



“Jumboqli uslub”da o‘quvchilarga topishmoqlar aytiladi. Javob aytilgach, shu javobga bog‘lab ona tili faniga oid topshiriqlar beriladi. Misol uchun,

Tuguncha ochilguncha,
Kutamiz tong otguncha
(g‘uncha)
Qir-adirning bekasi,
Shabbodaning erkasi.
(qizg‘aldoq)

O‘quvchilarga yuqoridagi topishmoqlar taqdim etiladi. Javoblar olinadi. Qaysi mavzu o‘tilayotgan bo‘lsa, shunga moslab topshiriq berilishi mumkin.

Masalan, birinchi topishmog‘imizning javobi – g‘uncha. Topshiriq:

1. Ushbu so‘zning uyadoshlarini toping.
2. Ushbu so‘z ishtirokida badiiy uslubga xos gap tuzing.
3. Ushbu so‘z ishtirokida so‘z birikmasi hosil qiling.
4. Ushbu so‘zni fonetik jihatdan tahlil qiling.
5. Ushbu so‘z ishtirok etgan she‘r aytib bering.
6. Ushbu so‘zni ko‘chma ma’noda qo‘llang.
7. Ushbu so‘zni egalik va kelishik shakllarini qo‘shib turlab bering.
8. Ushbu so‘z qaysi gap bo‘laklari bo‘lib kela olishiga misollar aytib bering.

Xuddi shu tartibda birgina topishmoq orqali butun sinfga turli topshiriqlar berish mumkin. Yuqori 9, 10, 11-sinflarda bu o‘yin tashkil etilsa, savollar soni yanada ortib va murakkablashib boraveradi. Qolgan topishmoqlarni ham xuddi shu tartibda qo‘llash mumkin.

“HA” yoki “YO‘Q” metoli

Tezkorlik va aniqlik o‘quvchilarning eng yaxshi sifatlaridan sanaladi. Har bir dars jarayoni o‘quvchilardagi yetuklik sifatlarini shakllantirishga qaratilishi maqsadga muvofiqdir. Adabiyot darslarida bu sifat, ayniqsa, o‘z aksini topadi. Sababi adabiyot darsliklarida ma’lumotlar juda ko‘p, ularni esda olib qolish uchun



esa ko‘p harakat va bilim zarur bo‘ladi. Tavsiya etayotgan bu metod esa o‘tilgan mavzularni esda olib qolishda yaxshi samara beradi.

Qo‘llash tartibi: O‘quvchilarga o‘qituvchi tomonidan tezkor savollar beriladi. O‘quvchilarga berilgan savollarga topqirlik bilan “ Ha ” yoki “ Yo‘q ” deb javob berishlari kerak bo‘ladi. Javob izohlanishi kerak bo‘ladi. Misol uchun:

1. Abdulla Qahhor “Adabiyotni bilmagan millat bir umr hissiyotdan mahrum bo‘ladi” deb aytganmi?

2. Asqad Muxtor “Yozuvchi sayoz joyda cho‘kadi” fikri muallifimi?

3. “Yozuvchi halol bo‘lsa, xalq unga ishonadi” deb Cho‘lpon aytganmi?

4. Odil Yoqubov “Yozuvchi haqqoniy yozishi kerak” deydimi?

5. “Yozish ko‘ngil mayli” ekanligini Erkin A‘zam aytganmi?

Bu metodni har bir mavzuda, darslarning “Mustahkamlash”, “O‘tilgan mavzuni takrorlash” qismlarida qo‘llash mumkin. Nafaqat ona tili, balki, boshqa darslarda ham ushbu o‘yin foydalanish uchun mos keladi.

Shu sababli ham ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilaridan ham o‘z ustida yanada faol ishlash, o‘quvchilarga ona tiliga bo‘lgan ehtiromni singdirishda har bir darsni oqilona tashkil etishni talab etmoqda. Darhaqiqat, kelajak poydevori bo‘lgan yosh avlodning ta‘lim va tarbiyasida birgalikda hamjihat bo‘lish barchamizning eng oliy burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. Инсонпарварлик, эзгулик, ва бунёдкорлик – миллий ғоямизнинг пойдевори дир. – Т.: Тасвир, 2021.

2. Бобоев Т. Адабиётшунослик asoslari. – Т.: Ўзбекистон, 2002.

3. Шукуров Н. Услублар ва жанрлар. – Т.: Ғафур Ғулум, 1983.

4. Ғозиев Э. Тафаккур психологияси. – Т.: Ўқитувчи, 1990.

5. Ҳусанбоева Қ, Ниёзметова Р. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: 2018.



ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH



Nozima YO'LDOSHEVA
Yangi Namangan tumanidagi
35-maktab o'qituvchisi.

El.manzil: nozimanozimayuldasheva0212@gmail.com

Annotatsiya: Darsning mazmunli o'tishi, samarali metodlardan foydalanish va yuqori natijaga erishish o'qituvchining mahorati, bilim darajasiga bevosita bog'liq. Mazkur maqolada yuqori sinflarda ona tili va adabiyot darslari jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan interfaol metodlardan namunalar, metodik tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: intefao, “Antiq uch ustun”, “bir daqiqa”, “Charxpalak”, “Taqdimot” usuli, klaster.

Har bir darsni o'ziga xos metod va usullar asosida o'tish, o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg'otish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Muallimning mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Zamonaviy pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli. Har bir zamonaviy pedagog mavjud pedagogik texnologiyalarni o'z darslarida qo'llasa, albatta, ijobiy natijaga erishadi. Bugungi kun o'qituvchisining maqsadi barkamol yoshlarni tarbiyalash, ularga puxta ta'lim-tarbiya berish, zarur axborotlar bilan ta'minlash, mustaqil fikrlashga o'rgatish, bilim va hayotiy ko'nikmalar hosil qilish, ular qalbida vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg'ularini qaror toptirishdan iborat. Bu ezgu maqsadlarni ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida o'tilgan mashg'ulotlarda amalga oshirish mumkin.



Innovatsion texnologiya – ta’lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo’llash orqali bilim egallashni takomillashtirish yo’li. Uning asosiy maqsadi ta’lim jarayonida o’qituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik, o’zgartirishlar kiritish bo’lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol metod va usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishiga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg’ulotga aylanadi. Ko’p yillar davomida an’anaviy dars o’tish ta’limning asosiy shakllaridan biri bo’lib keldi. An’anaviy darsda o’qituvchi faol, o’quvchi esa passiv ishtirokchiga aylandi. Bu o’quvchining mustaqil fikrlashi, izlanuvchanlik qobiliyati rivojlanishiga to’sqinlik qildi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda bunday darslar samara bermaydi.

Bugungi davr talabi dars jarayonini noan’anaviy tarzda mazmunli tashkil etish, o’quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning o’quv jarayonidagi faolligini ta’minlashni talab etadi. Bugun dars davomida faqat darslik bilan ishlanmoqda. Oqibatda o’qituvchi darslik o’qituvchisi, o’quvchi esa darslik o’quvchisi bo’lib qolmoqda. Shu sababli o’quvchilar darslikdan tashqari talablarni bajara olmayaptilar, hayotning o’zi misol va qoida ekanligini anglab yetmayaptilar. Shunday ekan, amaliy bilimlarni shakllantirish asoslarini ishlab chiqishga diqqat qaratish lozim. Buning uchun darsda faqat mashqlar bilan cheklanmay, o’quvchilarning lug’at boyligini oshirish, lug’at ustida ishlashga o’rgatish, ularda to’g’ri talaffuz normalarini shakllantirish hamda fikrlash, tafakkur qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar berish kerak.

Hozir kunda o’quvchilarni har bir darsda faol ishtirok etishga undovchi noan’anaviy dars metodlaridan foydalanilmoqda. Bu dars metodlari hozirda turli joylarda o’zining ijobiy natijasirini ko’rsatmoqda.

Noan’anaviy darslarni tashkil etishda interfaol metodlar muhim bo’g’in hisoblanadi. Ular o’qituvchi va o’quvchilarning o’zaro faol munosabatlarida tashkil etiladigan mashg’ulot turidir.



Bunda o'qituvchi va o'quvchi o'zaro hamkorlikda ishlaydi. Fikrlar to'qnashuvi yuzaga keladi. O'quvchining erkin fikrlash jarayoni yangi pog'onaga ko'tariladi. O'qituvchi shu tarzda o'quvchilarni faollashtiradi, o'zlashtirishi past o'quvchilar dunyoqarashi va tafakkurini boyitib boradi.

Ta'lim uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, uning sifati darsda qo'llanilgan metodlarga bog'liq. Darsning mazmunli o'tishi, unda qanday metodlardan foydalanilgani va qanday natijaga erishilganligi o'qituvchining mahorati, bilim darajasini belgilaydi. Darsda metodlar to'g'ri tanlansa, maqsadga tez va oson erishiladi. Interfaol metodlarni tanlash har bir darsning didaktik maqsadidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Bu o'qituvchidan har doim bir xil usulda emas, dars mavzusiga mos metodlar asosida dars o'tishni talab etadi. Buning uchun o'qituvchi doimo o'z ustida ishlashi, bilim va kasbiy malakasini oshirib borishi, ilm-fan yangiliklaridan xabardor bo'lishi va o'z faoliyatida ulardan samarali foydalanishi lozim. O'qituvchi bir vaqtning o'zida ijodkor, aktyor va fan bilimdoni bo'lsa, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda darsning mazmuni, o'quvchilarga yetkazish usul va shakllari, vositalarini oldindan belgilab, mavzuga mos metodni tanlasagina dars samaradorligi yuqori bo'ladi.

Hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning aksariyati tajribadan o'tib yaxshi natijalar berib kelmoqda. Keng qo'llanadigan metodlar – “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Taqdimot”, “Zakovatli zukko”, “Veen diagrammasi”, “Zinama-zina”, “IMAK”, “Kichik esse”, “Kungaboqar”, “Labirint”, “Mantiqiy chalkash zanjiri”, “Menga so'z bering”, “Muzyorar”, “Muloqot”, “BBB”, “Blits-so'rov”, “Bumerang”, “Nilufar guli”, “Charxpalak” va boshqalarni mavzuni o'rganishning barcha bosqichlarida qo'llash orqali dars samaradorligini oshirib, o'quvchilar bilim darajasining yuqori bo'lishiga yordam beradi.

Ona tili va adabiyot darslarida ham yuqorida sanab o'tilgan interfaol metodlardan tashqari “Ha yoki yo'q”, “Men kimman?”, “FSMU”, “Ta'rif egasini top”, “Bir daqiqa”, “Antiqu uch ustun”, “Zanjir”, “Do'ppidagi hikmat”, “Strong chain”, “Sehrli



qo‘shimchalar”, “O‘zimga qaytar”, “Enerjayzer – 4 bo‘g‘inli so‘z”, “Puzzle”, “5 savolga 5 javob” kabi interfaol metod va didaktik o‘yinlardan foydalanish mumkin.

O‘yin vaqtida o‘quvchilar o‘zini erkin tutadi, bilimini namoyon etgisi keladi. Natijada o‘quvchida ishonch, mas’uliyat paydo bo‘ladi. Bahs-munozaraga kirishadi. Fikrlarini asoslashga odatlanadi. Bunda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajasi hisobga olinadi.

Quyida ta’lim amaliyotida qo‘llaniladigan zamonaviy pedagogik texnologiya, metod va usullarni keltiramiz. Bu metodlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular pedagog va o‘quvchilarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi. Interfaol metodlar o‘quvchida mantiqiy, ijodiy, tanqidiy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga, mavjud qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh yetuk mutaxassis bo‘lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo‘lgan kasbiy fazilatlarni tarbiyalashda yordam beradi.

“Charxpalak”. Ushbu metod o‘quvchilarni o‘tilgan mavzularni esga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to‘g‘ri javob berish va o‘z-o‘zini baholashga o‘rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilarning bilimlarini baholashga qaratilgan. Bu metodni qo‘llashdan maqsad o‘quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o‘z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o‘zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlash, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash, ko‘p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o‘rgatishdir. Ushbu metod ona tili va adabiyot darslarining boshlanishi va oxirida yoki biron-bir bo‘lim tugallanganda o‘tilgan mavzuning o‘quvchilar tomonidan qay darajada o‘zlashtirilganligini baholash, takrorlash, mustahkamlash uchun mo‘ljallangan. “Charxpalak” metodidan foydalanish quyidagicha amalga oshiriladi:

- o‘quvchilar sharoitga qarab guruhlarga ajratiladi;
- tarqatma materiallar guruh a‘zolariga tarqatiladi;





- belgilangan vaqt ichida guruhlar tarqatmadagi topshiriqni bajarib, uning o'ng burchagiga guruh raqamini, chap burchagiga esa o'zining ramziy belgisini qo'yib ushbu tarqatmani keyingi guruhga charxpalak aylanmasi yo'nalishida almashtiradilar;

- boshqa guruh a'zolari ham tarqatmadagi vazifani bajaradilar va o'zgartirishlar kiritadilar;

- materialning oxirgi almashishidan so'ng har bir guruh o'zi ilk bor to'ldirgan tarqatmani o'z ramziy belgisi asosida tanlab oladi;

- o'qituvchi tarqatma materialda berilgan vazifalarni o'qiydi va jamoa bilan birgalikda to'g'ri javobni belgilaydi yoki tarqatma materialdagi vazifalar ekranda yoritilib, to'g'ri javob aytib o'tiladi;

- har bir o'quvchi to'g'ri javob bilan belgilangan javoblaridagi farqlarni aniqlaydilar va o'zlarini baholaydilar.

“Charxpalak” metodidan foydalangan holda mashg'ulot o'tkazish uchun o'quvchilarga quyidagicha vazifa berish mumkin. Mavzu: “So'z ma'nosining ko'chish usullari”. Vazifa: Berilgan gaplardagi ma'no ko'chish usullarini aniqlab, tegishli katakka “+” yoki “*” belgisini qo'ying.

Misollar yozing	Metafora	Metonimiya	Sinekdoxa	Vazifadoshlik
Sizning tomiringizda buyuk bobokalonlarimiz qoni oqmoqda.				*
Futbolchilarimiz o'ng qanotdan hujum uyushtirdilar.	*			
Alisher Navoiyni so'nggi yo'lga kuzatishga butun Hirot yig'ilgan edi.	*			
Barmog'imni kesib oldim.		*		
Besh qo'l barobar emas.			*	
Mashinaning eshigini ochib do'stini chaqirdi.				*
Sotuvchi, xaridor bilan xushmuomala bo'l.			*	
Mo'minlar oldida qanotingni pasaytir.	*			





Baholash: 9–10 ta to‘g‘ri javob – “a’lo”; 7–8 ta to‘g‘ri javob – “yaxshi”; 6 ta to‘g‘ri javob – “qoniqarli”.

“Antiq uch ustun” metodi. Ushbu metodda ma’lum bir mavzu yoki bo‘limlar yakunida o‘tkaziladigan takrorlash darslarini tashkil qilish mumkin. Bunda o‘quvchilar yakka tartibda yoki juftlik, jamoalarda ishlashi mumkin. O‘quvchilar berilgan topshiriqlar bo‘yicha mustaqil izlanadilar, to‘g‘ri javobni aniqlaydilar hamda yashiringan kalit so‘zni topishga harakat qiladilar. Bu orqali o‘quvchilarning fikrlashdagi tezkorligi va bilimdonligi tekshiriladi.

No	Savol	Kalit	Javoblardan birini tanlang
1	Tomoq og‘riganda	M. Otolaringolog	A. Okulist
2	Ko‘z og‘riganda	A. Okulist	M. Otolaringolog
3	Tish og‘riganda	Q. Stomatolog	S. Travmatolog
4	Oyoq lat yeganda	S. Travmatolog	D. Nevropotolog
5	Yurak bezovta qilganda	A. Kardiolog	A. Kardiolog
6	Bosh og‘riganda	D. Nevropotolog	Q. Stomatolog

“5 savolga 5 javob” metodi. Ushbu metoddan ona tili darslarida “Qo‘shma gaplar” mavzusi o‘rganilayotganda foydalanish mumkin. Bunda tarqatma material yoki ekranda o‘quvchilar e’tiboriga test javoblari shaklidagi gaplar havola etiladi:

A. Kim mehnatni sevsa, uning qadri baland bo‘ladi.

B. Muhabbat eski narsa, ammo har bir yurak uni yangilaydi.

C. Orzular buyukdir, umrlar qisqa.

D. Biz ko‘rgan, eshitgan, lekin e’tibor bermagan voqealarga san’atkorona baho beramiz.

O‘quvchilarga jadval tarqatiladi. Ular jadvalga javoblarni belgilaydi. Namuna:





№	SAVOLLAR	JAVOB	BALL
1	Qaysi gapda zidlov bog'lovchi qo'shma gap qismlarini bog'lab kelgan?	B	1
2	Qaysi javobda qo'shma gap berilmagan?	C	1
3	Qaysi gapda qo'shma gap qismlari teng bog'langan?	B va C	1
4	Bog'langan qo'shma gap berilgan javobni aniqlang.	B	1
5	Qaysi gapda qo'shma gap qismlari tobe bog'langan?	A	1

O'quvchilarning javoblari tekshiriladi va to'plagan ballari umumlashtirilib, baholanadi.

“Taqqimot” metodi. Ushbu metod yordamida ma'lum bir mavzu yoki bo'limlar yakunida o'tkaziladigan takrorlash darslarini tashkil qilish mumkin. Bunda o'quvchilar yakka tartibda, juftlikda yoki guruhlarda ishlab, berilgan mavzu bo'yicha mustaqil izlanib, materiallar to'playdi, ularni saralaydi, asosiylarini tanlab olib, taqqimot qiladi. Masalan, “Alisher Navoiy hayoti va ijodi” mavzusida taqqimot darsi o'tkazilganda kichik guruhlarga bo'lingan o'quvchilarga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha taqqimot qilish topshiriladi:

1-guruh. Alisher Navoiy hayoti va faoliyatini xronologik jadval asosida tushuntiring.

2-guruh. Alisher Navoiy ijodini “Klaster” usuli asosida tushuntiring.

3-guruh. Alisher Navoiy lirikasini “Kungaboqar” usuli asosida tushuntiring.

4-guruh. Alisher Navoiyning “Xamsa” asarini konseptual jadval asosida tushuntiring.

Har bir guruh berilgan yo'nalishlar bo'yicha darslik va qo'shimcha adabiyotlardan foydalanib ma'lumot to'playdilar va slayd yoki chizmalar orqali taqqimot qiladilar.

“Taqqimot” darslari orqali o'quvchilarda quyidagi ko'nikmalarni shakllantirishga erishish mumkin:

- o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qilish;



- axborot manbalaridan foydalana olish, zarur ma'lumotlarni izlab topish, tahlil qilish, saralash orqali ma'lumotlar bazasini yarata olish;

- o'qib o'rganish, bilimni mustaqil ravishda oshirib borish, o'rganganlarini o'rtoqlari bilan muhokama qilish, o'zini nazorat qila bilish kabi sifatlarga ega bo'lish;


- sinfda va jamiyatda o'z o'rnini anglay olish va boshqalar.

1-guruh taqdimoti: Xronologik jadval:

Alisher Navoiy hayoti va faoliyati

1441-yil 9-fevral	• Hirotning Bogi Davlatxona atalmish joyida tug'ildi.
1447-yil	• Oilasi bilan Iroqqa ko'chib ketadi va yo'lda Sharafiddin Ah Yasdiy bilan uchrashadi.
1451-yil	• Hirotga qaytadi.
1456-1464-yillar	• Mashhadda yashadi va o'qidi.
1466-1469-yillar	• Samarqandda yashadi va madrasalarda ta'lim oldi.
1469-yil	• Husayn Boyqaro Hirot taxtini egallagach, uni Hirotga chaqirib, muhrdorlik vazifasiga tayinlaydi.
1472-1476-yillar	• Bosh vazir lavozimida faoliyat yuritadi.
1476-1486-yillar	• Davlat ishlaridan chetlashib, badiiy ijod bilan shugullanadi.
1487-1488-yillar	• Astrobod shahriga hokimlik qiladi.
1499-yil	• O'z iltimosiga ko'ra Hirotidagi Xoja Abdulla Anseriy xonaqohiga jenubkash qilib tayinlangan.
1501-yil 3-yanvar	• Hirotida vafot etdi.

2-guruh taqdimoti: “Klaster”



3-guruh taqdimoti:“Kungaboqar”



4-guruh taqdimoti: “Konseptual jadval”

“Xamsa” dostonlari	Ta’riflar, toifalar, xususiyatlar va b.				
	Yozilgan yili	Hajmi	Asosiy mavzusi	Vazni	Bosh qahramonlari
“Hayrat ul-abror”	1483-yil	3988 bayt, 64 bob, 20 maqolat	falsafiy-ta’limiy doston	aruzning sari’ bahrida	
“Farhod va Shirin”	1484-yil	59 bob, 5782 bayt	sevgi-muhabbat	aruzning hazaji musaddasi mahzuf bahrida	Farhod va Shirin
“Layli va Majnun”	1484-yil	36 bob, 3622 bayt	sevgi-muhabbat	aruzning hazaji musaddasi axrabi maqbuzi makfuf bahrida	Qays va Layli
“Sab’ai sayyor”	1484-yil	38 bob, 5000 bayt	ishqiy-sarguzasht doston	aruzning hafif bahrida	Bahrom
“Saddi Iskandariy”	1485-yil	89 bob, 7215 bayt	ta’limiy-axloqiy doston	aruzning mutaqorib bahrida	Iskandar

“Jumlani davom ettir” o’yini. O’yin qoidasiga ko’ra, birinchi o’quvchi birorta qisqa gap aytadi, boshqa o’quvchi aynan shu gapga so’z qo’shib boraveradi. Masalan:

1-o’quvchi: men hikoya o’qidim.

2- o’quvchi: men qiziqarli hikoya o’qidim.

3- o’quvchi: men kecha qiziqarli hikoya o’qidim va hk.

So’z qo’sha olmagan yoki xatoga yo’l qo’ygan o’quvchi o’yinni tark etadi. 6–7 daqiqa mobaynida o’yin davomiyligini ta’minlab turgan o’quvchilar g’olib bo’ladi va baholanadi.

Yuqorida tavsiya etilgan interfaol metodlardan ona tili va adabiyot darslarida foydalanish o‘qitish mazmunini samarali tashkil etishga olib keladi. O‘z vaqtida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida samimiy aloqalar o‘rnatiladi. O‘qitish usullari ta’lim jarayonlarida turli xil ko‘rinishlarda kechadi (yakka, juft, guruh, katta guruhlarda). Axborot berish, olish va qayta ishlash, o‘zaro muloqatga kirishish, fikr bildirish, fikr almashish kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Ta’lim jarayoniga didaktik o‘yinlarni olib kirish darslarni jonli va qiziqarli bo‘lishiga katta yordam beradi. O‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlari, dars jarayonidagi ishtiroki, faolligi ortadi. O‘quvchilar ijodiy tafakkurining o‘sishida, xotirasining rivojlanishida, turli tushuncha va hodisalarga sezgirlik bilan munosabatda bo‘lishlarida, hozirjavoblikka o‘rganishlarida ham didaktik o‘yinlarning o‘rni beqiyosdir. Dars davomida didaktik o‘yinlarni qo‘llash o‘quvchilarda kichik jamoalarda ishlash, vazifalarni taqsimlash, taqdimot qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, tanqidiy fikrlashga o‘rgatishga ham asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov M., Xudoyberganov Sh., Abduqodirov R. Hozirgi zamon darsining didaktik-uslubiy masalalari. – T.: Tafakkur, 1998.
2. Yangi pedagogik texnologiyalarning yo‘nalishlari, muammolari va yechimlari. – T., 1999.
3. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – T., 2006.
4. O‘zbek tili grammatikasi. II tom. Sintaksis. – T.: Fan, 1975.
5. Sayfullaeva R. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘shma gaplarning shakl-vazifaviy (formal-funksional) talqini. – T., 1993.



MUMTOZ ADABIYOTNI O‘RGANAMIZ

ADABIY TA’LIMDA G‘AZAL JANRINI O‘RGANISH



Valijon QODIROV

AndDPI professori

El-manzil: vqodirov@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada g‘azallarni tahlilga tortish borasida metodik tavsiya berilgan. Ayni zamonda Ogahiyning «Adabiyot» darsligidan o‘rin olgan g‘azali tahli misolida amaliy namuna o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: maktab, madrasa, aruz, g‘azal, bayt, misra, radif, peyzaj, poetik obraz, to‘ldiruvchi, kesim, maqsad holi, izofa, inversiya, matla‘, maqta‘, qofiya, raviy.

G‘azal qadimdan ajdodlarimiz o‘qigan maktab, madrasalarda muntazam o‘qitilib kelingan. Ayniqsa, keyingi ikki asrda Navoiy, So‘fi Olloyor, Mashrab va Huvaydo ijodi maktab, madrasa dasturi, o‘quv rejalaridan mustahkam joy olgan. Keyingi davrlarda ham maktab ta’lim tizimida bu an‘ana davom ettirilib, aruz she‘riyati, xususan, g‘azallar izchil tarzda o‘qitildi. Mustaqillikdan so‘ng mumtoz adabiyotni, shu jumladan, g‘azaliyotni o‘rganish, unga yondashish yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi. Umumta’lim maktablari uchun takomillashgan bir nechta darsliklar avlodi yaratildi. Darslik mualliflari bir qator sinflarda o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga, dunyoqarashi hamda ko‘zlangan didaktik maqsaddan kelib chiqib, yetuk g‘azalnavislarning badiiy jihatdan barkamol ijod namunalarini kiritdilar.






Joriy dasturga ko'ra g'azal 6-sinf dan o'qitiladi [5]. Mustaqillikning dastlabki yillari qabul qilingan dasturga ko'ra ham g'azallar 6-sinf darsligidan joy olgan edi. B. Sarimsoqov va boshqalarning 1997-yili nashr etilgan darsligiga Ogahiy (“Choy”, “Faqr eliga xizmat qil”), Muqimiy (“Podshoh yo'qlatsalar nogoh gado deb axtaring”), Zavqiy (“Jahonda kamsuxan kim bo'ldi”), Avaz O'tar (“Til”) g'azallari kiritilgan [6]. Ogahiyning tasavvufiy yo'nalishdagi “Faqr eliga xizmat qil”, Muqimiyning ishqiy-intim ruhdagi “Axtaring” radifli g'azalini nazardan soqit qilganda, bu darslikka kiritilgan g'azallar mazkur sinfda o'qitilishining amaliyotga muvofiqligi o'tkazilgan tajribalar, kuzatuvlar, o'qituvchilar bilan suhbatlarda o'z tasdig'ini topdi. Ayniqsa, Zavqiy, Avaz O'tar g'azallari ifodaning uncha murakkab emasligi, bugungi adabiy tilga yaqinligi, o'zlashgan so'zlarning kamligi, didaktik mazmuniga ko'ra o'spirinlarning yosh xususiyatlariga, bilim va ko'nikmalari darajasiga mosligi bilan adabiyot muallimlarini qoniqtirgan edi. Shuning uchun oxirgi dasturga Avaz O'tar she'rlari sirasida g'azallarining berilganligi maqsadga muvofiq bo'lgan deyish mumkin.

6-sinfda g'azal haqida nazariy ma'lumot berilmaydi. Lekin ularni o'qish, tahlillash davomida o'quvchilar janrning tuzilishi (baytlardan iboratligi), qofiyalanish tartibi bilan tanishadilar, ifodali o'qish asnosida unga xos bo'lgan musiqiylikni tuyadilar. Eng asosiysi, g'azalni misrama-misra, baytma-bayt tahlil qilish, ma'nosini, badiiyatini sharhlash ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha dastlabki qadamlar tashlanadi. Bu sinfda tushunilishi qiyin so'zlar, murakkab sintaktik qurilmalar izohi berilishi o'ziga xos bo'ladi. Ya'ni o'quvchiga osonlashtirish maqsadida leksik birliklar bilan birga so'z birikmalari, jumlar va hatto misralar vaziyatdan kelib chiqib lug'atda yaxlit izohlanishi mumkin.

Masalan, “Til” she'rining birinchi bayti ikkinchi misrasi bo'lmish “Til vositai robitai olamiyondur” jumlasini darslikning shu sahifasi osti yoki hoshiyasidagi lug'atda “Til kishilar o'rtasidagi aloqa vositasidir” tarzida butunicha, ikkinchi baytdagi “g'ayr tili” birikmasi “chet tili”, “sa'y qiling” so'zi “g'ayrat qiling” deya





izohlanashi kerak. Ayrim forscha izofalar izohlanmaydi. Masalan, uchinchi baytdagi “Bilmakka ani g’ayrat eting foydayi kondur”, to’rtinchi baytdagi “Onda o’qiganlar bori yaktoyi zamondur” misralaridagi izofa va inversiyalar ma’nolari berilmaydi. Bolalar o’qituvchining yo’naltiruvchi savollari yordamida ularning “Bilmoqqa g’ayrat qilinglarki, koni foydadir”, “Unda o’qiganlarning barchasi zamon yagonasidir” mazmunida ekanligini intuitsiya – ichki sezgi, fahm yordamida anglab oladilar. Umuman adabiyot o’qituvchisi har qanday asar tahlilida shogirdlarida ana shu fazilatni – matndagi so’z, birikma, jummalarni ichki sezgi bilan idrok etish qobiliyatini o’stirib borishi lozim [1, 74-b.].

Joriy dasturga ko’ra 7-sinfda Uvaysiyning g’azallari berilgan [2, 131-b.]. 6-sinfda janr bilan tanishgan, dastlabki namunasini yod olgan o’quvchiga bu sinfda nazariy ma’lumotni tushuntirish bir muncha oson kechadi. Alohida soat ajratilmaganligi bois shu sinfda birinchi o’rganiladigan g’azal tahlili darsida dastlabki o’n daqiqada bu ma’lumotlarni o’quvchilarga yetkazish o’rinli bo’ladi yoki alohida qo’shimcha dars o’tkazish mumkin. Nazariy ma’lumotda quyidagi tushunchalar beriladi:

a) g’azal so’zining lug’aviy ma’nosi, janrning mumtoz she’riyatda tutgan o’rni, ya’ni atama arabcha so’z bo’lib, “ayollarni maqtash, ta’riflash” ma’nosini berishi, bu janr qadimdan eng ahamiyatli va e’tiborli she’r shakli bo’lib kelganligi, deyarli barcha shoirilar unga murojaat qilganliklari to’g’risida tushuncha beriladi;

b) g’azalning shakliy tuzilishi, ya’ni baytlardan tashkil topishi, matla’, maqta’ va shoirning taxallusi asosan maqta’da berilishi darslikdagi bir g’azal misolida tushuntiriladi;

v) qofiyalanishi, radif to’g’risida: asosan a-a, b-a, v-a, g-a... tarzida qofiyalanishi, mazkur harflar bilan belgilanishining ma’nosi olingan g’azal misolida izohlanadi;

g) g’azalda qalamga olinadigan mavzularga to’xtaniladi, bu she’r shaklida barcha mavzular: ijtimoiy-siyosiy, didaktik, peyzaj, narsa-buyumlar ta’rifi, biror voqea yoki shaxslarga tavsif va hokazolar talqin qilinishi mumkinligi, lekin yetakchi mavzu ishq-muhabbat ekanligi uqtirib o’tiladi;



d) gʻazal asosan ishqiy mavzuda yozilganligi bois bosh obrazlar: oshiq, maʼshuqa, raqib toʻgʻrisida maʼlumot berish maqsadga muvofiqdir.

6-7-sinflarda gʻazal vazni – aruz toʻgʻrisida tushuncha berilmaydi. Mumtoz sheʼrlar shu sheʼriy tizimda yozilganligini qayd etib oʻtish kifoya.

Gʻazalning toʻlaqonli oʻquv tahlili 8- va 9-sinflardan boshlab tadriijiy tarzda – oddiydan murakkabga qarab oʻrganilishi sinflar kesimida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Tahlil quyidagi tartibda olib boriladi:

1. Avvalo gʻazal oʻqituvchi tomonidan maromiga yetkazib (imkon qadar yoddan) oʻqib eshittiriladi. Shuningdek, sinfdagi sheʼrni yaxshi oʻqiy oladigan oʻquvchilardan biriga yod oldirib oʻqitsa ham boʻladi. Oʻqishda albatta aruz vazni qoidalariga rioya qilgan holda sheʼrda ifodalangan mazmunga muvofiq ohang ham tanlanishi kerak. Oʻqish texnikasiga koʻra birinchi misra oxirida ohang koʻtariladi, ikkinchi misra avvalida shu ohang ushlab turiladi va asta-sekin pasayib, bayt oxiri tugallanish ohangi bilan yakunlanadi.

2. Gʻazalni tinglagach, birgalikda uning qanday mavzuda yozilganligini aniqlash lozim. Oʻqituvchi avval boshdan gʻazal mavzusini oʻzi aytib qoʻymasdan, bolalardan soʻrashi maqsadga muvofiq. Ular ishqiy mavzuda yozilgan gʻazallarni darrov ilgʻay oladilar. Lekin didaktik, falsafiy, baʼzan peyzaj gʻazallari mavzusini belgilashda qiynalib qolishlari mumkin. Shunda muallim sheʼr mavzusini qanday aniqlash lozimligini uning belgilaridan – bosh qahramon, tasvir obʼekti yoki kechinmalar bayonidan kelib chiqib, tushuntirmogʻi kerak.

3. Gʻazal qofiyasi aniqlanadi. Oʻquvchilarning oʻzlari qofiyadosh soʻzlarni topadilar. Agar gʻazalda radif ishtirok etgan boʻlsa, u ham qayd etiladi. Baʼzi oʻquvchilar qofiya bilan radifning farqiga bormaydilar. Doimiy ravishda sheʼr qofiyasi bilan ishlash bu kamchilikni bartaraf etadi. Oʻqituvchi bu jarayonda qofiyadosh soʻzlardagi raviyni ham topa olish malakasini shakllantirsa, yana ham yaxshi.



4. Gʻazalda ishtirok etayotgan asosiy obrazlar aniqlanadi. Ishq-muhabbat mavzusida asosiy uch obraz bor: oshiq, maʼshuqa (yor), raqib. Obrazilarga qarab gʻazalning tasvirga koʻra turi aniqlanadi: a) unda oshiqning ichki kechinmalari, oshiqona tuygʻulari ifodalangan boʻladi; b) aksar hollarda ushbu ikki xususiyat oʻzaro aralashgan yoki uygʻunlashgan holda keladi (Navoiyning “qilgʻil”, “deyin”, Boburning “mushkuldur”, “topilmas”, Ogahiyning “ustina” radifli gʻazallari va boshq.). Oʻquvchi ishqiy sheʼrning turini aniqlab olsa, tahlil xiyla osonlashadi, eng asosiysi, u ongli tarzda olib boriladi. Oʻquvchiga shuni tushuntirish lozimki, gʻazalda oshiq kechinmalari, maʼshuqa vasfi muhabbat mavzusidagi gʻazallarning asosiy mazmuni boʻladi, lekin hech bir gʻazalda raqib mavzuni ochuvchi obraz boʻlolmaydi. Hech bir gʻazalda raqibning kechinmalari, uning portreti tasvir obyekti boʻlgan emas.

Didaktik gʻazallarda bosh obraz hayot haqiqatlari, inson hayoti mohiyati toʻgʻrisida fikr yuritayotgan donishmand shaxs sifatida namoyon boʻladi. Koʻp hollarda bu shoirning oʻy-mulohazalari sifatida olinadi (masalan, Avaz Oʻtarning “Til”, Zavqiyning “Jahonda kamsuxan kim boʻldi” va boshq.).

Peyzaj gʻazallarda bosh obraz tabiatdir. Unda biror yilning fasli (qish, bahor, kuz, yoz), tabiat hodisasi (yomgʻir, shamol), daraxt, meva kabilar tasvir ob'ekti sifatida olinadi va lirik qahramon kechinmalari ifodasi uchun vosita boʻlib xizmat qiladi (Ogahiyning “navroʻz”, “qish” radifli, Furqatning “Fasli navbahor oʻldi...” gʻazallari). Koʻp hollarda tabiat timsoli ishqiy kechinmalar izhori yoki jamiyat voqeʼliklari talqini bilan uygʻunlashib ketishiga tarbiyalanuvchilar eʼtiborini qaratish kerak.

5. Asosiy obrazlar aniqlab olingach, har bir bosh obraz atrofida guruhlangan poetik obrazlarni ajratib olmoq kerak. Poetik obrazlar bosh obrazning qay jihati, xarakter xususiyatining qaysi qirrasi yoritilayotganini aniq, ravshan his etish, anglash va shoir mahoratini idrok qilish vositasi boʻlib xizmat qiladi. Masalan, oldingi dasturga koʻra 8-sinf darsligidagi “ne boʻlursan” radifli gʻazali maqtaʼsiga diqqat qilaylik (joriy darsliklarda boʻlmasa-da,



hamkasblarimizga umumiy tushunish uchun qulay she’r bo’lgani uchun keltirilmoqda):

Ey odamiylar joni, parig’a ne bo’lursan?

Bu jism ila gulbargi tarig’a ne bo’lursan?

Birinchi misrada yorga qarata “ey odamiylar (oshiqlar) joni” deb murojaat qilinmoqda. Ma’lumki, jon – insonning ruhi, nafi. Ruh ko’zga ko’rinmas latif bir substansiyadir. Bu yerda “odamiylar joni” birikmasi ikki maqsadga ko’ra qo’llangan: avvalo, yorning odamlar jonidan joy olgani, ko’nglidan urgani, ikkinchidan, jon (ruh) kabi o’zi maftun etgan odamlar (oshiqlar) ko’ziga ko’rinmasligi. Ana shu tasvir mohiyatiga mos ravishda misra davomida pari poetik obrazi qo’llangan. Parilar Yaratganning g’ayb olami maxluqlari bo’lib, ular odamlar ko’ziga ko’rinmaydigan jinlar jinsidandirlar. Goh-goh ko’zga ko’rinsalar ham g’oyat go’zal, aqlni lol qilajak darajada sohibjamol qiyofada namoyon bo’ladilar. Demak, ma’shuqaning kamdan-kam ko’rinish berishi, qachondir yuz ko’rsatib, oshiqlar jonini olgach, benishon ketganligini ifodalash uchun pari poetik obrazi bu o’rinda shoirga qo’l kelgan.

Ishqiy g’azallarda Yaqub poetik obrazi Yusufdek beqiyos husn sohibi bo’lmish yordan ayriliqdagi xilvatnishin oshiqning ruhiy to’lg’onishlari, cheksiz qiynoqlari ifodasi uchun, Farhod poetik obrazi vasl uchun doimo intilishda, harakatda bo’lgan, ma’shuqa lutfiga qat’iy ishongan, ishq yo’lida har qanday to’siqlarni bartaraf etishga o’zida kuch topa oladigan shaxs qiyofasini gavalantirish uchun, parvona esa muhabbat o’tida kuyishini, yonib kul bo’lishini bila turib, unga o’zini uradigan sadoqat ramzini talqin etish maqsadida bosh obraz siymosini to’ldiruvchi vosita sifatida keltiriladi va hokazo. O’qituvchi darsga tayyorlanish jarayonida g’azaldagi har bir poetik obrazning qanday badiiy vazifa bilan xoslanganiligini aniqlab olishi va tahlili davomida o’quvchilarni ana shu vazifani anglashlari tomon yo’naltirmog’i g’oyat muhim didaktik yumushlardan biri sanaladi.

6. Voqelikni majoz va haqiqat yo’li bilan tasvirlashga ko’ra o’rganilayotgan g’azalning qaysi guruhga mansubligi belgilab olinadi. Dasturdagi 6-sinf uchun tavsiya etilgan Avazning “Til”



gʻazali majoz va haqiqatdan, yaʼni maʼno qatlamlilikdan holi, maʼrifiy xarakterdagi sheʼrdir. 7- va 8-sinflardan boshlab berilayotgan gʻazallarga yondashuvda ehtiyotkorlik kerak. Ularning aksarida maʼno qatlamlilik xususiyati mavjud. Darslikda gʻazallarining faqat zohiriy maʼnosigina talqin etilishi nazarda tutilgan. Oʻqituvchi oʻz imkoniyatidan kelib chiqib, agar gʻazallarining botinidagi mohiyatni ochib bera olsa, tahlilda bunga qoʻl urishi kerak, yoʻqsa, kitoblardagi sharh bilan kifoyalanishi mumkin.

7. Shundan soʻng har bir bayt alohida olinib oʻqiladi, mazmuni sharhlanadi. Sharhda avval bayt mazmuni aniqlanadi. Soʻng fikrning qanday ifoda etilayotganligi, bu boradagi shoir mahorati nimada koʻringaniga diqqat qaratiladi. Oʻquvchilar oddiygina fikr shoir tomonidan qay tarzda va qanday shoirona berilganligini anglab his etishlari va bundan zavqlanishlari darkor. Shundagina koʻzlangan maqsad amalga oshgan boʻladi. Buni bir necha oʻn yillar davomida adabiyot dastur va darsliklaridan joy olib kelgan, oʻzbek mumtoz adabiyotining shoh asarlaridan biri boʻlgan Ogahiyning “ustina” radifli gʻazalining dastlabki baytlari misolida koʻrib oʻtamiz.

Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina,
Qatlim uchun “nas” kelturur “nun” eltibon “sod” ustina.

Shoir fikrini uqish, yaʼni baytdan maʼno chiqarish quyidagi tartibda olib boriladi:

a) tushunilishi qiyin soʻzlar maʼnosi aniqlab olinadi: mushkin, soʻz oʻzagidan koʻrinib turganidek, mushk kabi deganidir; hay'at – koʻrinish; chashm – koʻz; nas – hukm; nun va sod – arab alifbosi harflari;

b) baytning grammatik xususiyatlari ustida ishlanadi. Radif boʻlib kelgan “ustina” soʻzidagi – na qoʻshimchasi tilimiz tarixida joʻnalish kelishigining arxaik shakli boʻlganligi adabiyotlarda qayd etilgan. Lekin baytda bu qoʻshimcha ikki kelishikni ifodalaydi. Birinchi misrada u oʻrin-payt kelishigi (-da qoʻshimchasi) maʼnosida: qora qoshining koʻrinishi jallod koʻz ustida(dir). Ikkinchi misrada esa joʻnalish kelishigini ifodalagan: “nun”ni “sod”



ustiga eltib. Birinchi misrada jallod soʻzi belgisiz qaratqich kelishigida: chashmi jallodning ustida. Ikkinchi misrada “nas” va “nun” soʻzlarida tushum kelishigi, “sod” soʻzida qaratqich kelishigi belgisiz qoʻllangan: “nun”ni “sod”ning ustina eltib, “nas”ni keltiradi. Ayrim gʻazallarda belgisiz qoʻllangan qoʻshimchalarni toʻgʻri idrok etmaslik tufayli oʻquvchilar baytlardan maʼno chiqarolmay qolishlari amaliyotda koʻp kuzatilgan;

v) baytdagi sintaktik oʻziga xoslik ham koʻrib chiqiladi. Birinchi misradagi radif “ustida” kesim, u ot soʻz turkumiga oid boʻlib, kesimlik koʻrsatkichi -dir bogʻlamasini qoʻyib olish mumkin: ul chashmi jallod ustidadir. Ikkinchi misrada bu soʻz koʻmakchi vazifasini bajarib, oldingi soʻz bilan birgalikda oʻrin holi boʻlib keladi: (qayerga?) “sod” ustiga. Baytdan maʼno uqishda birikma va gaplarni inversiyadan chiqarib, odatdagi gap boʻlaklari holiga keltirib olish gʻoyat ahamiyatli ishdir. Birinchi misrada inversiya izofa shaklida uchraydi. Izofani oʻzbekcha tartibga keltirib olish uchun aniqlovchi va aniqlanmish oʻrni almashtiriladi: chashmi jallod – jallod koʻz. Ikkinchi misrada esa inversiya gap boʻlaklari tartibida ekanligi koʻrinib turibdi. Oʻquvchilarga savollar berib, oʻzbek tilida gap boʻlaklari qay tartibda boʻlishi eslatib olinadi: ega oldin, kesim gapning oxirida, hol va toʻldiruvchi (oʻz aniqlovchilari bilan) asosan kesimdan oldin joylashadi, aniqlovchi aniqlanmishdan oldin keladi. Avval kesim topib olinadi: nima qiladi? – keltirur.

Ikkinchi misradagi jumla bir bosh boʻlakli gap – ega yoʻq. Shuning uchun kesimdan savol bera borib, ikkinchi darajali boʻlaklar topiladi va kesimdan boshlab, birin-ketin topilgan boʻlaklar oldiga qoʻyib boriladi: nima keltiradi? Nas(ni) – toʻldiruvchi, uni kesim oldiga qoʻyamiz: Nasni keltiradi. Nima uchun keltiradi? Qatlim uchun – maqsad holi, toʻldiruvchi oldiga joylashtiramiz: Qatlim uchun nas(ni) keltiradi. Qanday qilib keltiradi? Nun(ni) sod ustiga eltib – vaziyat holi. Bu boʻlakni ham oʻz joyiga qoʻyib, odatdagi tartibga keltirib olingan yaxlit gap hosil qilinadi: Nun(ni) sod ustiga eltib qatlim uchun nas(ni) keltiradi.



O'qituvchi bu jarayonni jonli ko'rsatish uchun darstaxtaga yozib borishi kerak bo'ladi;

g) baytning badiiyatini, shoirning mahoratini tahlillash. Birinchi misrada ikkita tashbihli sifatlash bor: mushkin qosh, jallod ko'z. Qoshning mushkka nisbati ikki jihatga ko'radir: uning qora rangdaligi hamda xushbo'yligi. Demak, shoir bir sifatlashga ikki xususiyatni mahorat bilan jo eta bilganiga o'quvchilar e'tibori tortiladi. Ma'shuqa ko'zining jallodligi orqali uning kishi ko'ngli hurligi, ozodligini o'ldirishi, ya'ni o'ziga tobe – oshiq qiladigan darajada fusunkorligini ifodalash maqsad qilib qo'yilgan. Ikkinchi misrada harfiy san'at bor. Bu san'at vositasida shoir ikki vazifani san'atkorona uddalagan. Birinchisi shuki, jallod ko'zning oshiq qatliga hukm – "nas" qanday chiqarilishi ko'rsatiladi: "nun" harfini "sod"ning oldiga yozilsa, (ustiga qo'yilsa), "nas" (hukm) so'zi kelib chiqadi; ikkinchisi, "nun" harfini "sod"ning ustiga to'ntarilgan holda qo'yilsa va uning nuqtasi shu harf ("sod") ichiga joylashtirilsa, qosh va ko'z surati o'z-o'zidan chizilib qolganligiga guvoh bo'linadi. O'qituvchi, albatta, bularni sinf taxtasiga yozib ko'rsatishi kerak. Agar o'qituvchi mahorat bilan tushuntirsa, so'z vositasida yaratilgan bu san'at durdonasi, mahorat bilan chizilgan so'z surati qarshisida o'quvchilarining hayrat va hayajoniga guvoh bo'ladi;

d) baytda qanday fikr bildirilganligi va uning qanday ifodalangani solishtiriladi. Oddiy ifodalaganda: "Yor qora qoshlari chiroyli ko'zlari ustida joylashgan, ular meni o'ziga oshiq qildi" qo'shmisrasidagi fikrni Ogahiy qanday ifoda etganiga o'quvchilar diqqati qaratiladi:

Mushkin qoshining hay'ati ul chashmi jallod ustina,
Qatlim uchun "nas" kelturur "nun" eltibon "sod" ustina.

Bu chog'ishtiruv orqali o'quvchilarning shoirona ifoda, badiiy mahorat borasidagi tushunchalari mustahkamlanadi, she'rni tushunish, undan zavq ola bilish ko'nikmalari ortadi.

G'azalning ikkinchi misrasiga ham yuqoridagi tartibda tahlil qilinadi:

Qilg'il tamosho qomati zebosi birla orazin,
Gar ko'rmasang gul bo'lg'onin payvand shamshod ustina.





Ikkala baytdagi (umuman bir g‘azal tarkibidagi baytlar tahlilidagi) farq shuki, qo‘shmisralarning leksik, grammatik, sintaktik xususiyatlari ustida ishlab, undan ma‘no chiqarish bosqichiga kelganda, misralar qo‘shma gapning qaysi turiga mansubligidan kelib chiqib o‘rnatiladi. Birinchi bayt bog‘langan qo‘shma gap bo‘lganligi bois undan ma‘no chiqarishda misralarning o‘rni o‘zgarmaydi, o‘z o‘rnida qoladi: Mushk kabi qora va xushbo‘y qoshlarining ko‘rinishi maftunkor (jallod) ko‘zlari ustida, “nun”ni “sod” ustiga eltib, (ular mening) qatlim uchun hukm chiqaradi. Ikkinchi misra sabab ergashgan gap ekanligi e‘tiborga olinadi va baytdan ma‘no chiqarishda o‘zbek tili sintaktik qurilishiga ko‘ra avval sabab ergash gap (ikkinchi misra), keyin bosh gap (birinchi misra) joylashtiriladi: Agar shamshod daraxti ustiga gulning payvand bo‘lganini ko‘rmagan bo‘lsang, (yorimning) zebo qomati bilan orazini (yuzini) tamosho qilgin.


Shu tariqa o‘quvchilarda baytdan ma‘no chiqarish uchun misralarni to‘g‘ri joylashtira olish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

8. Baytlarni tahlillash asnosida yoki g‘azalni to‘liq tahlil qilib bo‘lgach, ularda qo‘llangan badiiy san‘atlar ham sharhlanadi. Faqat shunga diqqat qaratish lozimki, she‘riy san‘atlarni shunchaki fakt sifatida qayd etib qo‘yish noto‘g‘ri yondashuvdir. Har bir qo‘llangan badiiy tasvir vositasi she‘r badiiyatiga nima beryapti, uning fikrni ifodalashdagi ahamiyati nimadan iborat bo‘lmoqda kabi savollarga javob topish talab qilinishi lozim.

9. Agar o‘qituvchi bungacha aruz vazni to‘g‘risida o‘quvchilarga tushuncha bergan bo‘lsa, bu g‘azal vaznini topishni topshiriq qilib bersa bo‘ladi. Agar bolalar vaznni aniqlashga qiynalishsa, o‘qituvchining o‘zi yordam berishi kerak. Qiyin va murakkab vaznda yozilgan g‘azallarni o‘qituvchi faqat qaysi o‘lchovda yozilganligini qayd etib qo‘yish bilan cheklanishi mumkin.

10. Tahlil tugagach, adabiyot muallimi o‘quvchilaridan g‘azaldan olgan taassurotlarini so‘raydi.

Vaqt bo‘lsa, bir necha o‘quvchiga g‘azalni ifodali o‘qitib ko‘rish kerak. O‘qishda ularning vazn talablariga rioya qilayotganliklari muhim. G‘azal tinglangach, muallim o‘quvchining o‘qishdagi yutuq





va kamchiliklarini ko'rsatib berishi shart, toki boshqalarga ibrat bo'lsin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot. 6-sinf darsligi. Tuzuvchilar: Mirzayeva Z., Jalilov K. – T.: Respublika ta'lim markazi, 2022.
2. Adabiyot. 7-sinf darsligi. Tuzuvchilar: Mirzayeva Z., Jalilov K. – T.: Respublika ta'lim markazi, 2022.
3. Adabiyot. 8-sinf darsligi. Tuzuvchilar: Nurmuhammedov J., Qambarova S., Olimjonova O., Yuldasheva M. – T.: Respublika ta'lim markazi, 2022.
4. Yo'ldoshev Q., Qodirov V., Yo'ldoshbekov J. Adabiyot. 9-sinf darsligi. –T.: O'zbekiston, 2019 (to'rtinchi nashr).
5. Milliy o'quv dasturi. Adabiyot. – T.: Respublika Ta'lim markazi, 2021.
6. Sarimsoqov B. va boshq. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 1997.
7. Ҳаққулов И. Аҳмад Яссавий. (Сўзбоши мақола) Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар. – T.: Чўлпон, 1991. – 231 б.



ADABIYOT DARSLARI – KO'NGIL DARSLARI

ORAZBAY SÁTBAEV POEZIYASIN TALLAW USILLARI



Qonisbay YUSUPOV

*Pedagogika ilimleriniñ doktori,
Qaraqalpaq mámleketlik universiteti
professori*

El-manzil: yusupovqonisbay@gmail.com

Annotaciya. *Bul maqalada O. Sátbaev lirikasınıñ ózine tán ózgeshelikleri hám olardı jaratıwda sheberlik máseleleri ayıladı.*

Tayanış sózler: *ádebiyat, ádebiyatshı, poeziya, poema, obraz, dóretiwshilik.*

Annotatsiya. *Ush bu maqolada O. Satbaev lirikasınıñ o'ziga xos xususiyatlari va ularni yoritishda mahorat masalalari aytilgan.*

Kalit sozlar: *adabiyot, adabiyotshunos, poeziya, poema, obraz, ijodi.*

XX ásir qaraqalpaq ádebiyatın oqıtıwda oqıwshılardı jazıwshılar dóretiwshiligin úyretiw pedagogika iliminde áhmiyetli metodikalıq máselelerdiñ biri. Bul másele boyınsha belgili metodist alımlardıñ metodikalıq miynetlerinde jeterli pikirler bildirilgen. Sonlıqtan bul másele belgili shayır O. Sátbaev dóretiwshiligi mısasında izertlegendi maqsetke muwapıq kórdik. Oqıwshılardı dáslep baǵdarlamadaǵı berilgen materiallar tiykarında ǵárezsizlik dáwirdegi qaraqalpaq poeziyasına, dóretiwshiliginizertleniwine, ádebiy toplamlarına sıpatlama berip, bunnan soñ shayır dóretiwshiligin didaktikalıq hám filologiyalıq usıllarda tallap ótemiz. Bul usıllar arqalı oqıwshılardı bılayınsha túsini beremiz: Ǵárezsizlik dáwirde qaraqalpaq poeziyası tematikalıq, janrlıq hám



kórkemlik jaqtan ádewir rawajlandı. Ásirese, bul dáwirdegi qaraqalpaq poeziyası maydanında belgili shayırlar X. Dáwletnazarov, N. Tóreshova, H. Ayımbetov, P. Mırzabaeva, M. Jumanazarova hám taǵı basqa poeziya dóretiwshileri ósip jetilisip, olardıń dóretpeleri arqalı ǵárezsizlik dáwirdegi poeziyanıń rawajlanıw baǵdarı kórinedi. Olardıń dóretiwshiliginde ǵárezsizlik dáwirdiń insan ómirine ruwxıy jaqtan tiygizgen tásirleri birinshi gezekte poetikalıq jaqtan jırlandı. Solardıń biri belgili shayır Orazbay Sátbaevtıń ádebiy dóretiwshiliginde kórkemlik izleniwshilik kóbirek seziledi.

Ǵárezsizlik dáwirde jazılǵan Orazbay Sátbaevtıń «Ay sıǵalaydı» (1992), «Dónbekshigen dúnyasań» (1995), «Tırnalar» (1997), «Saldım súwretińdi sezimlerime» (2009), «Arzıwlar daraǵı» (2010), «Aq tulpar» (2011), «Sheńgel qońırawları» (2013) usaǵan kórkemlik penen jazılǵan poeziyalıq toplamları kitap oqıwshılarına úlken ruwxıy zawıq baǵıshladı. Sonday-aq shayırdıń bir neshe qosıqları ózbek tiline sapalı awdarılıp, «İshq ifori» atamasında óz aldına kitap bolıp Tashkent qalasında 2012-jılı baspadan shıǵarıldı. Jáne de shayırdıń keń kólemli hám bay syujetke iye «Gúldirsın», «Ómir tolǵanısları», «Kók jiyek» (dramalıq poema), «Aqıbet» (detektiv poema) usaǵan poemaları hár tárepleme tereńnen izertlewdi talap etip atırǵan máselelerdiń biri. O. Sátbaevtıń «Arzıwlar daraǵı» (2010), «Aq tulpar» (2011), «Sheńgel qońırawları» (2013) usaǵan poetikalıq toplamlarına jeterli sın pikir bildirilmedi. Usı maǵlıwmatlar arqalı akademiyalıq litsey oqıwshıları shayır dóretpeleriniń izertleniwi haqqında belgili túsinikke iye boladı.

O. Sátbaevtıń dóretiwshiligi xalıq awızeki dóretpeleri, klassikalıq ádebiyat, túrkiy xalıqlar ádebiyatı hám Batıs xalıqları ádebiyatınıń dástúrlık úlgileri menen tıǵız baylanısta rawajlanǵanına derek beredi. Belgili shayır poeziyasın usı kózqarastan bahalaytuǵın bolsaq, onıń poeziyası ideyalıq hám tematikalıq jaqtan júdá keń. Shayır poeziyası watan, ana, tábiyat, tuwılǵan jer, adamgershilik, haqıyqatlıq haqqında temalardan quralǵan.





O. Sátbaevtiń «Arzıwlar daraǵı» qosıqlar toplamı «Qaraqalpaqstan» baspasınan 2010-jılı basılıp shıqtı. Bul toplamǵa almisqa shamalas lirikalıq qosıqları kirgizilgen. Qosıqlarınıń ideyalıq hám tematikalıq baǵdarı tiykarınan watanǵa súyiwshilik, ádebiy miyraslardı qádirlew, doslıq, ádep-ikramlılıq, jaqsılıq ideyalarına qurılǵan. Shayırdıń hárbir qosıǵı kórkemlik jaqtan tásirli hám sheber jazılǵan. Máselen, onıń «Jańa ásir bosaǵasında», «Kiyik ǵayı kirgen jamǵırılı keshte», «Qarabaraqlar», «Pushaymanlıq», «Úshinshi duel», «Áyledi», «Melle shash nar qamıslar», «Qıyalıy dúnya» h.t.b. qosıqlarında ideyalıq jaqtan hárqıylı temalar súwretlengen. «Kitap» qosıǵında tariyxıy ómir shınlıǵı, xalıq ádebiy miyrasların qádirlew ideyası kórkemlik jaqtan ótkir súwretlengen. Qosıq jazıwda shayır ápiwayı hám kórkemlik jaqtan súwretlew usıllarınan orınlı paydalana bilgen. Dóretpede «kitap» sózine obraz júklenip, bul sóz kórkem detal sıpatında xalıqtıń mádeniy ǵáziynesin ańlatıp tur. Shayır qosıqta filosofiyalıq oyların jetkere bilgen. Óytkeni, shayırdıń ózi: «Kitaplar-dáwirler tolqınların jarıp ótip, qımbat bahalı júklerin áwladtan-áwladqa qásterlep jetkiziwshi ruwxıylıq kemeleridur» - dep kórkem kitapqa tariyxıy kóz qarastan joqarı baha beredi. Qosıq qatarlarınan mısallar keltirip óteyik:

*Dáwirler dáryasın qaq ayırıp,
Sózlerdi mánili, qısqa qayırıp,
Berdaq, Ájiniyazday ne bir shayırın,
Qásterlep altınǵa qaplaǵan kitap.*

Usı qatarlarında shayır kórkem oy-pikirlerdi tásirli jetkere bilgen.

Haqıyqatında da qosıq qatarların poetikalıq til menen súwretlew sheberligi oqıwshılardıń pikirlew dúnyasına, ruwxıy sezimlerine ádewir tásir jasaydı. Olardıń júreginen xalıqtıń ádebiy miyraslarına bolǵan jıllı sezimlerdi oyatıp, kórkem dúnyanı tanıwǵa sebepshi náirse bul mádeniy hám ádebiy miyraslardı tereńnen úyreniw ekenligine túsiniǵı artadı. Sonday-aq, shayırdıń dáwirge bolǵan kóz qarastarı «Jańa ásir bosaǵasında» dóretpesinde ayrıqsha bayanlanıp, ásirese Aral teńiziniń qurıp ketiw sebepleri, xalıq aralıq





ekologiyalıq mashqalalar haqqında, ġárezsizliktiń xalıqqa alıp kelgen tabısları hám erkinligi tuwralı sezimlerdi kórkem til menen súwretlegen.

*Ótmishke aylanǵan hár kúnim ertek,
Tabılmadı qáste Aral dawası,
Álemge jar salar qaytarıp ber dep,
Jańa tuwǵan hár bir bóbek hawazı.*

Mine, dúnya mashqalalarınıń biri – bul Aral teńizi ekenligin shayır durıs túsine bilgen. Bul teńizdiń suwı qurıp ketiwi, nátiyjede ultannan duzlı qumlardıń kóterilip, xalıqtıń hasıldar jerlerin buzıp, jerlerdi duz qaplap, aqıbetinde elimizdiń hasıl jerleri buzılıp, shólistanǵa aylanıp, mallar ushın jaylawlar tarılıp, barlıq jerler kebirlik appaq qarǵa, shorǵa aylanıp atırǵanın tereń qayǵırıp menen súwretlep, keleshek áwladtıń jasaw jaǵdayı júdá qıyın bolatuǵının shayır: «Álemge jar salar qaytarıp ber dep, Jańa tuwǵan hár bir bóbek hawazı» - dep poetikalıq til menen jırlaǵan. Sonday-aq shayır usı qosıǵında jáne de jańa kórkem pikirlerdi berip:

*Sonda bayraq, gerbin kóterip jurtlar,
Bólek otaw tigip aldı enshisin,
Ózbekti óz aǵam dep qaraqalpaq,
Tatar búgin suverenlik jemisin.*

- degen qatarlarında qaraqalpaq xalqı Ózbekstan Respublikası quramındaǵı suverenli el ekenligin úlken maqtanış penen súwretlegen. Dúnyada mıńnan aslam xalıqlar jasap atırǵanlıǵın, ayırım ellerdiń jasaw jaǵdayınıń awır ekenligi, kópshiligi qullıqta kún keshirip atırǵanlıǵı táriyiplense, al qaraqalpaq xalqı óz aldına ġárezsizlik alǵanlıǵı, ózbek xalqı menen tuwısqanlıq qatnasta jasap atırǵanlıǵı úlken maqtanış penen súwretlegen.

O. Sátbaevtiń «Jańa ásir bosǵasında» qosıǵına dıqqat awdarıp qaraǵanıımızda qosıqtıń tematıkası júdá keń. Birinshiden, shayır tuwılıp ósken jerine degen súyiwshilik sezimin bildirip watan temasın súwretlese, elge, xalıqqa úlken apatshılıq alıp kiyatırǵan Aral ekologiyasına bolǵan kózqarasın bildirse, úshinshiden, xalıqlar doslıǵı temasın jırlap bere alǵan. Demek, bir qosıqtıń ózinde úsh túrli tema súwretlengen. Bul temalar watanǵa degen



súyiwshilik sezimlerge biriktirilgen. Kópshilik shayırlar Watan temasına bolğan kózqarasların bildirgenin bilemiz. Álbette, bulardıń barlıǵı shayırdıń stiline, súwretlew usıllarına baylanıslı boladı.

Shayırdıń «Kiyik ğayı kirgen jamǵırlı keshte» qosıǵında tábiyat kórinisi, tábiyattıń qubılısları kórkem til menen janlı súwretlenedi.

*Búgin ay kórinbes sáwlesin shashqan,
Kók álemdi tutas qara bult basqan,
Egitilip kelip jılaydı aspan,
Kiyik ğayı kirgen jamǵırlı keshte.*

Sonday-aq, bul kórkem dóretpede kók álemdi kórkemlep, ondaǵı gúldirmamanıń póstek qaǵıwı, aspannıń túbelegi túse jazlawı, jasınnıń jarq-jurq etiwı, bulaǵaylardıń kúsheyiwı, jer aspannıń lárzege keliwi bulardıń barlıǵı kiyik ğayı kirgen jamǵırlı keshte bolatuǵının shayır poetikalıq til menen bayanlaydı. Jáne de shayırdıń «Qarabaraq» qosıǵında tábiyattıń bólegin súwretlep beriwge arnalǵan. Qosıqta bul ósimlikke obraz júklep, dáslep onıń ósiw ózgesheligi, kebirlikte ósiwi, shólge hám ıssıǵa shıdamlılıǵı táriyiplenip, solay etip shayır «Qarabaraq»tı simvolikalıq obraz sıpatında qarap, ol arqalı qaraqalpaq xalqınıń uzaq joldı basıp ótken táǵdirine, shıdamlıǵına, bekkemligine teńep kórsetiwı, burın ushıraspaǵan jańa detallardı paydalana alıwı, onı watan túsiniǵine baylanıstırıp beriwı shayırdıń kóp izlenistegi úlken tabısı.

*Issıǵa, suwıqqa sonday tózimli,
Naǵız shól perzenti dese boladı.
Bazda qarap tursań, uyań sezimli,
Qaraqalpaqlarǵa da usap qaladı*

dep qosıq qatarlarına xalqımızdıń táǵdirin, basıp ótken jolların, minez-qulqın beriwge háreket islegen. Shayır bul pikirlerin poetikalıq jaqtan jáne de rawajlandırıp bılay deydi:

*Watan túsiniǵin qabıllaǵalı,
Ájayıp tús alıp jasıl alaplar.
Shól tımsalı bolıp dabıl qaǵadı,
Tarbiyısqa qaysar qarabaraqlar.
Óz ómir dápterin ózi paraqlar.*



*Qarekeńlik qaysar jiger bar bunda,
Qarabaraqlar – bul, qaraqalpaqlar!*

Usı qatarlarında qarabaraqqa obraz júklep, ótken dáwirdegi qaraqalpaq xalqınıń tirishiligin, rawajlanıw evolyutsiyasın, milliy ózgesheligin, táǵdirin kórkem til menen ashıp bergen.

«Sanaciya» qosıǵında turmıs haıyqatlıǵı, jańalıqqa umtılwı, jańasha kózqaraslar, óndiris penen kórkem ádebiyatqa da sanatsiya kerekligi ayıladı. Bunda shayır hár bir dóretpeniń sapalı jazılıwın, sebebi kórkemligi sayız shıǵarmalardıń kóbeyip baratırǵanlıǵı sınaǵa alınadı.

Shayırdıń «Qırıq qaraqshı» qosıǵı da kórkemlik izlenislerge bay dóretpе. Onda tiykarınan qırıq húr qızdıń is-háreketleri, olarǵa qırıq qaraqshınıń taslanıwı, nátiyjede qırıq húr qız páriyge aylanıp kózden ǵayıp bolıwı, qırıq qaraqshınıń tasqa aylanıwı usaǵan kórinisler súwretlengen. Shayırdıń aytajaq oy-pikiri obrazlı berilgen. Negizinde húr qızlar pákliktiń, hadallıqtıń, tınıshlıqtıń tımsalı sıyaqlı kórinedi. Sonlıqtan qosıqtıń ideyalıq baǵdarında hadal insanlarǵa, tınısh xalıqqa zulımlıq ótkerejaq bolsa, olardıń baxıtlı kúni hám nátiyjesi bolmaytuǵınlıǵın násiyatlaydı. «Keldiń be, Nawrız?» qosıǵında mıń jıllıq tariyxqa iye xalqımızdıń milliy bayramın kórkemlik penen súwretlep, tematikalıq jaqtan tariyxıy temanı jırlap bergen. Mısalı:

*Búlbillerge baǵrı bostan báhárim,
Jismimdi jasnatar jaǵı-jamalıń,
Sezimtal sulıwday sáwir samalıń,
Epkinde erip keldiń be, Nawrız?*

dep ritorikalıq soraw juwmaqlanǵan. Qosıq qatarlarında birinshiden, Nawrız bayramınıń jarasıǵı – bul oyın-zawıqlar, tábiyattıń oyanıwı, terek hám miywe aǵashları búrtik shıǵarıp jańasha túske eniwi, dúnyanıń, tábiyattıń janlı túrde ózgerip ketiwi, uyqıdaǵı tábiyattaǵı qurt-qumırısqalardıń, jánliklerdiń oyanıwı, tirishiliktiń baslanıwı, miynet bayramınıń baslanıp ketiwi usaǵan temalar kórkem til menen obrazlı táriyiplengen. Ekinshiden, dúnya jaratılısınıń kúshi menen tábiyattıń ózgeriwi, báhárdegi jawın shashınlardıń, gúldirmamanıń kóp bolıwı, qarlıǵashlardıń kókte



qalqıp ushıwı, búlbillerdiń jaǵımlı sayrawı, jap hám bulaq suwlarınıń sıldırılap aǵıwı usaǵan kórinisler poetikalıq til tásirli bayanlanǵan. Úshinshiden, qosıqtıń mazmunı hám kórkemligi nama qosıqlarına jaqınlasıp, hár bir qatarı ózinshe ırǵaqqa salınıp aytılıp turǵanday seziledi. Sonlıqtan bul qosıqtıń namasın kompozitorlar jaza bilse, olardıń úlken sezimtalılıǵınan hám talantlıǵınan derek beredi.

«Kórinde» qosıǵı kórkemlik jaqtan tásirli jazılǵan kórkem dóretpelerdiń biri. Onıń ideyalıq baǵdarında hám mazmunında aqıllılıq, tuwrılıq, pámsizlik, miynetkeshlik, jalqawlıq, batırılıq hám qorqaqlıq haqqındaǵı pikirleri kórkem obrazlılıq penen bayanlanǵan. Bul ideyalar kórkem poetikalıq til menen aqıl-násiyat yaǵnıy didaktikalıq lirika talaplarına ılayıq súwretlengen. Sonlıqtan «Kórinde» qosıǵı qısqa hám ıqsham syujetke qurılǵanı kórinip tur. Dóretpeniń birinshi kupletinde pámsiz hayal hám ańqaw erkek, jatıp isher meshkey menen jalqawdıń xarakteri ashılǵan bolsa, ekinshi kupletinde xalıq ushın iynedey paydası joq biydáwlet hám maqtanshaq adamlardıń minezi ashıp berilse, úshinshi kuplette xalıqqa ushın xızmet etpeytuǵın, adamlardan bólek jasaytuǵın, menmen, tákabbir, ósekshil adamlardıń obrazı kórkem til menen ashıp beriledi. Qosıqta mına qatarlarǵa dıqqat awdarǵan maqsetke muwapıq boladı. «İynedey de sayası joq xalqına», «Kúlmeń iyt joq jerde dońız úrgenge, Túymeni túyedey ete bilgenge», «Sayasınan qorıqqan qoyan júrekke, Qurttay tóbeshikte qábir kóriner», «Jarıqqa tıǵılǵan qurttay shımshıqtıń, Shırqılı ózine dabıl kóriner» - dep shayır lirikalıq qaharman obrazın ashıp beriw maqsetinde teńew, metafora, giperbola usaǵan kórkemlew qurallarınan ónimli paydalana bilgen. Sonday-aq bul qosıqta adamgershilik, tuwrı sózlilik, haqıyqatlıq, aqıllılıq, watanǵa súyiwshilik ideyalarda tásirli berilgen. Mısalı:

*Jazıqlıq jarasar ana –Watanǵa,
Náziklik jarasar hayal adamǵa,
Talayı tap kelse geshshe, ladanǵa,
Onnan eshegi de aqıl kóriner. - dep násiyatlaydı.*



Joqarida aytqanımızday qosıqta súwretlew usıllarında jańashılıqtı kóriwge boladı. «Diyxanına paylı jetse aqılı, Jantaq ushınan da óner daqılı.», «Kúlmeń iyt joq jerde dońız úrgenge, Túymeni túyedey ete bilgenge» usağan qatarlarda jańa sóz dizbeklerin islete bilgen hám kórkem súwretlewdiń jaqsı úlgerin ańlawğa boladı.

«Pushaymanlıq» qosıǵı da didaktikalıq xarakterdegi dóretpe bolıp, onda turmısta ushıraytuǵın qıyınshılıqlar, batır hám mártti, ata-ana qádirine jetiw, sózdiń qádirin biliw, mánissizliktiń zıyanlı aqıbetleri usağan máseleler kórkemlik penen táriyiplengen. Qosıqta «Ózin qızday jasandırǵan», «Kórgen kúni bolıp dozaq», «Ata-ana qádirine, jete almaǵan ul pushayman», «Sóz hasılın saylap tergen», «Bazda ózin baylap bergen, buwını joq til pushayman» sıyaqlı qatarlarda poetikalıq súwretlew tásirli berilgeni kórinip tur. «Gladiatorlar» qosıǵı kórkemlik jaqtan mazmunlı dóretpe. Qosıqtıń tiykarǵı ideyasında insan balasına erkinlik, azatlıq tileydi. Máselen, «olar biymáni ólimi menen, jurtqa qızıq bergen gladiatorlar» dese, «Adam deyin deseń jırtqıshqa usar, jırtqısh deyin deseń-eki ayaqlı» dep olardıń obrazın ashıp beredi. Usı qosıq arqalı tariyxıy waqıyanı bayanlap, ondaǵı jawızlıqtı áshkaralap bermekshi boladı. Búgingi kúnde de ayırım jaslardıń is-háreketi, mánissiz jánjellerin usı arqalı sına aladı. Nátiyjede shayır bul tariyxıy temadaǵı qosıǵı menen pútkil dúnya xalıqlarına tınıshlıq hám erkinlik tilegen. Sonday-aq shayırdıń «Úshinshi duel» qosıǵı arqalı tariyxıy haqıyqatlıqtı ashıp bergen. Birinshi duelde dúnyaǵa belgili shayır A.S.Pushkinniń ólimine baylanıslı ayanıshlı waqıya kórkem til menen bayanlangan bolsa, ekinshi duelde belgili rus shayırı Lermontovtıń Martinov tárepinen óltiriliwi súwretlengen. Dóretpede qaharman obrazların ashıp beriw maqsetinde «qaǵaz-teńiz, pár-jelqom qayıq, sezim-dawıl oǵan pát bergen», «sham jıltırar, sıya keppegen», «oq sestinen dir-r etti áyneke, taw jańǵırdı. Shútik sham óshti», «Qular rus shayırı úlken, lars etkendey mın jıllıq shınar», «bul qam qıyal, hesh qashan, júz bermeydi úshinshi duel! »-degen kórkem súwretlew quralları sheber isletilgen. Solay etip úshinshi duel hesh qashan bolmasın, eger bolǵan jaǵdayda ózim bolayın dep joqarıdaǵı



belgili rus shayırlarınıń ayanıshlı ólimine, olardıń ólimi dúnya poeziyasınıń rawajlanıwına kóp zıyanı bolǵanlıǵın, olar tiri bolǵanda qanshadan qansha dóretpeler jazılıwı múmkin ekenligin poetikalıq menen jırlaydı.

Oqıwshılar Orazbay Sátbaev dóretiwshiligi, poeziyasınıń tematikası haqqında keń túsinik aladı. Tiykarınan shayır watan, tábiyat, ómir, turmıs mashqalaların ózine tiykarǵı tema etip alǵanlıǵı bilip, ondaǵı temalarǵa jaqsılıq, hadallıq, páklik, haqıyqatlıq, tuwrılıq, aqıllılıq, ádep-ikramlılıq, adamgershilik ideyaların sińdire bilgenligin, shayırdıń qaysı qosıǵın alıp qarasaqta tematikalıq jaqtan jaqsı qurılıp, ideyalıq jaqtan kórkem obrazǵa bay sózlerden orınlı paydalanǵanlıǵın, jańasha pikirlerdi, ideyalardı, kóz qaraslardı temalarında súwretley alǵanlıǵın hám rawajlandırǵanlıǵın oqıwshılar tereńnen sezip aladı.

Ulıwmalastırıp aytqanda, oqıwshılarǵa Orazbay Sátbaev dóretiwshiligin úyretiw arqalı olardıń sanasında ulıwma insanıyılıq, watǵa súyiwshilik, milliy xalıqlıq ideyalardı sińdirip, jáne de olardıń sózlik baylıǵın, dóretiwshilik uqıplıǵın qalıplestirip baramız.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Йўлдошев Қ. Адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий асослари. – Т.: «Ўқитувчи», 1996.
2. Тўхлиев Б. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Т.: «Янги аср авлоди», 2006.
3. Йўлдошев Қ., Йўлдош М. Бадий таҳлил асослари. – Т.: «KAMALAK», 2016.
4. Азизов А., Юсупов Қ. «Ай сығалайды. «Эрман» газетасы, 1993, 16-май. №10 (31).
5. Алласугуров Е. Дөңбекшиген дүньясаң. // «Қарақалпақстан жаслары», 1996. 19-сентябрь.
6. Сәтбаев О. Арзыўлар дарағы. – Нөкис, «Қарақалпақстан», 2010, 3-бет. (Ескертиў: Ендиги мысаллар усы топламнан алынады. Сонда-4-5-бет. Сонда – 48-бет.)

ADABIYOT DARSLARIDA "LANDSHAFT" LOYIHASINI TAYYORLASH



Zulayho SAFAROVA

*Shahrisabz tumanidagi
15-umumta'lim maktabining ona tili
va adabiyot o'qituvchisi.*

El-manzil: Abkarduino@gmail.com

Annotatsiya. *Adabiyot darslarida loyiha ishlarini yaratish o'quvchilarning kreativ ko'nikmlarini takomillashtirishning eng qiziqarli vositasidir. Yaratilgan "Landshaft" texnologiyasi o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalari hosil qiluvchi innovatsion texnologiyalardan biri hisoblanadi.*

Texnologiya o'quvchilarni badiiy asardan zavq olish, kitobxonlikka qiziqtirish, badiiy ijodni anglash kabi layoqatlarni takomillashtirishga qaratilgan ilg'or tajribaga asoslanadi. Mazkur innovatsiya adabiyot darslarida loyiha ishlarini yaratishning qulay va qiziqarli usuli bo'lib, soha o'qituvchilariga qo'shimcha metodik yordam vazifasini bajaradi.

Kalit so'zlar: *"Landshaft", loyiha ishi, badiiy tahlil, portret, peyzaj, detall, badiiy tasvir vositalari*

Komil shaxsni shakllantirish – adabiyot o'qitishning bosh maqsadi. Bu umumiy tushuncha bo'lib, istiqbolni belgilaydi. Oddiy o'quvchidan kitobxon tayyorlash, bolalarni badiiy so'zdan ta'sirlanadigan, uning jozibasini his etadigan, haqiqiy badiiy asarni taniydigan, o'qigan asarini tahlil eta biladigan va undan o'ziga xulosa chiqarishga qodir, o'z qarashlarini og'zaki va yozma shaklda ravon ifoda eta oladigan, badiiy asar o'qishni o'zining birinchi hayotiy ehtiyojiga aylantirgan o'quvchi shaxsini shakllantirish bosh vazifa sifatida turadi.

Nimaning o‘qitilishi lozimligi to‘g‘risidagi ta‘lim mazmuni o‘quvchilarga beriladigan bilim va singdiriladigan amaliy ko‘nikmalar direktiv (yo‘riqnoma) hujjatlar, darslik hamda qo‘llanmalarda aks ettiriladi.

Ta‘lim mazmuni konsepsiya, o‘quv dasturi, standart, darslik va qo‘llanmalarda aks etadi. Maktablardagi ta‘lim va tarbiya tuzilishini ham qayta qurib, istiqlol davri talablariga muvofiqlashtirish hozirgi dolzarb vazifalardandir.

Shuni aytish kerakki, kelajak avlodni yetuk shaxs sifatida tarbiyalashda adabiy ta‘limning roli beqiyosdir. Shu bois maktab o‘qituvchilari adabiyotni o‘qitish masalasiga alohida e‘tibor bermoqlari lozim.

Bu o‘rinda ularning o‘zlari siyosiy jihatdan savodli, salohiyatli bo‘lishlari va o‘z ustilarida tinimsiz ishlashlari kerak. Sababi, bugungi kunda o‘rta ta‘lim maktablarida faoliyat ko‘rsatayotgan til va adabiyot o‘qituvchilarining asosiy qismi oliy o‘quv yurtlarida sobiq sovet tuzumi davrida nma‘lumot olgan mutaxassislardir.

Avvalgi paytlarda o‘qituvchidan, asosan, darslikdagi ma‘lumotlarni qayta so‘zlash orqali o‘quvchiga tushuntirish talab qilinsa, hozirgi paytda ko‘proq o‘zining ilmiy yondashuvi natijasida paydo bo‘lgan ma‘lumotlarni ham tushuntira olish ko‘nikmasiga egalik qilishi, ko‘proq o‘quvchini mustaqil ishlashga o‘rgatish lozimligi nazarda tutilmoqda.

Shu maqsadda darsni badiiy tahlil qilish va loyihalar yaratish maqsadida “Landshaft” texnologiyasini qo‘llash o‘quvchilarning badiiy asarni o‘qish, uning o‘quv-didaktik tahlili yuzasidan ma‘lum bir loyihani amalga oshirish ko‘nikmalarini hosil qiladi.

O‘qituvchilar uchun yangi darsliklarda berilgan badiiy asarni tahlil qilish topshiriqlarini amalga oshirish biroz muarakkabliklar tug‘dirmoqda.

Badiiy asarni tahlil qilish, loyiha taqdimotlarini tayyorlash uchun aynan “Lanshaft” texnologiyasi darsning ta‘limiy maqsadini amalga oshiradi, yuqori samara beradi. Bu innovatsiya dars mashg‘ulotlarida amalga oshirildi(1-, 2-ilova).



“Landshaft” inglizcha soʻz boʻlib, manzara degan maʼnoni bildiradi. Landshaft tasviriy sanʼatning alohida janri sifatida qaraladi. Hozirda dekoratsiya uchun qilingan hayvonot dunyosi, oʻsimlik olamining uygʻunlashgan jonli va sunʼiy manzaralari ham landshaft deyiladi.

Tavsiya uchun tanlanagan «Landshaft» texnologiyasi badiiy asarlarni tahlil qilish loyihalari, taqdimotlari uchun qoʻllanadi. Bunda surat, badiiy matn, reyza, portret kabi badiiy tasvir vositalari uygʻunlashgan boʻladi.

Yangi tahrirdagi adabiyot darsliklarida aksar mavzular uchun berilgan topshiriqlar oʻquvchilarni hamkorlikda ishlash, ijodiy fikrlash va shaxsiy nuqtayi nazar bildirishga undovchi topshiriqlardan iborat.

Bu kabi koʻnikmalarni shakllantirish uchun oʻqituvchilar maʼlum mavzuni sohalar va fanlararo aloqani uygʻunlashtirgan holda bajarishlari, shuningdek darsning maqsadiga erishish uchun fanga oid va badiiy tahlil kompetensiyalarini hosil qilish texnologiya va metodlarini ishlab chiqish dolzarb masalalar qatorida turadi.

“Landshaft” loyihasini yaratish texnologiyasi yangi innovatsion texnologiyalardan biri boʻlib, badiiy asardan keltirilgan parcha oʻqib chiqilgandan soʻng bajariladigan bir nechta topshiriqni oʻz ichiga olgan texnologiya hisoblanadi.

Quyida ushbu texnologiya topshiriqlarini amalga oshirish vazifalari 7-sinf «Adabiyot» darsligidagi “Chol va dengiz” mavzusini oʻrganish misolida amalga oshirilgan. Yangi nashrdan chiqqan «Adabiyot» darsligida E. Hemingvayning “Chol va dengiz” qissasidan parcha keltirilgan[1, 42–60-b.]. Asarni oʻrgatish uchun uch soat vaqt ajratilgan.

Shuning uchinchi mavzusi “Ernest Hemingvay: “Chol va dengiz” qissasi: Muallif uslubi. Loyiha ishi tayyorlash” deb nomlanadi. Oldingi ikki soatda muallif va uning asaridan keltirilgan parcha bilan tanishtiriladi. Uyga vazifa uchun loyiha ishi yaratish vazifalari haqida tushunchalar beradi.



“Landshaft” loyihasini yaratish haqida o‘quvchilarga boshlang‘ich tushunchalar berishdan avval o‘quvchilar jamoasini 3–4 guruhga bo‘lish tavsiya etiladi. Har bir guruh hamkorlikda ishlab, ijodiy firklar, o‘z nuqtayi nazarlari bilan ma‘lum loyihani tayyorlashlari tushuntiriladi.

Masalan, “Landshaft nima?” –degan savol bilan o‘quvchilarga muarojaat etiladi.

O‘quvchilarga: “Landshaft” lotincha “manzara” degan ma‘noni bildiradi. “Landshaft” loyihasini tayyorlashda, birinchi qadam o‘laroq, adabiyotda “landshaft”ning ma‘nosi va uning ahamiyati haqida tushunchalarni o‘rganishingiz muhimdir.

Keyin, asar haqida o‘zingizga qanday “landshaft”ni tasavvur qilmoqchisiz?

Sizning yaratgan fantaziyangiz bir qarashdayoq asar haqidagi tushunchalarni aks ettirgan loyiha bo‘lishi kerak.

Undan so‘ng yaratgan “Landshaft”ingizning o‘ziga xos xususiyatlari, undagi jumlar va ularning ma‘nolari haqida tafsilotlarni qayd etishingiz lozim. Ushbu tushunchalar asosida, o‘zingizga xos “landshaft” loyihasini yaratishingiz mumkin”, - deyiladi.

Loyihani tayyorlash oldidan o‘quvchilar media manbalardan foydalanishlari mumkin. “Chol va dengiz” asarida muallif uslubi” mavzusida loyiha yaratish maqsadida “Landshaft” texnologiyasini yaratish tavsiyasi beriladi.

Tavsiyada tabiat tasviri, portret san‘ati, peyzaj, asardagi detallar, muhim bo‘lgan badiiy tasvir vositalari, qahramonga xos jihatlarni A4 formatli 3–4ta qog‘ozda tasvirlashlari va uni birma-bir bayon etib himoya qilishlari aytiladi.

Guruhlar kelishgan holda o‘zlarining badiiy ijodiy didlariga tayanib, mavzu haqida noutbukda yoki ruchka, qalam yoki bo‘yoqlardan foydalanib, qog‘ozlarda loyiha ishlarini amalga oshirib, “Chol va dengiz” haqida landshaft-manzarani ochib berishlari mumkin.

Quyida berilgan sxema loyiha ishi uchun zarur bo‘lgan topshiriqlarni o‘z ichiga oladi:



- Loyihangizda asardagi peyjaz, portret kabi matnlardan foydalaning. Asardagi badiiy tasvir vositalari berilgan jummalarni yozib oling.

- Asar voqealari tasvirlangan makon, zamon, epizodlar, personajlar va detallarni tasvirlab rasm chizing. Suratlarda yodingizda qolgan, yorqin taassurot uygʻotgan manzaralarni aks ettiring.

- Asar muallifi sizningcha, qaysi tasvirlarda ramziy maʼnolarni bera olgan. Dengiz, chol, qayiq, bola, baliqqa eʼtibor qarating.

Darslik uchun yaratilgan metodik qoʻllanmada loyiha ishlari intervyu, suratlar, esse, matn, musiqa, audio va videorolik, sahnaviy koʻrinishida tayyorlanishi mumkin, deyilgan. “Landshaft” loyihasida oʻquvchilar maʼlum bir asar manzarasini yaratayotganda badiiy matnlardan, asarga mos suratlardan, shaxsiy nuqtayi nazar va xulosalardan foydalanadilar.

Topshiriqlar guruhlar shaklida bajariladi. Guruh tasviriy sanʼatdan qobiliyati bor, ona tilida nutqiy layoqati yuqori boʻlgan va kitobxon oʻquvchilarni birlashtiradi. Ular hamkorlikda birlashgan holda 20–25 daqiqa ichida asar haqidagi “Landshaft” loyihalarini tayyorlaydilar.

Demak, bu loyiha ishida oʻquvchilar asar bilan ishlashning soʻnggi bosqichida kulminatsion topshiriqlar bajarishlari mumkin. Kulminatsion topshiriqlarda oʻquvchilar:

- guruh boʻlib ishlashadi va guruhning har bir aʼzosining oʻz vazifasi boʻladi;

- nafaqat adabiyot, balki boshqa fanlardan ham olgan bilim va koʻnikmalarini qoʻllashadi;

- ijodiy qobiliyatlarini ishga solishadi;

- konkret bir mahsulot yaratishadi.

“Landshaft” loyihasi uchun berilgan topshiriqni, masalan, guruhlar

Quyidagicha bajarishlari mumkin:



Chol oriq va holdan toygan, ensasini chuqur ajinlar tilib o'tgan, betlari esa quyosh nurining tropik dengiz yuzidan aks etib chiqishidan paydo bo'ladigan beozor teri rakining jigarrang dog'lari bilan qoplangan edi.

Dog'lar cho'zilib gardanigacha tushgan, yirik baliqlarni tortib olayotganda, chizimchalar o'yib yuborgan qo'llarida chuqur chandiq izlari ko'rinardi.



Ammo bu izlar ichida yangisi yo'q, hammasi ham uzoq suvsizlikdan qaqrab yotgan biyobon darzlari singari ko'hna edi. Cholda nimaiki bor bo'lsa, bari ham eski, faqat dengiz tusini olgan moviy, mardona odamlarnikiga xos quvnoq ko'zlari bundan mustasno edi.

Okean saxiy va go'zal, ammo u goho to'satdan shunday shafqatsiz bo'lib ketadiki, uning ustida oziq ilinjida charx urib, sho'ng'ib, ojiz va mungli ovoz bilan bir-birlariga jo'r bo'lib uchgan bu qushlar unga nisbatan benihoya zaif va mo'rt ko'rinadi", deb o'ylardi.

Asardagi chol- ertangi kunga umid, ishonch, tinimsiz harakat, o'zini o'zi anglash timsoli. Asardagi dengiz-insoniyatning hayot va o'lim orasidagi mashaqqat va ayovsiz sinov ramzi. Asardagi baliq - g'alaba va muvaffaqiyat, oliy maqsad.

Chol o'zini omadsiz emasligini isbotlash uchun kuchli iroda va sabr-bardosh bilan chiroyli va sokin, ammo shafqatsiz dengizdan baliq ovlashga chiqdi.



“Landshaft” loyihasida ma’lum bir asar va undagi detallar haqida ham taqdimotlar tayyorlash mumkin.

Ernest Heminguey ijodidagi eng mashhur va salmoqli asarlardan biri bo‘lgan “Chol va dengiz” 1951-yilda yozilgan.

Asar voqealari Kubada bo‘lib o‘tadi. 84 kundan beri dengizda omadi chopmagan Santyago yana baliq oviga chiqadi.

Qirg‘oqdan ancha uzoqqa ketib qolgan Santyagoning bu safar omadi chopadi – u ulkan marlinga duch keladi.

Butun kuchi va zakovatini ishga solgan holda u baliq bilan uch kun olishadi va uni tutishga muvaffaq bo‘ladi. Biroq cholning harakatlari zo‘ye ketadi – baliqni akulalar yeb qo‘yadi va undan faqat ustuxon qoladi. Chol shu ustuxonni qirg‘oqqa olib chiqadi.

Demak, bundan chiqadiki, keksa chol butun baliqni olib kela olmadi va bu odamning g‘alabasi moddiy bo‘lmasligi kerakligini anglatyapti. Asosiysi, insonning o‘z ustidan g‘alaba qozonishi, maqsadiga yetish jasorati bo‘lishi kerakligi ta’kidlanmoqda.

**“Chol va dengiz”
asari haqida
“Landshaft”
loyihasi**

Chol yolg‘iz o‘zi baliq oviga ketar edi, chunki u omadsiz edi. Buni jamiyat ham qabul qila olmas edi.

Uning qayig‘i ham juda ayanchli ahvolda edi, chunki cholning o‘zi kambag‘al, uni ta’mirlashga mablag‘i yo‘q edi.

Cholning hayotdagi mag‘lubiyati, yashash uchun kurashdan charchaganini **yelkandan** bilsa bo‘ladi: dag‘al matodan to‘qilgan yamalaverib, olaquroq, yaksoni chiqqan polkning yaloviga o‘xshatilganidan bilsa bo‘ladi.

Asarda **okeanning** saxiyligi shundaki, undan odamlar qancha istasa, shuncha foydalanishi mumkin. agar unga notog‘ri munosabatda bo‘lsa, u shafatsizlarcha o‘ch oladi. Okean- erkinlik ramzi, shuning uchun sokin va go‘zal. Biroq keksa chol umidsizlikka tushmay, o‘zida kuch topib shafqatsiz dengiz bag‘riga baliq ovlagani chiqadi.

Dengiz chidab bo‘lmas tabiiy kuch va u insonni yanchib tashlashi mumkin, ammo yenga olamaydi, mag‘lub qila olmaydi.

Bundan tashqari, “Landshaft” loyihasini yaratayotganda baliq, xo‘rak, qushlar kabi detallarga ham diqqatni qaratish muhim.



Masalan, Santyago tutgan baliqqa qarab “Baliq, o’lsam o’lamanki, biroq sendan ajralmayman”, - deydi. Demak, chol uchun baliqning ahamiyati katta. Baliq uning uchun hamma narsa edi: omad, baxt, maqsad; – u yana quruq qaytsa, odamlar oldida uyatga qoladi, uni yana “omadsiz” deb masxaralashadi, mazmunidagi jumllarni keltirish bilan, asar mazmunini tahliliy bayon etish bilan loyihalarni boyitishlari mumkin.

Santyago va baliq o’rtasidagi hayot uchun kurashdan nimalarni uqdingiz? Ularning holatida qanday o’xshash va farqli jihatlar mavjud? Shu kabi savollarga javob yozish orqali ham loyiha matnlarini yozish mumkin. Masalan, o’quvchilar ovlangan baliq va chol haqida shunday fikrlarni bildirishlari kerak bo’ladi:

- har ikkisi ham yashash uchun, tirik qolish uchun jang qilyapti;

- har ikkisi ham yolg’iz va ojiz;

- baliq – tutqun, chol – ozod shu kabi jummlalar.

Yoki asarda cholning tush ko’rishi, tushidagi arslon detalini o’quvchilar shunday tahlil qilishi mumkin. Asarda uch marta cholning tushiga arslonlar kiradi: asar boshida – uch kunlik dengiz oviga chiqishidan oldin, dengizda qayig’ida uxlab qolganida va baliq ovidan qaytib, o’z uyida uxlayotganida. Cholning yoshligi Afrika bilan bog’liq, Afrikaning zardobrang sohili va sherlarini esa cholning yoshligi, kuch-qudratga to’la bo’lgan paytlari ramzi sifatida ko’rish mumkin. Qayiqda tushiga kirgan dengiz cho’chqalari esa uning xavotirlari ramzi bo’lishi mumkin. Tushdagi arslonlar mashaqqatli va xavfli hayot to’siqlari ramzi ekanligini yoritadilar.

Bundan tashqari, loyiha ishlarida asar “Inson bolasi yengilib, yengilganiga rozi bo’lib ketaverish uchun yaratilmagan” g’oyasiga asoslanganini asar matni va hayotiy misollar bilan izohlash ham o’quvchilarning ijodkorligi ularning tanqidiy fikrlashlarini, ya’ni shaxsiy munosabat bildirish, o’z qarashlari va asar g’oyasi haqida o’z g’oyalarini ilgari surishlari mumkin.

Savollarni o’quvchilar bilan muhokama qilish, loyiha yaratish jarayonida shuni nazarda tutish lozimki, asar turli xil talqinlarga



imkon beradi. Misol uchun, Santyago o‘z maqsadiga erishdimi? U g‘olibmi yoki mag‘lub? Bir tarafdin, u ulkan marlinni tutdi, ikkinchi tarafdin esa, tutgan o‘ljasini qirg‘oqqa olib kela olmadi – baliq akulalarga yem bo‘ldi. Heminguyey o‘z asari haqida fikr bildirar ekan, shunday degan edi: “Hech bir yaxshi asar undagi ramzlar oldindan o‘ylab topilib, mixlangan holda yaratilmagan. Men haqiqiy chol, haqiqiy bola, haqiqiy dengiz, haqiqiy baliq va haqiqiy akulalarni tasvirlashga harakat qildim. Agar men ularni yetarlicha yaxshi va haqqoniy tasvirlay olgan bo‘lsam, ular ko‘p narsani anglatishi mumkin”. Demak, o‘quvchilar bilan darslikdagi savollar topshiriqlar yordamida asarni muhokama va tahlil qilish jarayonida asosiy maqsad uning “yagona to‘g‘ri” talqinini yaratish emas, asardagi tagma‘nolarni o‘quvchilar o‘zlari uchun kashf qilishlariga yordam berishi lozim. Asarni fanlararo bog‘lagan holda okean va dengizlar, undagi jonivorlar ilmiy matn tayyorlagan holda loyiha matnlarini kengaytirishlari mumkin. Loyiha ishlarini namunali va teran yarata olgan jamoalar 5 ball bilan baholanadi. Mazmuni sayoz bo‘lsa 4 yoki 3 ball bilan baholanadi.¹

“Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuning asosiy maqsadlaridan biri o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va mustaqil tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Ayniqsa, adabiyot darslarida badiiy matn tahlili vositasida o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga, empatiyaga (birovning quvonch va g‘amiga sherik bo‘la olishga) o‘rgatish, emotsional intellektini rivojlantirish, turfa madaniyatlar bilan tanishtirish muhim maqsad hisoblanadi.

O‘quvchi badiiy asarni o‘qish bilan bir qatorda undan badiiy zavq olishi, ta‘sirini bilishi, badiiy-estetik qiymatini anglab olishi kerak. Bunda kitobxon badiiy tahlilga oid topshiriqlarni bajarishda asosiy e‘tiborini asar mohiyatini anglash bilan birga, uning estetik qimmatini ko‘rsatishga, badiiyligini ta‘minlagan omillarni idrok etishga qaratishi zarur. Natijada puxta va chuqur o‘quv tahlilgina o‘rganilayotgan asarning o‘quvchilar hissiyotiga ta‘sir qilishini ta‘minlaydi. Hissiyotga ko‘rsatilgan ta‘sir, albatta, shaxsning ma‘naviy sifatiga aylanadi.



Innovation texnologiyalardan biri bo'lgan “Landshaft” loyihasini 6-sinf adabiyot darsligidagi “O‘g‘ri”, “Shum bola”, “Bir kunlik yoz”, “Sinov” kabi asarlar tahliliga oid loyiha ishlarini amalga oshirish mumkin. Bu o‘quvchilarning mustaqil, ijodiy ishlashlari uchun zamin yaratadi. 7-sinf darsligida berilgan “Lobo”, “Oqbo‘yin” kabi asarlarni badiiy tahlil qilish va taqdimot tayyorlash darslarida qo‘llash ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, “Landshaft” loyihasi texnologiyasi

6, 7, 10-sinf «Adabiyot» darsliklaridagi asarlarni tahlili qilishga qaratilgan universal, innovatsion texnologiyalar sirasiga kiradi. Texnologiya tasviriy san‘at, tabiiy fanlar bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, o‘quvchilarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarning kollaboratsiya (hamkorlikda ishlash), kommunikativlik (ona tilida o‘zaro muloqot qilish), kreativ fikrlash (o‘z g‘oyalarini yaratish), tanqidiy fikrlash (tanqid, ya’ni hukm qilish mahorati – o‘z musataqil fikriga ega bo‘lish) kabi malakalarni shakllantirish uchun zamin yaratadi. Texnologiya o‘quvchilarni badiiy ijod namunalaridan zavq olishga, bevosita ijod qilishga undaydi.

Yuqorida taklif qilingan texnologiya yangiligi bilan, dars jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan. Texnologiya muayyan pedagogik muammoni hal qilish, o‘quv dasturining ayrim bo‘lim, bob va mavzularni o‘rgatishga qaratilgan. Tanlangan mavzular dolzarb va o‘qituvchilarga mavzu yuzasidan aniq ma’lumot berilgan, aniq metodik maqsadga yo‘naltirilgan. O‘quvchilarga bilim, ko‘nikma, munosabat, qadriyatlar va xulq-atvorni o‘zlashtirishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan vositalar va materiallar bilan bir qatorda strategiyalar, o‘qitish usullari va metodlari, o‘qituvchi tomonidan olib boriladigan dastlabki tayyorgarliklarning barchasi keltirilgan.

Иловалар

1-ilova

LANDSHAFT LOYIHASI


- Chol qaviqda vol g'iz o'zi Golfstrimda baliq ovlardi. Dengizga chiqayotganiga mana 84kun ham to'ldi, ammo hali bironta baliq tutganicha vo'q.
- u o'zini juda
- omadsiz
- hisoblardi.



- Ammo bu izlar ichida yangisi yo'q, hammasi ham uzoq suvsizlikdan qaqrab yotgan biyobon darzlari singari ko'hna edi. Cholda nimaiki bor bo'lsa, bari ham eski, faqat dengiz tusini olgan moviy, mardona odamlarnikiga xos quvnoq ko'zlari bundan mustasno edi.



- Okean saxiy va go'zal, ammo u goho to'satdan shunday shafqatsiz bo'lib ketadi, uning ustida oziq ilinjida charx urib, sho'ng'ib, ojiz va mungli ovoz bilan birlariga jo'r bo'lib uchgan bu qushlar unga nisbatan benihoya zaif va mo'rt ko'rinadi", deb o'ylardi.



- Keksa chol baliqni olib kela olmadi va bu odamning g'alabasi moddiy bo'lmasligini kerak. Asosivsi inson o'z ustidan g'alaba qozonishi, maqsadiga vetish jasorati bo'lishi kerak



Антидорина Виталина

2-ilova

Ernest Heminguey ijodidagi eng mashhur va salmoqli asarlardan biri bo‘lgan “Chol va dengiz” 1951-yilda yozilgan.

Asar voqealari Kubada bo‘lib o‘tadi. 84 kundan beri dengizda omadi chopmagan Santyago yana baliq oviga chiqadi.

Qirg‘oqdan ancha uzoqqa ketib qolgan Santyagoning bu safar omadi chopadi – u ulkan marlinga duch keladi.

Butun kuchi va zakovatini ishga solgan holda u baliq bilan uch kun olishadi va uni tutishga muvaffaq bo‘ladi. Biroq cholning harakatlari zoye ketadi – baliqni akulalar yeb qo‘yadi va undan faqat ustuxon qoladi. Chol shu ustuxonni qirg‘oqqa olib chiqadi.

Demak, bundan chiqadiki, keksa chol butun baliqni olib kela olmadi va bu odamning g‘alabasi moddiy bo‘lmasligi kerakligini anglatyapti. Asosiysi, insonning o‘z ustidan g‘alaba qozonishi, maqsadiga yetish jasorati bo‘lishi kerakligi ta’kidlanmoqda.



Chol yolg‘iz o‘zi

baliq oviga ketar edi, chunki u omadsiz edi. Buni jamiyat ham qabul qila olmas edi.

Uning **qayig‘i** ham juda ayanchli ahvolda edi, chunki cholning o‘zi kambag‘al, uni ta’mirlashga mablag‘i yo‘q edi.

Cholning hayotdagi mag‘lubiyati, yashash uchun kurashdan charchaganini **yelkandan** bilsa bo‘ladi: dag‘al matodan to‘qilgan yamalaverib, olaquroq, yaksoni chiqqan polkning yaloviga o‘xshatilganidan bilsa bo‘ladi.

Asarda **okeanning** saxiyligi

shundaki, undan odamlar qancha istasa, shuncha foydalanishi mumkin. agar unga notog‘ri munosabatda bo‘lsa, u shafatsizlarcha o‘ch oladi. Okean erkinlik ramzi, shuning uchun sokin va go‘zal. Biroq keksa chol umidsizlikka tushmay, o‘zida kuch topib shafqatsiz dengiz bag‘riga baliq ovlagani chiqadi.

Dengiz chidab bo‘lmas tabiiy kuch va u insonni yanchib tashlashi mumkin, ammo yenga olamaydi, mag‘lub qila olmaydi.

Dars yuzasidan tarqatmalar

1. O‘ylab ko‘ring: Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan bu asar, muallif o‘zi aytganidek, oddiy narsalar tasviriga bag‘ishlangan bo‘lishi mumkinmi?
2. Chol, dengiz va baliq sizda qanday tasavvurlarni uyg‘otadi? Ular o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor deb o‘ylaysiz? Ularni umumlashtiruvchi g‘oya(lar) haqida nimalar deyish mumkin?
3. Chol nega yolg‘iz o‘zi baliq ovlardi? – Cholning qayig‘idagi yelkan tasviridan nimalarni his qildingiz?
4. Nega muallif aynan bolani cholga qirq kunlik hamroh qilib qo‘ydi? U ota-onasining qaroridan mamnun edimi? Bola cholning yoniga yana qaytadi deb o‘ylaysizmi? Nega?
5. Chol sizda qanday tasavvur uyg‘otdi?
6. Nega asar “Chol qayiqda yolg‘iz o‘zi Golfstrimda baliq ovlardi” jumlasini bilan boshlanmoqda?
7. Santyago (cholning ismi) nega okeanni saxiy va go‘zal, ayni paytda shafqatsiz deb atamoqda?
8. Santyago nega o‘zi bilan o‘zi gaplasha boshladi?
9. Nima sababdan Santyago baliqdan “ol, ye” deb o‘tinmoqda?
10. Baliq oviga daxldor har bir detalning atroflicha tasvirlanishi sabablari nimada deb o‘ylaysiz?
11. “Baliq, o‘lsam o‘lamanki, sendan ajralmayman”. Bu baliqning Santyago uchun ahamiyati nimada deb o‘ylaysiz?
12. Santyago va baliq o‘rtasidagi hayot uchun kurashdan nimalarni uqdingiz? Ularning holatida qanday o‘xshash va farqli jihatlar mavjud?
13. Cholning dengizda va o‘z kulbasida ko‘rgan tushlarini solishtiring va ulardagi farqlarning sababini izohlang.
14. Akulalarning baliqlarga hujumini qanday izohlaysiz? Nega Santyago bu kurashda o‘zini yengilgan hisoblayapti? Mazkur parchada keltirilgan “Inson bolasi yengilib, yengilganiga rozi bo‘lib ketaverish uchun yaratilmagan” jumlasini hayotiy misollar bilan izohlang.
15. Asar parchasida tush qanday g‘oyaga xizmat qilmoqda?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot 7 [Matn]: o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma / Z. I. Mirzayeva, K. Q. Djalilov. – T.: Respublika ta‘lim markazi, 2022. – 192 b.
1. [Adabiyot [Matn]: 6-sinf uchun darslik / Z. I. Mirzayeva, K. Q. Djalilov. –T.: Respublika ta‘lim markazi, 2022. – 224 b.]
2. Adabiyot fanidan Miliy o‘quv dasturi. –T.: Respublika ta‘lim markazi, 2022.



BIR SHE’R TAHLILI



Dilnoza TURSUNOVA

*ToshDO‘TAU o‘na tili va adabiyoti
ta’limi fakulteti talabasi*

El-manzil: tursunovadilnoza62@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada lirik shoir Abdunabi Boyqo‘zining “Ko‘nglim” nomli she‘rning badiiy qurilishida ishtirok etgan so‘zlarning ma‘no nozikliklarini tahlil qilingan. She‘rda shoirning takror so‘zlarni mahorat bilan qo‘llay olishdagi zargarona san‘ati ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Badiiy adabiyot, yozuvchi, shoir, ruhiyat, lirik asarlar, she‘r, ko‘ngil, ol, ko‘cha, zor, lola.

Badiiy adabiyot san‘at turlarining ichida nafisligi bilan ajralib turadi. Bu nafislik, albatta, yozuvchining mahorati va badiiy iste’doding yuqori shakllanganligi bilan bog‘liqdir. Ko‘pincha, badiiy asarlarning qay darajada o‘quvchi shaxsiyatiga estetik zavq bera olishi yozuvchi va shoirlarning so‘zdan to‘g‘ri foydalana olib go‘zallik yarata bilishi bilan belgilanadi. Nasriy asarlar ham, lirik bitiklar ham inson ruhiyati va tabiatida yuz beradigan nozik his-tuyg‘ular, kechinmalarni anglatishga xizmat qiladi. Ayniqsa, bu borada lirik asarlarning hissasi beqiyosdir. Shu boisdan ham shoirlarning “ko‘ngil ovchilari” deya atalishi bejizdan emas. Shunday shoirlardan biri Abdunabi Boyqo‘zidir. Ustoz Qozoqboy Yo‘ldosh aytganidek: “Ko‘pchilik she‘rlarida Abdunabi Boyqo‘zining so‘zni nozik his qilib, juda mahorat bilan qo‘llay olishi





namoyon bo‘ladi” [1] Yuqoridagi fikrlarimizni dalillash maqsadida, uning “Ko‘nglim” she‘riga yuzlanamiz:

*O‘ksib-o‘ksib ko‘ngil ko‘ngli ol bo‘lgan,
Ko‘ngling ololmadim, o‘ksima, ko‘nglim.
Ko‘ngil ko‘chasida qaddi dol bo‘lgan
Zoru zor ko‘ngilman ko‘nglingda, gulim.*

*Gulim, zoru zoring xoru zor qilma,
Ol, ul zor ko‘nglini, ol-u, zor qilma.
Olu ol uzorinda lolalar undi,
Lolalar bag‘rini volazor qilma.*

She‘rning mazmuni oshiqning ko‘ngli va undan o‘tuvchi hissiy kechinmalari haqida. She‘rning birinchi bandida “ko‘ngil” so‘zi jami sakkiz marta qo‘llanilgan. Ushbu takrorlar she‘rni o‘qish jarayonida o‘quvchi g‘ashiga tegmaydi, aksincha, kitobxon ruhiyatida o‘ziga xos qiziqishni uyg‘otadi va she‘r musiqiylikini ta‘minalashga xizmat qiladi.

Birinchi misrada oshiq ko‘nglining ham ko‘ngli borligi, uning ol (qizil) rangga kirgani ikkinchi misrada – o‘z ko‘nglining ko‘nglini ololmagani uchun o‘ksigani natijasida ekanligi ayon bo‘ladi. Uchinchi va to‘rtinchi misralarda esa oshiq o‘zini ham ko‘ngil deya nomlaydi va ko‘nglining ko‘chasida o‘z ko‘nglini ololmagani uchun qomatini arab alifbosidagi dol (ﺍ) harfi kabi egik bo‘lgani shoirona mahorat bilan ifodalab berilgan.

Birinchi misrada qo‘llangan ikkita “ko‘ngil” so‘zini bir-biridan ikkinchi ko‘ngil so‘zi tarkibida ishtirok etgan egalik qo‘shimchasi va mantiqiy ma‘no orqali farqlash mumkin. Birinchi ko‘ngil so‘zi oshiqqa tegishli bo‘lsa, ikkinchi ko‘ngil so‘zi oshiq ko‘ngilning ko‘ngliga tegishlidir.

Shoir ko‘ngilga nisbatan nega “ol” sifatini qo‘llanganini tahlil qilib ko‘ramiz. Odatda, badiiy adabiyotda muhabbatining visoliga yetisholmagan, uning yo‘lida ko‘p jabr-sitam chekkan oshiq ko‘ngliga nisbatan “yurak bag‘ri qon”, “ko‘ngli tilka-pora” sifatlarini qo‘llash an‘ana tusiga kirib qolgan. Bu biror joyi jarohatlangan kishi



yarasidan qon chiqib, qizil rangga burkanishiga nisbatlanadi. She’rning birinchi misrasida ko’ngil so’ziga “ol” sifatining berilishi ham aynan oshiq ko’ngil ko’nglining ko’nglini topolmaganidan qiynalgani tufayli o’ksib “ol” (qizil) rangga kirganini anglatadi.

“O’ksimoq” fe’li – biror narsaga erisha olmaganligi, bebahraligi, kamsitilganligi va shu kabilar uchun afsuslanmoq, xafa bo’lmoq, g’am chekmoq [2, 146-b.] kabi lug’aviy ma’nolarni anglatadi. O’ksimoq fe’li bilan bog’liq jarayonlar hissiy kechinmalar bo’lganligi tufayli ko’pincha insonning qalbida bino bo’ladi. Birinchi misrada qo’llangan ko’ngilning o’ksishi ham ishq tufayli kamsitilaverilganidan g’am chekayotganini anglatadi. “O’ksib-o’ksib ko’ngil ko’ngli ol bo’lgan” – misradan ko’rinib turibdiki, o’ksimoq fe’li ko’ngil sohibiga emas, aksincha, uning ko’ngliga nisbatan qo’llanilgan.

“Ko’ngling ololmadim, o’ksima, ko’nglim” misrasi ham o’quvchini biroz o’ylantirguvchi. Sababi, misrani o’quvchi shaxs birinchi “ko’ngling” so’zini oshiq ko’ngliga tegishlimi yoki ma’shuqagami, - deya ikkilanishi tabiiydir. Lekin buni shu misra oxirida 1-shaxs egalik qo’shimchasi bilan qo’llangan ikkinchi “ko’nglim” so’zi orqali aniqlab olish mumkin. Demak, “ko’ngling” so’zi bu misrada mashuqagamas, aksincha, oshiq ko’ngliga nisbatan ishlatilganini bildiradi. Bu yerda ko’ngil sohibi – oshiq, uni mashuq ko’ngil sohibi bilan almashtirib qo’ymaslik lozim.

She’rning uchinchi misrasini tahlil qilib ko’ramiz. Unda ishtirok etgan “ko’ngil ko’chasi” iborasi ham biroz muammoli. Oshiqning qaddi (qomati) nega ko’ngilning ko’chasida dol harfi kabi egik bo’lgan? Bu yerda “ko’ngil ko’chasi” ijobiy ma’noda qo’llanganmi, yoki salbiy? Albatta, shoir “ko’ngilning ko’chasi” metaforasi orqali bu yerda go’zal o’xshatish hosil qilgan. Ko’ngil kishining his-tuyg’u va kechinmalari manbayi bo’lganligi tufayli, oshiq yorining visoliga erishib quvonishi, yoki visoliga erisholmay qiynalishi, jabr-stamlari uning ko’nglida sodir bo’ladi. Ishq hodisasi ham bevosita ko’ngil bilan bog’liqligi uchun ishq yo’lida oshiq boshidan kechiradigan barcha voqea-hodisalar, his tuyg’ular nisbatlanib “ko’ngil ko’chasi” deyiladi va uni ham ijobiy, ham salbiy



ma'noda tushunish mumkin. Yorning oshiq hislarini tushunib, u tarafdin ham oshiqqa nisbatan moyillik bildirishi “ko'ngil ko'chasi”da ijobiylikni anglatadi, aksincha, yorning oshiq his-tuyg'ularini anglamasdan, unga rad javobini berishi, oshiqning yor hijroni tufayli har ko'ylarga tushishi “ko'ngil ko'chasi”ning salbiyligi haqida tasavvur uyg'otadi.

Ko'ngil odamzotdagi muqaddas narsalardan biridir. Chunki eng go'zal va pok hislar ko'ngilda uyg'onadi va mujassamlashadi. Tasavvuf va adabiyotda ham eng inu his tuyg'ular jamlanmasi, ishq timsoli sifatida ko'ngil birinchi o'rinda turadi. Allohga nisbatan ilohiy ishq ham yaratgan bandalarining ko'nglida hosil bo'ladi. Shuning uchun insoniyatga xos barcha yaxshiliklar, mehr-muruvvat, poklik nazarda tutilganda, albatta, uning ko'ngli xotirga keladi. Ko'ngil shirinsuxan, mehribon insonlarda ham, hatto eng qattol jinoyatchilarda ham bo'ladi. Lekin ko'ngilni barcha ijobiy xislatlarning makoni deyish ham noto'g'ri. Chunki undan salbiy xislatlar ham joy olishi mumkin. Kitoblarda ko'ngil odam tanasining yurak qismida joylashgani haqida aytiladi. Shunga ko'ra, ko'ngil so'zining sinonimlari sifatida “yurak”, “qalb”, “dil” istilohlari ham ishlatiladi. Ko'ngil, o'z navbatida, aqlga nisbatan zidlanadi. Chunki ko'ngil xohish-istaklarini aql rad etishi mumkin. Ya'ni sevib qolgan oshiq ko'ngli nimani buyursa, shuni bajaradi. Aqli bilan ish tutmaydi. Shuning uchun ham “aql va ko'ngil o'rtasidagi jang – eng og'ir jang” sifatida qaraladi. She'rdagi oshiq ko'nglining dol bo'lishi ham oshiqning aqliga emas, ko'ngliga quloq solgani natijasida sodir bo'lgan. Bu oshiqning ko'ngil ko'chalarida, ya'ni yoriga bo'lgan muhabbati yo'lida jabr ko'raverganidan qomati egilganini anglatadi.

Agar diqqatimizni birinchi bandga qaratadigan bo'lsak, uchinchi misra tugashidan keyin vergul qo'yilmagan. Buni xatolik sifatida emas, aksincha, uchinchi misradagi gap davom etib to'rtinchi misrada tugallangani sifatida tushunish mumkin. To'rtinchi misrada ishtirok etgan “zoru zor” birikmasining “zor-zor”, yoki “zor-uzor” shakllarida qo'llanmagani ham bejiz emas. Chunki sanalgan har ikki holatda ham misra mazmuni, shoir





yetkazmoqchi bo'lgan fikr tamomila boshqa ma'noga aylanib ketgan bo'lardi. “Zoru zor” birikmasi oshiq ko'nglining qay darajada zorlangani mubolag'a bilan ifodalaganini “zor-zor” takror so'zi tashiy olmasdi. Shoir shu misrani “zor-uzor” so'zi bilan berganida esa, misradan anglashiladigan ma'no umuman boshqa ifodaga o'zgarib ketardi. Chunki “zor” so'zi muhtoj, intizor ma'nolarini anglatga, “uzor” so'zi esa yuz, chehra, ruxsor ma'nolarida qo'llaniladi. “Zor” va “uzor” so'zlari birlashishi esa takror so'zni emas, aksincha, juft so'zni hosil qilib, “yuzga intizor” bo'lish ma'nosini anglatadi. Demak, misrada “zor-uzor ko'ngilman” deyish g'alizlikni yuzaga keltirishi mumkin. To'rtinchi misradan kelib chiqadigan ma'no – oshiq ko'ngil ma'shuqa ko'ngilning ishqida intizorlanganini bildiradi.

Misradagi “ko'nglingda” so'zi mazmun-mohiyati bilan uchinchi misradagi “ko'ngil ko'chasiga” ishora qilmoqda. Satrdagi “gulim” undalmasını shoir mashuqaga nisbatan emas, o'zining ko'ngliga nisbatan qo'llagan va ushbu so'zga ko'nglini gulday nozikligi haqidagi fikrni ortgan bo'lishi mumkin. Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, shoirning so'z qo'llash mahorati ancha yetuk. Misralardagi barcha so'zlarni ustalik bilan qo'llab, go'zal mazmun ifodalanishiga sababchi bo'lgan.

Shoir “gulim” undalmasını ikkinchi bandning ikkinchi misrasida ham takror qo'llab, endi o'z ko'ngliga emas, aksincha, yoriga murojaat maqsadida qo'llagan. Ya'niki, yoriga intizoringni xor va muhtoj qilma, deya o'tinyapti. Ikkinchi bandning ikkinchi misrasidagi “ul zor ko'nglini” iborasiga yuzlanamiz. Shoir bu iboradagi “zor” so'ziga birinchi bandda tasvirlangan oshiqning intizor bo'lgandagi holatini nazarda tutyapti. Iboradagi “ul” so'zi ko'rsatish olmoshi vazifasida “zor” so'zini ko'rsatyapti. “Ul” olmoshi o'z asl (u) shaklida qo'llanilsa, she'rning ohangdorligi pasayadi. Shoir “l” harfidan foydalanib olmoshning vazifasi nisbatan muhimroq ekanligini ko'rsatmoqchi bo'lgan. Xuddi shu satrdagi “ol-u” so'zi ikki tomonidan vergul bilan ajratilgan. Sababi shuki, ushbu misra qo'shma gapdan iborat bo'lib, birinchi gap “Ol, ul zor ko'nglini”, - deya tugallanib, birinchi vergul qo'yilgan. “Ol-u”





soʻzidagi u fonemasi uyushiq boʻlaklarni bogʻlash vazifasini bajarib, ikkinchi gapdagi “ol” bilan “zor” soʻzlari uyushib kelgan. Misra maʼnosi: Ul intizor koʻngilni olgin-u ol (qizil) va zor qilma.

Uchinchi satrdagi “Olu ol” soʻzi sifat vazifasida qoʻllanib, uzor (yuz)ning rangini ifodalash maqsadiga xizmat qildirilgan. “Olu ol” “uzor” bilan bogʻlanganda “qizil yuz” maʼnosini anglatadi. Demak, birinchi badda ishtirok etgan “ol” sifati koʻngilning holatini ifodalagan boʻlsa, ikkinchi badda yuzning rangini ifodalab kelyapti. Misra davomida qoʻllangan “lolalar undi” birikmasi yuzning yanada qizil rangga kirganini, qizillik, oʻrtanganlik darajasi ortganini anglatyapti. Odatda oshiq yuzi hayajondan, yorini koʻrganidagi quvonchdan, baxtiyorlikdan qizaradi va bu qizillik lolazorni eslatadi. Toʻrtinchi misradagi “lolalar bagʻri” uchinchi misrada anglashilgan oshiqning qizargan yuziga tegishli boʻlib, yordan shu lolazor bagʻrni “volazor” qilmaslik soʻrallyapti. Satrdagi volazor qilmaslik – lolalarni payhon qilmaslik, oshiqning baxtiyorligi va quvonchini yoʻqqa chiqarmaslik maʼnomlariga ishora qilish uchun ishlatilgan.

Shoirning toʻqqiz qatordan iborat yuqoridagi sheʼrida soʻzlarni takror keltirish orqali soʻz oʻyinini qoʻllagan. Bu soʻz oʻyini sheʼrning mazmun bejirimligini oshirgan. Unga oʻzgacha goʻzallik baxsh etgan.

Shoirning nafaqat “Koʻnglim”, balki, boshqa sheʼrlarini ham oʻqir ekanmiz, uning soʻz qoʻllash va mazmunni boyitish imkoniyatlarining kengligiga hech shubhasiz amin boʻlamiz. Shoir sheʼrlarining barchasi oʻqiguvchi shaxsning ruhiyati va tuygʻularini jumbushga keltiradi. Barcha yozgan sheʼrlarida uning koʻngil kishisi ekanligiga ishora sezilib turadi. Abdunabi Boyqoʻzi sheʼrlari mazmunida bayon etilgan samimiyat, halollik, fidokorlik tuygʻulari shoirning shaxsiyatiga ham oidligini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/qozoqboy-yoldosh-abdunabi-boyqoziev.html>

2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-том. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 1998.



BOSHLANG'ICH TA'LIM – POYDEVOR

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA LINGVISTIK KOMPETENSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI



Muhayyo KENJAYEVA

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori, Yangi asr universitet dotsenti*

El-manzil: kenjayevamuhayyo14@gmail.com.

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarda lingvistik kompetensiyalarni takomillashtirishning nazariy jihatlarini va kompetensiyaga asoslangan yondashuv, lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik tamoyillari, ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: lingvistik kompetensiya, kompetentlikka asoslangan yondashuv, bilim, ko'nikma, malakalar majmui, kommunikativ qobiliyat, pedagogik tamoyillar, ta'lim-tarbiya jarayoni.

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimini mazmunan va mohiyatan modernizatsiya qilish jarayoni davlat tomonidan iqtisodiy qo'llab-quvvatlanmoqda. Jumladan, ta'lim subyektlarining huquqiy manfaatlarini himoya etishga yo'naltirilgan huquqiy baza yaratildi, dunyo miqyosda raqobatlashadigan kadrlar tayyorlashning yaxlit mexanizmi vujudga keldi, ta'lim mazmuni takomillashtirildi, oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan



o'tkazishning tizimi jahon standartlariga moslashtirildi, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning dunyo ta'lim tizimida yuqori shakli barpo etildi. “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun va “Milliy dastur” asosida uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha islohotlarni amalga oshirish yuzasidan ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda.

Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta'lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zahirasini yaratish kabi vazifalar belgilangan bo'lib, bugungi kunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida lingvistik kompetensiyani faollashtirish, ijtimoiy lingvistik tayyorgarligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi shaxsi pedagogik mahorati yuksakligining muhim mezonlaridan biri lingvistik kompetensiyadir. Ya'ni, u o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi pedagogik aloqaning ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir etishga erishish omilidir. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kompetensiyalarini takomillashtirish muammosi bilan bog'liqlikda turli soha olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada, biroq globallashtirish sharoiti talablari asosida xalqaro ta'lim standartlariga mos ravishda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvistik kompetensiyalarini takomillashtirish tizimini takomillashtirish masalasi maxsus tadqiq etilmagan.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining lingvistik kompetensiyalarini takomillashtirish bilan bir qatorda kommunikativ qobiliyatini rivojlantirish, faoliyat jarayonida namoyon etishda uning nutq madaniyatiga alohida e'tibor beriladi. Jumladan, nutqning: sarmazmunligi, sofliqi, aniq va ravonligi, jiddiyligi, jozibadorligi, jarangdorligi, o'zbek tili grammatik qoidalariga mosligi, tushunarliqligi, sodda va ommabop xarakterda bo'lishi kommunikativ qobiliyatni namoyon etishda muhim lingvistik omil hisoblanadi. Bu o'rinda biz bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining lingvistik kompetensiyalarini takomillashtirish muhim ekanligini o'rganishlar jarayonida aniqladik.





Ijtimoiy lingvistik qobiliyatni takomillashtirishda zarur bo'lgan indikatorlarni ham aniqladik. Bizning nazarimizda ular: mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish; pedagogika, psixologiya, fiziologiya, mamlakatshunoslik, xususiy metodika fanlaridan yetarli ma'lumotlilik; ijtimoiy-siyosiy savodxonlik; tolerantlik tafakkurning shakllanganligi va keng dunyoqarashga ega bo'lish; innovatsion va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini mukammal bilish; ijodkorlik, o'z-o'ziga talabchanlik, o'z ustida doimiy mustaqil ishlash va izlanuvchanlik; yangiliklarga intiluvchanlik, o'z faoliyatiga tanqidiy munosabatda bo'lish; kommunikativlik, kreativlik; mas'uliyatlilik; ilmiy-nazariy izlanuvchanlik; shaxslararo muloqot madaniyatiga ega bo'lish; ta'lim sohasidagi respublika va xalqaro tajribadan, sotsiolingvistik yangiliklardan, zamonaviy ta'lim-tarbiya mazmuni, shakl, metod va vositalaridan xabardorlik; ma'naviy komillik; adolatparvarlik; demokratik qadriyatlarning mazmun va mohiyatini egallash; ta'lim va tarbiya jarayonini innovatsion boshqarish; o'z shaxsiy fikriga, qarashlariga, mustaqil va erkin fikrlay olish; layoqatlilik, to'g'ri gapira olish, erkin fikrlay bilish, bilimdonlik, mehnatsevarlik, tashkilotchilik, irodalilik, maqsad sari qiyinchiliklardan qo'rqmaslik, nutq madaniyatiga rioya etish, faoliyat natijasini oldindan ko'ra bilish, qat'iyatlilik, zehnlilik, qiziquvchanlik, mas'uliyatlilikni his qilish, til muhitini yarata olish qobiliyatiga ega bo'lish va boshqalardan iboratdir.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida lingvistik kompetensiyalarini takomillashtirishda qator pedagogik tamoyillarga amal qilish taqozo etiladi:

- ilmiylik;
- nazariy ma'lumotlarning amaliyot bilan aloqadorligi;
- til muhitining mavjudligi;
- o'quv ma'lumotlarining hayotiyliigi, ishonchliligi, davriyligi;
- lingvistik qoidalarga amal qilish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida bag'rikenglik tamoyiliga tayanish;
- axborot almashish jarayonining erkinligi;
- tushunarliklik, ishonchlilik, soddalik va boshqalardan iborat.





Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida lingvistik qobiliyatni takomillashtirishning asosiy poydevori ularning metodologik, ijtimoiy- siyosiy, ilmiy-nazariy, ijtimoiy faollik, kasbiy-pedagogik, metodik, texnik-texnologik, kreativlik, kommunikativlik, intellektual-ijodiy jihatdan tayyorgarligiga bog'liq.

Lingvistik qobiliyatni takomillashtirishda maqsadni to'g'ri qo'yish, ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni aniq loyihalashtirish, aytiladigan fikrlarni eshitish va tushunish, suhbatdosh tilida to'g'ri, aniq va ravon muloqot olib borish; fikrlar almashinuvida muloqot madaniyatiga ega bo'lish; natijani doimiy monitoring qilib borish, tashxislash, til o'rganish va o'rgatish texnikasini chuqur bilish, pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etish va boshqarish malakasiga egalik, o'quvchilar uchun lisoniy muhit yarata olish texnikasini bilish bu borada muhim indikatorlar hisoblanadi.

O'z ustida mustaqil ishlash, ijodkorlik texnikasidan xabardorlik, doimiy malakasini oshirib borish, o'zbek tili nazariyasi bo'yicha ilmiy- nazariy yangiliklarni o'z vaqtida bilish va uning mohiyatini chuqur anglab yetishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim-tarbiyaning interaktiv va innovatsion shakl va metodlaridan foydalanish texnikasini mukammal egallashi va undan samarali foydalanish qobiliyatiga ega bo'lish talab etiladi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida lingvistik kompetensiyalarni takomillashtirishda darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, internet manbalari, OAV materiallari, multimediya mahsulotlari, teleanjuman, video anjuman hamda ko'rgazmali materiallarning samaradorligi kattadir.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari lingvistik qobiliyatlarini takomillashtirish bilan bir qatorda eshitish, o'qish, yozish, gapirish kabi ko'nikmalarni ham muakammal egallashlari zarur. Bu o'rinda fonetik, leksik, grammatik, lingvistik, pragmatik nazariy bilimlarga ega bo'lish va ularni amaliyotda namoyon etish malaka va ko'nikmalariga ega bo'lish muhim pedagogik talablar hisoblanadi.



Fonetik bilimda tovushlarni farqlash, intonatsiya va tovush ritmidan, ohangidan to‘g‘ri foydalanish, harflarning talaffuzini fonetik qoidalar asosida amalga oshirish, so‘zlarni ifodalashda nutq texnikasiga rioya etish talab etiladi. Shuningdek, gap turlari (darak, so‘roq, buyruq gap)ning fonetik talablariga mos ritm, ohang va intonatsiyadan oqilona foydalanish, eshitish texnikasini bilish, so‘zlashuv jarayonida so‘zlardagi harflar va tovushlar mutanosibligini ta‘minlash bo‘yicha og‘zaki mashq qilish malaka va ko‘nikmalari shakllantirilishi lozim.

Leksik bilim negizida-so‘zlarning tuzilish qoidalari, mazmunan so‘zlarning og‘zaki va yozma matnda to‘g‘ri yozish, gapirish va o‘z o‘rnida ishlatish, internatsional so‘zlarning ahamiyati kabi tushunchalarning mohiyatini bilishdan iboratdir. Shuningdek, o‘rganiladigan mavzuga oid so‘zlar, iboralarni matnda o‘z o‘rnida ishlata olish hamda to‘g‘ri talaffuz etish, o‘zak asosida turli qo‘shimchalar bilan (affiksatsiya yoki so‘zlarning bir-biriga qo‘shilishi) yangi so‘zning yasalishiga oid tushunchalarga ega bo‘lish nazarda tutiladi.

Grammatik bilim zahirida so‘z turkumlari, ega va kesim, fe‘lning o‘tgan, hozirgi, kelasi zamon shakllari, ularning grammatik xususiyatlari, aniq hamda majhul nisbatlari va sintaksisning asosiy qoidalari haqida malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lish yotadi. Lingivistik bilimda esa sinf jamoasi muhitida, talabaning darsdan tashqari bo‘sh vaqtida hayotiy, sodda muloqot shakllarini o‘rganishi, tili madaniyati, madaniyatlararo aloqa shakllari, milliy va umuminsoniy qadriyatlari (urf-odatlar, an‘analari, rasm-rusumlari, san‘ati, adabiyoti, milliy qadriyatlari, tarixi, geografik va demografik holati va bq.) haqida bilim, ko‘nikma va malakaga, tolerantlik tafakkuriga ega bo‘lish nazarda tutiladi.

Boshlang‘ich sinflarda muloqot qilish negizida gapirish texnikasiga, madaniyatiga ega bo‘lish nazarda tutiladi. Gapirish monologik hamda dialogik xarakterda bo‘lib, gapirish-monologik kompetensiyasi shakl va mazmunan bir tomonlama xarakterga ega bo‘lib, uning talablari bo‘lajak o‘qituvchilar boshlang‘ich sinf o‘quvchidan oilasi, tug‘ilib o‘sgan yeri, qiziqishi, kundalik hayoti,



do'stlari, yil fasllari hamda o'zini qiziqtirgan boshqa sodda mavzularda qisqa, aniq va savodli gapira olishi, badiiy hamda media matnlarni ifodali o'qishini muntazam so'rash kerak bo'ladi.


Gapirish kompetensiyasi subyekt-subyekt tarzida namoyon bo'ladigan talablardan iborat bo'lib, ular ikkala subyektning bir-biri bilan savol-javobi, ma'lumot berilishi, munozara, fikr almashinuvidan iboratdir. Gapirish kompetensiyada subyekt bilan o'zaro muloqot madaniyati, tinglash, xulosa chiqarish, o'zgalar fikrini hurmat qilish va o'zaro hurmat, o'z fikri va qarashlarini asosli bayon etish, ma'qullash yoki inkor etish qoidalariga bo'ysunish, dialog uchun mikro va makro muhit yaratish, lingivistik qoidalarga og'ishmay amal qilish, ziddiyatli vaziyat yaratmaslik zarur. Bu o'rinda adolat, ilmiylik, haqqoniylik, ketma-ketlik, hayotiylik, o'zaro hurmat, lisoniy madaniyat, erkin fikrlash kabi tamoyillarga amal qilish maqsadga muvofiqdir. Gapirish ko'nikmasida mavzuning aniqligi, ravon til, to'g'ri ohang va talaffuz, lisoniy qoidalarga rioya etish. Faktlarning ishonchliligi, haqqoniyligi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Nutqiy ko'nikmani o'stirishda salomlashish, o'zaro tanishish, kundalik hayotdagi yangiliklar haqida ma'lumot berish va olish, tabriklash, voqea-hodisalar haqida o'zaro fikr almashish uchun mavzularga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Yozishga oid kompetensiyada husnixat va orfografiya, punktuatsiya va orfografiya, grammatik qoidalarga rioya qilish, matn tuzilishi, yozishda talablarga tayanish taqozo etiladi. Pragmatik kompetensiya og'zaki va yozma nutq matnida noaniq, yangi, tushunilishi qiyin bo'lgan so'z, gap va iboralarni qayta so'rash vaziyatini hosil qilishdan iboratdir.

Lingvistik kompetensiyalarni ma'naviy-ma'rifiy jihatida esa o'qituvchida axloqiy yetuklikni, keng dunyoqarashni, muloqot madaniyatlilik, hurfikrlilik, kuchli iro dalilik, ijtimoiy-siyosiy komillik, kuchli e'tiqod, tolerantlik tafakkuri, ijodkorlik, tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, lingvistik layoqat va boshqa sifatlar o'z ifodasini topadi.



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida lingvistik kompetensiyalarni takomillashtirishda mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida ta'lim vositalaridan samarali foydalanishga erishish muhim rol o'ynaydi. Biz bu jarayonda quyidagi guruhlardagi ta'lim vositalaridan foydalandik. (1-rasm).



Mazkur ta'lim vositalaridan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida lingvistik kompetensiyalarni takomillashtirishda ularga beriladigan ijtimoiy lingvistik materiallarning mazmuni, dolzarb muammoga bag'ishlanganligi, kasbga bo'lgan qobiliyati, qiziqishi, imkoniyatlari, psixologik xususiyatlari inobatga olinadi. Bu o'rinda motivatsiya muhim pedagogik omil hisoblanadi. Lingvistik kompetensiyalarni takomillashtirishda ushbu foydalanadigan ta'lim vositalari muhimdir.

Metodist olimi Y. V. Kiselevaning fikriga ko'ra, o'qituvchining birlamchi vazifasi o'quvchiga motivatsiya berish emas, balki o'quvchining to'g'ri o'qishi va rivojlanishida nimalar zarur bo'lsa shularni bera olishdan iboratdir.

Pedagog va psixolog olimlarning fikrlariga ko'ra ikki xil turdagi motivatsiya, ya'ni, "ichki" motivatsiya shaxsda allaqachon



mavjud bo'lgan yoki shaxsning berilgan topshiriqqa bo'lgan javobida mavjud bo'ladigan motivatsiya va “tashqi” motivatsiya tashqaridan erishilgan yoki tashqi turtkidan yaralgan motivatsiyadir.

Shuningdek motivatsiyaning to'rt asosiy kategoriyasi aniqlangan:

1. Faoliyatning o'zidagi qiziqishdan kelib chiqadigan holat – ichki motivatsiya.

2. Boshqa odamlarni xursand qiladigan holat yoki vazifa – ijtimoiy motivatsiya.

3. Yutuq motivatsiyasi – boshqalar bilan raqobatlashish maqsadida vazifalarni yaxshi bajarish.

4. Ko'makchi motivatsiya – motivatsiya rag'batlantirish yoki jazolash orqali paydo qilinadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida lingvistik kompetensiyalarni takomillashtirishda motivatsiyadan unumli foydalanishning ilmiy-metodik tizimi mavjud bo'lib, uning tarkibiy qirralarini quyidagicha ifodalash mumkin. Ushbu tizim zahirida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida lingvistik kompetensiyalarni takomillashtirish jarayonida:

- o'z ustida ijodiy ishlash qobiliyati rivojlanadi;
- lingvistik bilim saviyasini oshirishga maqsadli yondoshadi;
- xalqaro va mamlakatimizdagi ijtimoiy hayot tajribasini qiyosiy o'rganishga ehtiyoji rivojlanadi;
- tanlagan kasbini chuqur egallash uchun bor qobiliyatini safarbar etadi;
- axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanishga ishtiyoqi shakllanadi;
- o'z-o'zini refleksiya qilish, o'z-o'ziga motivatsiya berish borasida bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirib boradi;
- bilimlarni o'zlashtirish bosqichlari: idrok, tushunish, fikrlash, umumlashtirish, mustahkamlash, xulosa qilish, tatbiq etish kabi jarayonlarni amalga oshiradi;
- psixologik mashqlar vositasida lingvistik qobiliyatni rivojlantirib borish imkoniyatiga ega bo'ladilar;



- tanlagan kasbiga, mutaxassislik fanlariga nisbatan qiziqishi va ehtiyoji oshadi;

- darsda voqea-hodisalarga haqqoniy baho berishga o'rganadilar;

- milliy an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar, qadriyatlarga nisbatan yuqori tafakkuri shakllanadi.

Shunday qilib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mavjud lingvistik kompetensiyani takomillashtirish ularni yetuk va o'z kasbining malakali namoyondalari bo'lib yetishishlari uchun zamindir. Buning uchun esa ulardan umumkasbiy bilim, lingvistik qobiliyat, kasbiga bo'lgan ishtiyoq, qiziqish, o'z ustida tinimsiz izlanish, mehnat, ijtimoiy lingvistik malaka va ko'nikmalar talab etiladi. Ushbu qobiliyatni takomillashtirish uchun esa:

- o'qituvchidan ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalar (“case study” uslubi, jonli gazeta, og'zaki teleko'prik, matbuot jurnali, muloqot, hamkorlikda o'qitish, kichik guruhlarda munozara, “amaliy o'yin” anjumani va bq.) va axborot kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari, multimediya taqdimotlari, media-texnologiyalar, zamonaviy o'quv uslubiy materiallar, audiovizual vositalardan unumli foydalanmog'i zarur;

- o'qituvchi zamonaviy fikrlamog'i, lingvistik tayyorgarligini doimiy takomillashtirib bormog'i maqsadga muvofiqdir;

- o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonida jahon sivilizatsiyasi yutuqlaridan hamda ilg'or tajribasidan unumli foydalanishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflar o'qituvchilari o'z ustilarida muntazam ravishda mustaqil ishlashlari, ijodkorlik qobiliyatini o'zlarida rivojlantirib bormog'i, ta'lim-tarbiyaning interaktiv va innovatsion shakl va metodlaridan foydalanish texnikasini mukammal egallashi va undan samarali foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida” 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O'zbekiston

Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5712-Farmoni // Xalq so’zi. – Toshkent, 2019 yil 30 aprel. № 88 (7318).

3. Джураева Б. Р. Формирование педагогической культур будущих учителей в процессе обучения дисциплин педагогического цикла. – Ташкент, Фан, 2003. – 177 с.

4. Isakulova N. J. Kasb ta’limi metodikasi: O’quv qo’llanma. – T.: Fan, 2014. – 00 б.

5. Ismoilova Z. K. O’quvchi-talabalarning sotsiolingvistik-pedagogik madaniyatini rivojlantirish: Ped. fan. nom.... dis. – oshkent, TИЦХМИ, 2000. – 30 b.

6. Isyanov R. G va b. Oliy ta’lim muassasalari o’qituvchilarining malakasini oshirish texnologiyalari. Monografiya. – Toshkent, 2011. – 72 b.

7. Umarov B. Innovatsion kompetentli pedagoglarning shakllanishida mustaqil ta’lim muxim vosita sifatida. // Zamonaviy ta’lim / Sovremennoe obrazovanie. – 2014. – № 8. – 15-b.

8. Киселева Е. В. Формирование культурной компетентности студентов технического вуза.: Дис ... канд.пед.наук. – Мсква, 2007.

9. Мадумаров Т., Камолдинов М. Инновацион педагогик технология асослари ва уни таълим-тарбия жараёнида куллаш: услубий қўлланма. – Тошкент, Talqin, 2012. – 44 б.

10. Raximov B. X. Bo’lajak o’qituvchilarda sotsiolingvistik-madaniy munosabatlarning shakllanishi: Ped. fan. nom. ... dis. – oshkent, 2000. – 61 b.

11. Hamroyev G’. H. Umumiy o’rta ta’lim tizimida fonetikaga oid o’quv materiallarining metodik ta’minotini takomillashtirish: ped. fan. dok. (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2019. – 52 b.

12. Qurbonova X. Q. Ona tili ta’limi mazmunini yangilashning lingvometodik asoslari: ped. fan. nom. ... diss. – Buxoro, 2005. – 155 b.

TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

TA'LIM JARAYONINI MODULLI O'QITISH TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TASHKIL QILISH



Mamarajab TOJIYEV
pedagogika fanlari doktori,
professor
El-manzil: tajiev@umail.uz



Yulduz AKKULOVA
TKTI Yangiyer filiali katta
o'qituvchisi
El-manzil: Yulduz_akkulova@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada texnika yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari matematika darslarini modulli ta'lim texnologiyasidan foydalangan holda tashkil etish yo'llari xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, texnologiya, metod, usul, modulli ta'lim, raqobatbardoshlik, bilim, ko'nikma, malaka.

Ta'lim tizimining asosiy maqsadi, barcha sohalarda kasbiy yetuk shaxsni shakllantirish, uning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish hamda raqobatbardosh mutaxassisni tayyorlashdan iborat.

Xorij tajribalari tahlili shuni ko'rsatadiki, jamiyat taraqqiyoti ta'lim-tarbiya sohasiga joriy etilgan innovatsion texnologiyalarning rivoji va takomillashuvi bilan bog'liq.

Mazkur jarayonni takomillashtirish uchun o'qitishda innovatsion yondashuvlar va ularning tarkibiy qismi bo'lgan modulli ta'lim texnologiyasi asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish



hamda shu orqali ta'lim sifat-samaradorligini oshirish muhim hisoblanadi.

Modulli ta'lim an'anaviy ta'limga muqobil ravishda paydo bo'lgan bo'lib, zamonimizning pedagogik nazariyasi va amaliyotida to'plangan barcha ilg'or g'oyalarni yaxlit holatga keltirgan. Modulli ta'limning asosiy maqsadi talabalar tomonidan aniq o'quv mavzusi bo'yicha bilimlar tizimini o'zlashtirish va ularni ma'lum ko'nikmalarga aylantirishdan iboratdir.

Modulda o'quv mashg'ulotlarini (tugallangan axborotlar bloki) 3–6 soatli ma'ruza mashg'ulotlari va shu bilan bog'langan amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlaridan (taxminan 16–18 soat vaqtga mo'ljallansa maqsadga muvofiq bo'ladi) iborat bo'linishidir.

Modullarni shakllantirish uchun asos bo'lib fanning ishchi dasturi xizmat qiladi. Modul ko'pincha fan mavzusi yoki o'zaro bog'langan mavzulardan iborat bo'lishi mumkin. Biroq, mavzudan farqli o'laroq modulda hamma narsa o'lchanadi, hamma narsa baholanadi.

Modulli o'qitish texnologiyasida o'quv materiali ketma-ket quyidagicha bloklarga ajratiladi: axborot bloki (o'zlashtirish lozim bo'lgan ma'lumotlar); qo'llash bloki (masala yechish, egallagan bilim asosida topshiriqlarni bajarish); axborotlarni korrektsiyalash bloki (noto'g'ri javoblarda qo'shimcha tushuntirish, yordam berish, mashq ishlash); test-axborot bloki (o'zlashtirilgan axborotni tekshirish); tekshirish va tuzatish bloki[1, 48-b.].

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda mazkur o'qitish texnologiyasi asosida ta'lim jarayoni modullar kosimida loyihalashtiriladi. Unda, talabalarning fan dasturi asosida mustaqil ta'lim olishlariga alohida urg'u beriladi, uni tashkil etish mexanizmi muammoli yondashuv asosida amalga oshiriladi.

Ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklari) Davlat ta'lim standarti va o'quv rejalarining yangi avlodi yaratilishida xorijiy tajribalarga asoslangan holda o'quv rejaga o'qitish jarayonini loyihalashtirishga oid yangi fan kiritilishiga alohida etibor qaratildi.

Masalan, ta'limni loyihalashtirishga oid AQSH Jordjiya shtati universitetida (Valdosta State University) EDAT 6000: Professional



Decision Making. 3*36=108 hours EDAT 7132: Framework for Teaching. 3*36=108 hours – fani kiritilgan bo'lsa, Rossiya ta'lim tizimida Педагогическое проектирование. Проектирование образовательной среды – fanlari kiritilgan. Shundan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi texnika sohasidagi oliy ta'limning magistratura mutaxassisliklariga “Texnika turkumidagi fanlarni o'qitish jarayonini loyihalash” fani kiritildi [2].

Demak, professor-o'qituvchilar talabalarda modulli texnologiya asosida o'quv mashg'ulotlar loyihallarini tuzish ko'nikmasini shakllantirish vazifasi turadi.

Birinchi. O'quv fanining umumiy maqsadi hamda shu fanning katta va o'rta bo'lak (modul)larining oldiga qo'yilgan maqsadlarini ifoda etuvchi, keyinchalik, barcha o'quv mashg'ulotlari loyihasini tuzishga xizmat qiladigan, umumiy jadvallarini tuzish:

- birinchi, muayyan o'quv fanini yaxlit bir butunlikda anglab, uni eng yuqori iyerarxiya pog'onasidagi "Eng katta modul" deb qabul qilinadi. So'ngra, o'quv fanining oldiga qo'yilgan umumiy ta'limiy maqsadlari va bu fanga ajratilgan soatlar belgilanib, jadval shakliga keltiriladi. O'quv fanning umumiy maqsadlari, shu o'quv fani uchun ishlab chiqilgan DTS va jamiyatni mustaqil O'zbekiston fuqarolarining ijtimoiy sifatlariga ko'ygan talablariga javob berishi shart;

- ikkinchi, shu fan, ya'ni eng katta modul ichidagi bilimlarning mantiqiy bog'liqligi va fikrni tugallanganligidan kelib chiqib, o'quv materiallari katta bo'laklarga, ya'ni boblarga bo'lib chiqiladi va ular "Katta modul" deb nomlanadi. Shundan so'ng, har bir katta modulning maqsadlari belgilanadi, ularga ajratilgan soatlar ko'rsatilib, jadval shakliga keltiriladi. Katta modullar maqsadlari eng katta moduldagi maqsadlardan kelib chiqib, uning ajralmas bir qismi sifatida bo'lishi shart. Har bir katta modulga ajratilgan soatlar yig'indisi, shu fanga berilgan soatlarning umumiy soniga teng bo'lishi kerak;

- uchinchi, har bir katta modul (bob)lar ichidan mantiqan bog'liq bo'lgan, shu bilan barobar, hajm jihatidan bir juft soatlik o'quv mashg'uloti orqali talabalarga yetkazilishi lozim bo'lgan bilimlar



ajratiladi va ularga "O'rta modul" deb nom berilib, ularning ham ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlari ko'rsatiladi va jadval shakliga keltiriladi.

Shu bilan milliy pedagogik texnologiya tamoyillari asosida o'quv mashg'ulotlarini loyihalashning umumiy jadvallari tuzilgan bo'ladi.

Ikkinchi. Har bir juft soatlik o'quv mashg'ulotining, ya'ni, har bir o'rta modulning xususiy jadvallarini tuzish:

- birinchi, bir juft soatlik o'quv mashg'uloti, ya'ni o'rta modulni, undagi beriladigan bilimlarning mantiqiy bog'liqligi va fikrning tugallanganligini inobatga olib, bir nechta "Kichik modul"larga bo'linadi. So'ng, yuqorida qo'yilgan umumiy maqsadlardan kelib chiqib, har bir kichik modul oldiga ko'yilgan ta'limiy maqsadlari belgilanadi va har bir kichik modulga ajratiladigan vaqt ko'rsatiladi. Shundan so'ng, shu kichik modul yakunida talabalar bajarishi shart bo'lgan ish harakatlar aniqlanadi va jadval shakliga keltiriladi;

- kkinchi, har bir kichik modullar orqali beriladigan bilimlar ichidan tayanch tushunchalarni ajratib, ular asosida talabalar bilim va ko'nikmalarini baholash uchun nazorat savollari tuziladi, baholashning tur va mezonlari aniqlanadi hamda jadval shakliga keltiriladi;

- uchinchi, o'quv mashg'ulotining har bir kichik modulda qo'llaniladigan mashg'ulotning tipi belgilab olinib, qo'llaniladigan pedagogik metod va usullar ko'rsatiladi. So'ng, muayyan o'quv muassasasida mavjud axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ichidan hamda mazkur o'quv materialining harakteridan kelib chiqib, har bir kichik moduldagi o'quv mashg'ulotini amalga oshirishda qo'llaniladigan axborot-kommunikatsion texnologiya va didaktik materiallar ko'rsatilgan jadval yaratiladi.

Shu bilan "Pedagogik texnologiya" tamoyillari asosida bitta o'quv mashg'ulotini loyihalashning xususiy jadvallarini tuzish vazifasi bajarilgan bo'ladi.

Uchinchi. Ushbu o'quv mashg'uloti loyihasini tuzishning hususiy jadvallarida ko'rsatilgan tartib bo'yicha, o'quv mashg'uloti jarayonini amalga oshirishning namunaviy ssenariysi yoziladi. Unda



har bir o'rta modulda beriladigan bilimlar birma-bir ifodalanib, ularni ta'lim oluvchilarga yetkazishda ko'llaniladigan dars tipi, pedagogik usullar, axborot-kommunikatsiya texnologiya va didaktik materiallar ko'rsatiladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'limning barcha bosqichlarida modulli ta'lim tuxnologiyasidan to'g'ri foydalanish ta'lim samaradorligining garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Изетаева Г. К. Математика фанларини модул технологияси асосида ўқитишнинг назарияси ва амалиёти. / Монография. – Т.: “Fan va Texnologiya”, 2013. – 190 б.

2. Тожиев М., Зиёмуҳаммадов Б. Миллий педагогик технологиянинг таълим-тарбия жараёнига татбиғи ва уни ёшлар интеллектуал салоҳиятини юксалтиришдаги ўрни. / Монография. – Т.: «Mumtoz so'z», 2010. – 214 б.

PSIXOLINGVISTIKA

PSIXODIAGNOSTIKANING AFZALLIKLARI



Feruza MARDIYEVA

*TMC Instituti, Pedagogika va
psixologiya kafedrasi
o'qituvchisi.*



Abdujabbor JABBOROV

TMC Instituti 2-kurs talabasi.

El-manzil: jabborovabdujabbor6@gmail.com

El-manzil: feruzamardiyeva1@gmail.com

Annotatsiya. *Psixodiagnostika inson psixikasi va uning holatlari haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, tashxis qo'yib beruvchi yo'nalishdir. Psixodiagnostika so'zining asl ma'nosi psixologik tashxis qo'yish hisoblanadi. U sinaluvchining mavjud psixologik holati va xususiyati haqida ma'lumot beradi.*

Kalit so'zlar: *psixodiagnostika, psixologik tashxis qo'yish, nazariy psixodiagnostika, psixodiagnostik metodlar, ob'ektiv testlar, dialektik texnikalar, proyektiv metodlar, o'z-o'zini anglash.*

Hozirgi jadal rivojlanayotgan zamon va texnologiyalar, axborotlar olami XXI asrda inson psixologiyasiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Inson ruhiyatida bo'ladigan o'zgarishlar, xarakter xususiyatlariga ta'rif berish, qiziqishlarini aniqlash va ularni yo'naltirish hozirgi davrimizning eng muhim tomonlaridan biri hisoblanadi. Shunday ekan, psixologiyaning psixodiagnostika yo'nalishi va unga doir metodikalarning o'rni katta ahamiyat kasb

etadi. Bu sohani inson hayotining turli jabhalarida qo'llash mumkin. Masalan: qiziqishlarni aniqlash, qobiliyatlarni aniqlashda o'rni beqiyos desak mubolag'a bo'lmaydi. Ayniqsa, dunyodagi yirik kompaniyalar xodimlar tanlashda psixodiagnostik metodikalardan foydalanadilar. Bundan tashqari, psixodiagnostika orqali insonlar ruhiyatidagi muammolarni aniqlash mumkin. Bu esa ularga qanday yordam berish mumkinligiga aniqlik kiritib beradi.

Shunday qilib, ongni tashqi dunyo ichki modelining tuzilishi deb tushunish mumkin. Shu jumladan, aynan biz boshidan gapirib kelayotgan psixodiagnostika ishonning ichki meni va o'z-o'zini anglashi jarayoni qay tarzda borayotganini aniqlashda juda katta o'rin tutadi. (O'z-o'zini anglash – bu shaxsning o'z tashvishlari, xatti-harakatlari va motivlari, tajribalari va fikrlariga ongli munosabati [10, 343-b.]; Nisbatan barqaror, ko'proq yoki kamroq ongli, shaxsning o'zi haqidagi g'oyalarning noyob tizimi sifatida tajribaga ega, buning asosida u boshqa odamlar bilan o'zi bilan bog'liq o'zaro munosabatlarini quradi [11, 352, 475-b.]. Umumiy qilib aytganda, psixodiagnostika nafaqat vaziyatni ob'ektiv baholash va optimal davolash rejimini ishlab chiqish, balki insonning ruhiy tiklanishini to'g'ri yo'naltirishga ko'maklashadi. Bu usul juda vizual va odamga uning muammolarini tom ma'noda "ko'rishga" yordam beradi.

Psixologiya insonning ruhiyatini o'rganuvchi nazariy fan bo'lib qolmay, balki hozirgi kunda turli xil sohalarda keng qo'llanilishi mumkin bo'lgan amaliy fan hamdir. Insonni har tomonlama o'rganish, yani odamlar o'rtasidagi individual farqlarni aniqlash ta'lim-tarbiya va mehnat faoliyati samaradorligini belgilaydi. Psixodiagnostika metodlarini ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi psixologiyaning, yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, amaliy psixologiyaning asosiy va eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan psixodiagnostika fani va uning asoslarini bilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixodiagnostika so'zining asl mohiyati "psixologik tashxis qo'yish" yoki kishining mavjud psixologik holati va xususiyati haqida qaror qabul qilishni anglatadi. Psixodiagnostika – amaliy



jihatdan deyarli psixologning barcha faoliyat doiralarida, ya'ni psixologik-pedagogik tadqiqotlarda muallif yoki ishtirokchi sifatida qatnashayotganda, psixologik maslahat hamda psixologik korreksion ishlarni amalga oshirayotgan jarayonda qo'llanadi. Ammo, ko'pincha amaliy psixologning ishlarida psixodiagnostika faoliyatning alohida mustaqil turi sifatida namoyon bo'ladi. Uning maqsadi psixologik tashxis qo'yish, ya'ni kishini mavjud psixologik holatini baholash orqali ifodalanadi.

Ma'lumki, “Psixodiagnostika” ikki xil mazmunni o'z ichiga qamrab oladi. Birinchisi, ilmiy psixologik bilimlarni soha sifatida tadqiq etsa, ikkinchisi ularni amaliy qo'llanilishning maxsus jabhasini yoritib beradi. Psixodiagnostika psixologik bilimlar sohasi sifatida bir qator diagnostik metodlar tamoyillarini, amalga oshirish jarayonlarini va tekshirish usullarining ilmiyligini o'zida ifoda etadi. Amaliy soha sifatida esa, metodlarni amalda qo'llash bilan bog'liq bo'lgan professional bilim va ko'nikmalarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ikkala holatda ham insonning psixigik jarayonlari, holatlari va xususiyatlarini baholash usullari xususida fikr yuritiladi. “Nazariy psixodiagnostika” tadqiqot jarayonlarini ilmiy jihatdan asoslab bersa, “amaliy psixodiagnostika” ularni qanday qilib to'g'ri va ishonchli bajarishni ko'rsatib berishni nazarda tutadi. Zamonaviy psixologiyada psixodiagnostikaning juda ko'p turlari qo'llanilsa-da, ularning hammasini ham ilmiy jihatdan asoslangan, deb bo'lmaydi.

Bundan tashqari, ularning orasida tadqiqot hamda shaxsiy psixodiagnostik metodlar ham mavjuddir. Qayd etilgan so'ngi metodlardan o'rganilayotgan psixik xususiyatning sifatiy va miqdoriy xarakteristikasini baholash maqsadida foydalaniladi. Kishining psixik jarayonlari, holatlari va xususiyatlarini o'rganishga mo'ljallangan hamda ma'lum maqsadga yo'naltirilmagan tajribaviy ilmiy tadqiqotlar jarayonidan ishonchli natijalarni olish maqsadida qo'llaniladi. Psixodiagnostik va tadqiqot metodlari o'rtasidagi o'zaro tafovutni quyidagi ikki misol tariqasida ko'rsatish mumkin:



1-misol. Psixodiagnostik metod. Bu R. Kettelning 16 faktorli testi. U standartlashtirilgan so'rovnoma shaklidagi 187 hukmdan iborat bo'lib, 16 guruhga ajratilgan. Har bir guruh yordamida kishining alohida shaxsiy xususiyatlari baholanadi. Baholar standart ballar tarzida beriladi. Mazkur testdagi hukmlar, ko'rsatmalar, qo'llash usullari, natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish o'zgarmas bo'lib, har qanday testlashtirish holatida ham bir xilda qo'llaniladi.

2-misol. Tadqiqot metodi. Aytaylik, kishi xulq-atvorining biror ko'rinishini maxsus sharoitlarda kuzatishga mo'ljallangan tadqiqot loyihasi ishlab chiqilmoqda. Bu sizni qiziqtirayotgan xulq-atvor bilan bog'liq xususiyatlarni yanada yorqinroq namoyon etgan holda, ularni birma-bir o'rganish imkoniyatini bersin. Natijada, tadqiqotchi shu maqsaddagi tajribasi asosida, ya'ni uning ishtirokchilari yordamida xulq-atvorni kuzatish orqali sinaluvchining o'rganilayotgan xususiyatlari haqida xulosa chiqaradi.

Hozirgi vaqtda bir qator yetarlicha asoslangan psixodiagnostik metodikalar klassifikatsiyalari mavjud. Birinchidan, diagnostik metodlarni to'g'ri javob talab qiluvchi topshiriqlarga yoki nisbatan to'g'ri javob mavjud bo'lmagan topshiriqlarga asoslangan metodlarga ajratish mumkin. Birinchi guruhga ko'plab intellekt testlari, maxsus qobiliyatlar testlari, bir qator shaxsiy xususiyatlar testlar (misol uchun, Raven testi, Uitkinning yarim tobelik-yarim mustaqillikni aniqlash diagnostik protsedurasi, Luchins rigidlik testi va hk.) kiradi. Diagnostik metodikalarning ikkinchi guruhi u yoki bu javobning to'g'riligi bilan emas, balki faqat chastotasi (va yo'nalishi) bilan tavsiflanuvchi topshiriqlardan tarkib topadi. Bunga ko'plab shaxs so'rovnomalari misol bo'ladi (misol uchun, R. Kettelning 16 omil testi).

Ikkinchidan, psixodiagnostik metodikalarni verbal va noverbal metodikalarga ajratish mumkin. Verbal metodikalar u yoki bu tarzda sinaluvchining nutqiy faolligi vositasida ifodalanadi:



ushbu metodikalar tarkibiy qismlari xotira, xayol, ishonchlar tizimiga ularning tildagi shakli vositasida murojaat qiladi.

Noverbal metodikalar sinaluvchi nutqiy qobiliyatidan faqatgina instruksiyani tushunish maqsadida foydalanadi, topshiriqni bajarishning o'zi esa noverbal-perseptiv, motor qobiliyatlarga tayanadi. Psixodiagnostik metodikalar klassifikatsiyasi uchun foydalaniladigan uchinchi asos – bu muayyan metodika asosida yotuvchi asosiy metodik tamoyil xarakteristikasi hisoblanadi. Odatda ular ushbu asosga ko'ra farqlanadi:

1) ob'yektiv testlar;

2) standartlashgan hisobotlar, ular o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi: a) test-so'rovnomalar; b) natijalarni kontent-analiz qilishni talab etuvchi ochiq so'rovnomalar; d) Ch. Osgudning semantik differensial testi kabi tuziladigan shkalaviy texnikalar va tasniflash metodikalari; e) rolli repertuar panjaralar tipidagi individual yo'naltirilgan texnikalar;

3) proyektiv texnikalar;

4) dialogik (interaktiv) texnikalar (suhbatlar, intervyular, diagnostik o'yinlar).

Psixodiagnostik metodikalarning deyarli barchasida afzallik va kamchikillar mavjud. Quyida ularning ba'zilarining afzallik va kamchikillari bilan tanishib chiqamiz.

Proyektiv metodikalar klinik yo'nalishlarga ega bo'lgan o'ziga xos, turli-tuman psixodiagnostik vositalar guruhidir. Klinik yo'nalish deganda shaxsning anomal holatlarini aniqlash emas, balki xulq-atvorning individual uslubi, nizoli va boshqa holatlarda affektiv hissiyoti hamda kechinmalarni, shaxsning ongsizlik holatlarini aniqlashga qaratilgan metodikalar tushuniladi.

Proyektiv metodlarning kamchiliklari:

- natijalarni tavsiflashdagi subyektivlik;
- psixometrik talablarga to'liq javob bermasligi, ya'ni ularning yetarlicha ob'yektiv emasligi;
- retest ishonchlilik koeffitsientining yuqori darajada emasligi, validizatsiya qilishning murakkabligi;



• natijalarni tavsiflashda psixologik tayyorgarlik, psixologik bilimlarga ega bo'lish va metodikani qo'llash bo'yicha tajriba talab qilinishi.

Afzalliklari:

- informativligi yuqori;
- shaxsni global baholash imkoniyati;
- maqsadning noaniqligi (sinaluvchi diagnostik ko'rsatkichlarini tavsiflay olmasligi va ularni o'z xususiyatlari bilan bog'lay olmasligi;
- turli yoshdagi sinaluvchilar bilan ishlashdagi samaradorlik.

Umuman olganda, psixodiagnostik metodikalar shaxs va uning psixologik xususiyatlari, psixik taraqqiyoti, individualligini aniqlashda katta imkoniyatlar berib, ta'lim-tarbiyani to'g'ri tashkil etish borasida katta imkoniyatlar beradi.

Psixodiagnostik muammolarni hal qilish nuqtai nazaridan, instrumental psixodiagnostika usullari aniq afzalliklarga ega. Chunki ular qisqa vaqt ichida odam haqida ma'lumot beradi, individual shaxs xususiyatlarini miqdoriy va sifat jihatidan baholash va inson xatti-harakatlarini bashorat qilish imkonini beradi. Psixodiagnostika jarayoni bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Muammoni shakllantirish, imtihon topshiriqlariga mos keladigan usullarni tanlash, diagnostika ma'lumotlarini tekshirish, qayta ishlash, umumlashtirish, sharhlash, xulosani asoslash va hk.

Psixodiagnostik tadqiqot ma'lumotlari, geteropolyar tendensiyalar bir-birini normal tarzda qanday muvozanatlashini, muvozanatning yo'qligida shaxsiyatning o'tkir (ta'sirlangan) xususiyatlari qanday namoyon bo'lishini, qutb xususiyatlari bir vaqtning o'zida keskinlashganda ichki nomuvofiqlik qanday namoyon bo'lishini va ularning zo'ravonligi haddan tashqari ko'p bo'lsa, qanday qilib aniq ko'rsatib beradi, aksincha yuqoridagilar mutaxasis tomonidan qo'llanilgan metodika orqali mos kelmaydigan holatlar o'zini namoyon qiladi.

O'z vaqtida o'tkazilgan psixodiagnostik tekshiruv asosida psixoterapevt psixologik tuzatish va psixoterapiyaning individual dasturlarini ishlab chiqishi mumkin. Psixodiagnostika



psixoterapiya zarur bo'lgan muammolar doirasini aniqlaydi. Psixoterapiya kursi, bu holda, mijoz uchun eng muhim masalalarni hal qilishga qaratilgani samaraliroq bo'ladi. Psixologik fazilatlarini tan olish va o'lchash psixodiagnostik usullar yordamida amalga oshiriladi. Mijozning psixoterapiya markaziga murojaat qilgan muammosini hal qilishda tabiiy qiziqishi, hamkorlik qilishga tayyorligi psixodiagnostik tekshiruv natijalarining ishonchliligi va asosliliigi (ishonchliligi) shartlaridan biridir. Psixodiagnostik muammolarni hal qilishning ba'zi usullari:

1. Ob'ektni real sharoitlarda uzoq muddatli kuzatish. Buning uchun o'rganish maqsadini belgilash va kuzatilayotgan mulk haqidagi bilimlar yetarliligi.

2. Psixolog tadqiqot maqsadiga muvofiq respondent o'zini namoyon qiladigan vaziyatlarni yaratadi.

3. Psixodiagnostikaning instrumental usullarini qo'llash (testlar, o'z-o'zini hisobotlar, proyektiv usullar va boshqalar).

Ularning o'zaro ta'sirida barcha aqliy funksiyalarning rivojlanishi insonda bu dunyoning ichki aksi, qaysidir ma'noda bu dunyoning ichki modeli paydo bo'lishini ta'minlaydi. Empirik jihatdan ong uzluksiz o'zgarib turadigan hissiy va aqliy tasvirlarning to'plami sifatida namoyon bo'ladi, ular sub'ektning "ichki tajribasida" bevosita to'qnash keladi va uning amaliy faoliyatini kutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amaliy psixodiagnostika: usullar va testlar. – Samara: Baxrah-M, 2008. – 672 b.
2. Anastasi A. Psixologik test: tarjima qilingan nashr / A. Anastasi, S. Urbina. – Sankt-Peterburg: Pyotr, 2003. – 688 b.
3. Bolotova A. Amaliy psixologiya. / Darslik. – Moskva: Aspect Press, 2002. – 383 b.
4. Jalilova S. X., G'ayiboyeva N. A. Umumiy psixodiagnostika. / O'quv qo'llanma. – T.: Fan va texologiya, 2018.
5. Hayitov O. E. Psixodiagnostika. / O'quv qo'llanma. – T., 2007.
6. Majidov J. B. Sotsial intellekt va uning inson hayotidagi o'rni. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (2), 2022. – 608–613 p.
7. Мажидов Ж. Гендер установкaлари ва ижтимоийлашув жараёнининг ўзига хослиги. // *Involta Scientific Journal*. – 1(6). – 2022. – 69–77 p.
8. Мажидов Ж., Ҳамдамов Х. Шахсга структуравий ёндашишда қадриятларнинг ўрни. // *Involta Scientific Journal*. – 1(7). – 138–148 p.
9. Noss I. N. Psixodiagnostika [Elektron resurs]: darslik. – M.: Yurayt, 2011. – 439 c.



-
- 
-
10. Psixologik lugʻat. / Zinchenko V. P., Meshcheryakov B. G. tahriri ostida. – Moskva, 1990.
 11. Psixologiya: Lugʻat / V. Petrovskiy, M. G. Yaroshevskiy. - Moskva, 1990.
 12. Psixologik diagnostika: darslik / M. K. Akimova, K. M. Gurevich. / 3-nashr. – Sankt-Peterburg: Peter, 2008. – 652 c.
 13. Tyutyunnik E. I. Psixodiagnostika usullari dunyosi uchun qoʻllanma. – Sankt-Peterburg: Sharqiy Evropa psixoanaliz instituti 2012. – 192 b.



KITOB MA'NAVIY KOMILLIK VOSITASI

O'QUVCHILARDA KITOBXONLIK KO'NIRMASININI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI



Muxtasarxon G'ULOMOVA

*Asaka tumani 26-umumta'lim maktabi
ona tili va adabiyot o'qituvchisi*

El-manzil: muxtasarxongulomova@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kitob o'qishga qiziqtirish uchun adabiyot darslarida amalga oshiriladigan ishlar borasida so'z yuritiladi. Xususan, adiblarning so'z qo'llash mahorati va buning o'quvchilarni badiiy asarlarni anglash hamda ularga ijobiy munosabat shakllantirishga yo'naltirish usullari aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: hikoya, kitob o'qish, qiziqish, dahshat, ism ma'nolari, badiiy asar, ma'naviyat, "Jonli kitob", "Yosh kitobxon", mahorat.

Ma'lumki, bugungi kunda yosh avlod ma'naviyatini sog'lomlashtirish va yuksaltirishda kitob mutolaa qilishni ehtiyojga aylantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu shakllanib kelayotgan har bir shaxs uchun ma'naviy yuksalish tomon ulkan qadam sanaladi. Bugungi axborot texnologiyalari va aloqa-kommunikatsiya jarayoni jadal rivojlangan zamonda kitob mutolaasiga ehtiyoj paydo qilish oson kechmaydi. Hamonki bu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan ekan, bu, adabiyot o'qituvchilarining kasbiy hamda insoniylik burchi hisoblanadi.

Metodik adabiyotlarda e'tirof etilishicha, badiiy asarga muhabbat uning muallifiga nisbatan uyg'otilgan muhabbatdan boshlanadi: "Millatning ulug'lari o'z shaxsi bilan o'sib kelayotgan





avlod ma'naviyati shakllanishi va rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Yosh avlod ulug'lar shaxsi ko'magida o'z-o'zini tarbiyalashi uchun ularning shaxsiga xos sifatlarni bilishi, ulardan ta'sirlanishi, hayratlanishi va bahra olishi kerak.


Ulug'lardagi o'quvchini hayratga solgan, uni ta'sirlantirgan, havasini uyg'otgan sifatlar unga asta-sekinlik bilan “yuqa” boshlaydi. Hayrat va havas ta'sirida shoir yoki yozuvchi shaxsidagi o'quvchi tuyg'ularini junbushga keltirgan fazilatlar hech qanday tashqi zo'riqishlarsiz, pand-nasihatlarsiz o'quvchi shuuridan, ruhiyatidan joy ola boshlaydi [3, 160-b.].

Demak, adabiyot darslarida ijodkor hayoti va shaxsiga oid o'quvchilarda qiziqish va havas, muhabbat uyg'ota oladigan faktlarni qo'shimcha ma'lumot sifatida o'quvchilarga berish, o'sha ijodkorlar asariga bo'lgan qiziqishni uyg'otishga birinchi qadam bo'lishi mumkin. Adabiyot darslarida yozuvchilar biografiyasini o'rganishda muallif haqidagi ma'lumotlardan, qiziqarli hayotiy xotiralaridan foydalanish o'quvchilarda ularning asarlariga bo'lgan qiziqishni ham kuchaytiradi.

Yana shuni ham alohida ta'kidlash joizki, yozuvchi va shoirlar haqida boshqa atoqli kishilarning fikrlari ham o'quvchining muallifga bo'lgan muhabbati ortishida muhim rol o'ynaydi. Bu kabi vositalar adibning boshqalarga o'xshamaydigan qiyofasi va uslubi haqida o'quvchida yaqqol tasavvur uyg'otish uchun xizmat qiladi.

Yana bir muhim jihat o'quvchining kitobxonlik didini shakllantirib olishdir. Buning uchun o'quvchi badiiy so'z qudratini his qila olishi kerak. Bunga adabiyot darslarida badiiy asarlarning o'quv-didaktik tahlillari orqali erishiladi. Demak, ko'p jihatdan kitobxonlikni shakllantirish biz adabiyot ustozlariga bog'liq.

O'quvchilarda kitob o'qishga bo'lgan mehrni, qiziqishni uyg'otishning amaliy namunasi sifatida shuni aytishim mumkinki, men adabiyot darsida Abdulla Qahhor asari tahlilini uning so'z qo'llashdagi mahoratini ochib berishdab boshlayman [1, 10–17-b.]. Chunki, Abdulla Qahhor so'zning qudratini asarlarga yuksak darajada singdira olgan o'zbek adabiyotining darg'asi hisoblanadi.





Yozuvchining oz soʻz bilan ulkan maʼnolarni ifodalay olish mahorati yuksakligini uning asarlari misolida koʻrish mumkin.

Shu oʻrinda Abdulla Qahhorning umr yoʻldoshi Kibriyo Qahhorovanning: "Biror yozuvchi yoki shoir oʻzbek tilining nazokatini buzsa, ming yaqin, jonajon doʻsti boʻlsa ham uni ayab oʻtirmasdi. Abdulla Qahhor faqat oʻzigagina emas, hatto tengqurlari, qalamkash doʻstlariga nisbatan ham talabchan edi. Eng avvalo, oʻzi yozadigan har bir soʻzni fikr tarozusida obdon oʻlchardi"[7, 14-b.] tarzidagi xotiralarini keltirish oʻrinli boʻladi.

Masalan, adibning asar qahramonlariga xos boʻlgan juda koʻp jihat va fazilatlarini ularning ismlari orqali ifodalash mahoratini uning "Oʻgʻri" hikoyasidagi Qobil bobo timsolida koʻrish mumkin. Qobil yuvosh-moʻmin degani. Yozuvchi asarning biror joyida uni boʻsh, bayov, yuvosh deb taʼriflamaydi. Lekin bu ism uning tabiatiga naqadar mos. Hikoyaning bosh qahramoni Qobil bobo oʻzining har bir xatti-harakati bilan ismiga mos odam ekanini payqash mumkin. Men bu xususiyatlarni oʻquvchiga savollar berish orqali ularning oʻzlariga kashf ettirgizaman.

Yoki "Dahshat" hikoyasini olaylik [2, 87-b.]. Hikoyada Olimbek Dodho katta xotini ismi Nodirmohbegim, eng kichiginiki esa Unsin. Nima uchun aynan shunday ismlar tanlangan? Bu yerda yozuvchining mahorati nimada aks etgan? Gap shundaki, bu dodho dastlab boy xonadon qiziga, eng soʻngida esa kambagʻal oilaning qiziga uylangan. Mantiqan juda toʻgʻri, sakkizinchi xotinlikka faqat "qizim bekamu koʻst yashasin" deb kambagʻal oila qari amaldorga uzatadi qizini. Oʻsha davrlarda Unsin ismi faqat kambagʻal oilalarda "bolam unib-oʻssin" degan maqsadda qoʻyilgan. Yozuvchining mahoratini qarangki, hikoyada hech kimning ijtimoiy ahvoli va kelib chiqishi haqida, yaʼni boy kambagʻaligi borasida hech bir gap yoʻq. Lekin ismlar gapiryapti. Mana shu badiiy soʻz qudrati, yozuvchining soʻz tanlash va qoʻllashdagi mahorati hisoblanadi.

Bundan tashqari, "Dahshat" hikoyasida yozuvchi biror joyda "qabrison" soʻzini ishlatmaydi, uning oʻrniga sovuqdan-sovuq qilib "goʻriston" deb keladi. Bu yozuvchining soʻzdan mohirona foydalanishidan, shu "goʻriston" soʻziga katta bir badiiy maqsad



yuklanganidan dalolatdir. O‘quvchilar o‘ylab ko‘rishadi: qaysi biri yumshoq: qabristonmi, go‘ristonmi? Asarning nomi ham, mazmuni ham “dahshat”. Bu dahshatni o‘quvchiga his qildirish uchun yozuvchi qabriston emas, aynan go‘riston so‘zini ishlataganki, bu bilan hikoyaning dahshatlik tomonini bo‘rttirishga erishgan.

Umuman olganda, Abdulla Qahhor asarlaridagi har bir so‘zga badiiy ma‘no va maqsad yuklatilganini ko‘rish mumkin. Agar asarlar o‘quvchilar bilan shu zaylda tahlil qilinsa, badiiy so‘z qudrati teran anglashiladi. So‘ng o‘quvchilarda kitobxonlik didi shakllanadi. Asarlarni chertib o‘qiy boshlashadi va teranroq anglay olish ko‘nikmalariga ega bo‘la boshlaydilar.

O‘quvchilarda kitobxonlik ko‘nikmasini rivojlantirishning yana bir usuli sinf rahbari va ota-ona hamkorligi hisoblanadi. Ota-ona majlislarida turli xil so‘rovnomalar tashkil etish, unda kitob haqida savollar bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Ota-onalar farzandlarini kichikligidan kitobga oshno etishi zarur. Ota-ona farzandiga go‘daklik davridan boshlab, bolalar kitobchalarini o‘qib berishi, keyinchalik yoshiga mos bo‘lgan adabiyotlarga o‘tishi kerak bo‘ladi. Uyqudan oldin bolasiga kitob o‘qib berayotgan ota-onaning ovozi eshitish bolaga rohat bag‘ishlaydi va shu bilan bir qatorda bolada kitobga bo‘lgan muhabbat shakllanib boradi.

Bolalar ota-onadan namuna oladilar. Agar ota-onaning o‘zi muntazam kitob mutolaa qilsa, oilada turli kitoblar to‘g‘risida tez-tez oilaviy suhbatlar tashkil etilsa, kitobdan olingan zavqning qanchalar yoqimli ekani ko‘rsatilsa, farzandlar ham albatta kattalarga ergashadilar. Kitob o‘qish asta-sekin farzandlarning ham sevimli mashg‘ulotiga aylanib boradi.

Bolalarni kitobga qiziqtirish uchun ularning yoshiga mos asarlarni taklif qilish joiz. Agar farzand biror multfilmni yaxshi ko‘rsa, o‘sha film uchun asos bo‘lgan kitobni o‘qishni tavsiya qilish kerak bo‘ladi. O‘qish davomida film bilan kitob o‘rtasidagi farqlarga e‘tibor qilishini eslatib qo‘yish bolani fikr kishisiga aylanish kechimiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.



Ba’zi bolalar badiiy adabiyotlarni yoqtirishmaydi. Ularga turli xil ensiklopediyalar qiziqroq. Bola nimani xohlasa, o’shani o’qishiga qo’yib berish kerak bo’ladi.

Shuningdek, farzandi bilan kitob do’koniga borish, unga kitob tanlash imkoniyatini berish ham bolada faoliyat va tafakkur mustaqilligining shakllanishiga yordam beradi.

Farzandida doimiy ravishda kitob o’qish ko’nikmasini shakllantirishni istagan ota-ona haftasiga kamida bir marta kutubxonaga birga borishi, shoshmasdan kitoblarni birgalikda ko’rib chiqishi, birgalikda tanlashi va birgalikda o’qishi kerak bo’ladi.

Ota-onalar vaqtlarini ayamadan, farzandiga har kuni kitob o’qib bersalar, farzandlar ham asta-sekin muntazam va mustaqil tarzda kitob mutolaa qiladigan bo’ladilar. Kitobxonlik uning hayotiga aylanadi. Bu haqda ota-onalar yig’ilishlarida kattalarga batafsil ma’lumot berish, darslarda uyda o’qilgan asarlar yuzasidan suhbatlar tashkil etish bu jarayonda yaxshigina samira beradi.

O’quvchilarda kitobxonlik ko’nikmasini rivojlantirish bilan bog’liq navbatdagi tavsiya sinf soatlarida “Kitob taqdimoti” yoki “Jonli kitob” metodidan foydalangan holda mashg’ulotlarini o’tkazishdir.

Buning uchun o’quvchilar yoshiga qarab har oyda bittadan badiiy adabiyot o’qish uchun tavsiya etiladi. O’quvchilar bilan birgalikda tanlangan biror asar qismlarga bo’linadi va ularga bo’lib beriladi. Yoki har bir o’quvchiga alohida-alohida kichik hajmli asarlar beriladi. Eng muhimi, kitob bir oy ichida o’qib bo’lishnishi lozim.

Har oyda bir yoki ikki marta sinf soatlarida «Kitoblar taqdimoti» o’tkaziladi. Har bir o’quvchi o’zi o’qigan kitob yoki bobning taqdimotini qilib beradi. Bunda o’quvchi asardagi voqeliklar rivoji, qahramonlarning xatti-harakatlari, tutumlari haqida gapiradi. Va asarning tub mazmun-mohiyatini tushunarli hamda qiziqarli qilib so’zlab beradi, munosabat bildiradi. Shu tariqa boshqa o’quvchilar bu asarga qiziqib qolishlari va bir-birlarining kitoblarini almashib o’qishlari mumkin.



Taqdimot jarayonida kitobxon o‘quvchi nutq madaniyatini ham o‘zlashtira boradi. O‘zini tutish, chiroyli gapirish, so‘zlardan o‘rinli foydalanish kabi qobiliyatlari rivojlanadi. Eng asosiysi, omma oldida nutq so‘zlashga o‘rganadi. Asta-sekinlik bilan fikrlar tartibga solinadi. O‘quvchida so‘zdan o‘rinli foydalanish va xatosiz yozish ko‘nikmasi ham shakllana boshlaydi. Chunki kitob o‘qish ham og‘zaki, ham yozma nutqni takomillashtiradi.

Ko‘pchilik o‘quvchilarda, hatto ayrim o‘qituvchilarda ham nutq so‘zlash bo‘yicha turli noqulayliklar bo‘ladi. Kimdir uyaladi, yana kimdir so‘z boyligi kamligidan noliydi. Bolalarda yoshligidan bu muammoni bartaraf etib borish kitob o‘qish asnosida amalga oshiriladi.

O‘quvchilarda kitobxonlikni yanada rivojlantirish maqsadida maktabda bir oyda, kerak bo‘lsa, har ikki haftada “Yosh kitobxon” Ko‘rik tanlovini o‘tkazish kerak bo‘ladi.

Quyida mazkur tadbirni tashkil etish ssenariysini namuna sifatida taqdim etiladi:

“Eng yaxshi kitobxon” ko‘rik tanlovi ssenariysi

1-boshlovchi:

Men shunda tug‘ildim, ko‘rdim dunyoni,
Hayotga ilk qadam qo‘yganman shunda.
Tilim nutq tanidi, ko‘zim ziyoni,
Mehr va erk bilan yashadim kunda.

2-boshlovchi:

Go‘dak tushunchamda Vatan deb bildim,
Ko‘zni qamashtirgan ko‘m-ko‘k bog‘ingni.
Ko‘rganda qirg‘oqdan ketolmay qoldim,
Oyga ko‘zgu bo‘lgan sof bulog‘ingni.

1-boshlovchi:

Tongda bulbul xonish qilganda,
Meni maftun etdi ajib bir hayot.
Nihol soz tutqazding mening qo‘limga



Qo‘shig‘im tug‘ilib chiqardi qanot.

2-boshlovchi:

Faqat seni dedim, qalb qo‘shig‘ini,
Ey, aziz Vataim, atadim senga.
Sen hur bo‘lganing-chun nafasim hurdir,
Hayotim lazzatli, baxt yordir menga.

1-boshlovchi:

Assalomu alaykum, aziz kitobsevar do‘stlar!

2-boshlovchi:

Assalomu alaykum, aziz ustozlar!

1-boshlovchi:

Inson uchun aziz va mo‘tabar go‘sha Vatandan yaxshi ma‘vo
yo‘qdir. Zulfiyaxonim aytganidek, uning mehri, ishq bilan ovoqimiz
yangroq, to‘liqdir.

2-boshlovchi:

Bolaligimizdan ilm-ziyoga oshno bo‘lib, go‘zal fazilatlar sohibi
bo‘lsak, demakki biz hayot ishq bilan yashamoqdamiz.

1-boshlovchi:

Allomai zamon, mutafakkir Alisher Navoiy “Dunyoda
kitobdan aziz do‘st yo‘qdur” deganda ming bora haqli edi. Zero,
kitob – dunyo tilsimining kaliti, aql chirog‘i.

2-boshlovchi:

Biz ta‘rif etgan ajib sifatlar kitoblarda o‘z aksini topgan.
«Kitob» so‘zi nimadir?
Kitob o‘zi nimadir?
Qani buni kim bilar?
Kitobga mehrin berar.





1-boshlovchi:

Kitob – eng aziz olam.

Kitob – Vatan, xonamiz.

Kitob – do‘st, yo‘ldoshimiz.

2-boshlovchi:

Qadrli kitobxon do‘stlar, yoshlarning kitobga muhabbatini oshirish, boy ma‘naviy merosimizni asrab-avaylash, yoshlar ongida milliy g‘urur, iftixor tuyg‘usini shakllantirish maqsadida bugungi Ko‘rik-tanlovimizni o‘tkazmoqdamiz.

1-boshlovchi:

Ko‘rik-tanlovimizda 6-“A” va 6-“B” sinflarning kitobxon o‘quvchilari o‘zaro bellashadilar.

2-boshlovchi:

Birinchi shartimizda kitobxonlar ona tilimizni madh etadilar. Ko‘rik-tanlov ishtirokchilarini baholash uchun hakamlar hay‘ati tuzilgan. Marhamat, tanishing...

1-boshlovchi:

Navbatni birinchi shartga beramiz. Bu shartda har bir guruh a‘zolariga o‘ntadan savol beriladi.

(Bu shartda savollar bolalarning sevimli kitoblari “Sariq devni minib” va “Sariq devning o‘limi” asarlari asosida bo‘ladi).

2-boshlovchi:

Ma‘naviyat! Ne sehsan, ne mehr,

Sening bilan ko‘ngil topar halovat!


Sehr-u ishqing ila yonib bir umr,

Seni deb yashar jon, seni deb faqat.

1-boshlovchi:

Sen mo‘jizabaxsh bunda ham dilkash,

Inson yuragiga to‘lgan paymona.





Ne nursan, ne ziyo jonga hayotbaxsh
Qalb tinmay talpinar senga parvona.
(Birinchi shart bajarildi).

2-boshlovchi:

Tanlovimizning 2-sharti “Sariq devni minib” asari yuzasidan tuzilgan krassvordlarni yechishga bag‘ishlangan.

1-boshlovchi:

Guruhlar vakillari krassvord yechgunlariga qadar, yosh iste’dodlar bilan tanishamiz (ijodkor o‘quvchilar qo‘shiq va raqslar namoyish etadilar).

2-boshlovchi:

Qay-u vasfing deyay xalqim,
O‘zing har ishda mohirsan.
She’riyatda Navoiy, Hamza,
Oybek balki Bobursan.

1-boshlovchi:

Tibbiyot, ilmi nujum, ilm-u hikmatda jahongirsan,
Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek, Abduqodirsan.
(Ikkinchi shart ham bajarildi).

2-boshlovchi:

Uchinchi shartimizda ishtirokchilar o‘zlarining sahna ko‘rinishlarini namoyish etadilar. Marhamat!

1-boshlovchi:

Balki chaman bo‘lar, dashti Karbalo,
Balki behisht mavjud yulduzlar aro.
Mening O‘zbekiston Vatanim bordir,
Ularning baridan a‘loroq, a‘lo.
(Uchinchi shart ham bajarildi).





2-boshlovchi:

Aziz va muhtaram o‘quvchilar! Ko‘rik-tanlovning eng hayajonli onlari yetib keldi. Eng faol kitobxonlarimizni, eng yaxshi kitobxonlarimizni aniqlaydigan payt ketib keldi.

(Hakamlar g‘oliblarni e‘lon qiladilar va mukofotlaydilar).

1-boshlovchi:

Mana, tadbirimiz ham nihoyasiga yetdi. Kitobga oshnolik esa sizni bir umr tark etmasin! E‘tiboringiz uchun rahmat!

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarni kitob o‘qishga yo‘naltirishda o‘qituvchi-o‘quvchi hamkorligi va ota-onalar ko‘magi, barchaning bir maqsad atrofida birlashishi o‘ziga xos samarani berishi aniq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot. 6-sinf uchun darslik / Z. I. Mirzayeva, K. Q. Djalilov. – T.: Respublika ta’lim markazi, 2022.

2. Yo‘ldoshev Q., Qosimov B. Adabiyot: Darslik-majmua: 7-sinf uchun. – T.: „O‘qituvchi“, 2000.—384 b.

3. Husanboyeva Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi / Ikkinchi kitob. – T.: Metodist nashriyoti, 2023. – 400 b.

4. Абдулла Қаҳҳор замондошлари хотирасида. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 196 б.

5. Қаҳҳор А. Ўтмишдан эртақлар. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1988. – 114 б.

6. Қаҳҳорова К. Чорак аср ҳамнафас. – Т.: “Ёш гвардия” нашриёти, 1987. – 96 б.





Abdusalol RAHIM

Abdusalolr@mail.ru



**YO'LDA KETAYOTGAN ODAM
hikoya**

Qishloqqa, singlimnikiga bormoqchi edim. Mashina izlab bekatga chiqdim. Yo'l chetida qirmiz rang "Jiguli" turardi. Mijoz kutayotgan ozg'in, kalta mo'ylovli haydovchini tanidim: u Narzilla. Yoshi, chamasi qirq beshlarda. Yuziga taram-taram chiziqlar tushgan. Tajang fe'lidanmi... Uch-to'rt marta mashinasiga minganman. Bir qarasang, rulni changallaganicha, mum tishlaganday indamaydi. Hushi kelsa ochilib-sochilib gaplashadi. G'alati yigit. Lekin, ko'ngli toza. Yo'l haqigayam talashmaydi. Berganingni olib, rahmat aytib ketaveradi.

Narzilla meni tanib, mashinadan chiqdi.

— Keling, aka, — dedi. — Qishloqqami?

— Bo'shmisiz?

— Ha-da! — U kabinaga o'tirib, yonidagi eshikni ochdi. — Anchadan beri qoqqan qoziqde-yek turibman. Kliyent yo'q.

Men mashinaga o'tirdim. Narzilla dvigatelni o't oldirdi. Bilak tomirlari bo'rtgan qo'lini rulga urib qo'ydi:

— Ketdik-da!

"Jiguli" joyidan qo'zg'aldi. Peshonasiga tushgan bir tutam "o'jar" soch, yo'lga tikilgan chaqmoqdek ko'zlar, egnidagi yengi kalta qizil katak ko'ylak chapanicha ko'rinish berib tursa-da, mashinani qonun-qoidasi bilan haydadi. Biz mahallani kesib o'tadigan tor ko'chaga burildik. Yo'lning chap tarafida munkaygan qariya sekin-asta ketib borardi. Boshi og'irlik qilgandek bo'yni bukchaygan. U juda sekin, bosaymi-bosmaymi, deb himo bilan yurardi. Yetay deganimizda Narzilla mashina signalini bosdi. Chol



cho‘chib qaradi. “Jiguli” tor ko‘chadan sekin borardi. Cholning sovuq, nursiz ko‘k ko‘zlari biz tomonga tikildi. Men uni bilardim: bu, Bozorvoy aka, shu mahallada yashaydi. Ko‘pchilik undan o‘zini olib qochadi. “G‘iybatchi”, “tili bilan yuradi”, “qarib quyilmagan”, degan yorliqlari bor. “Qariganda shu ko‘yga tushmasinda, odam”, deb qo‘ydim o‘zimcha.

— He, onangni..., haliyam o‘sha-o‘sha yurish-a! — Narzilla yomon so‘kindi.

Men uning bunday so‘kingagini eshitmagandim. Ajablanib qaradim... Qarichilikdir, aynib qolgandir, deymiz bunday paytda. Keksa odamni so‘kish... Narzilla xayolimdan o‘tgan gapni sezdi:

— Aka, uzr, so‘kinib yubordim, — u xijolat bo‘ldi. — Lokin, bu iplosni ko‘rsam jinim qo‘ziydi, portlab ketaman-da!

Uning ovozi titrab chiqdi. Chuqur-chuqur nafas oldi. Qizil katak ko‘ylagining ko‘krak cho‘ntagidan bitta sigareta chiqardi.

— Maylimi?

— Chekavering, — dedim.

Narzilla sigaretini tutatib, kabina oynasini ochdi. Bosib-bosib tortdi.

— Aka, bu maraz bir ayolni hayotini buzgan! Meni ishimdan ketkazdi, nomimni bulg‘adi!.. Umrimda birovni xotiniga ko‘z qisgan yigitmasman. Tepamda Xudo turibdi. Bu!.. Mana shu qildi hammasini!

Biz tuman markazidan chiqa boshlagandik. Kabina oynasidan yengil shabada kirdi. Narzillani o‘z holiga qo‘ydim. Sigaret tutunini ochiq oyna tomonga puflab, yo‘lga tikilganicha borardi. Ko‘chadagi ariq roshlariga qator qilib terak ekilgan. Oqlangan, shifer tomli uylar ham orqada qoldi. Biroz yurgach, dala yo‘liga chiqdik. Ikki tomon tutko‘chat. Ortida, g‘o‘zasi belga urgan dalalar. Zovur ko‘prigidan o‘tdik. Tepaga ko‘tarilganimizda Narzilla yana tilga kirdi. Yigirma yillar avval boshidan o‘tgan voqeani hikoya qila boshladi.

* * *

— O‘shanda yigirma beshda edim, — mamnun jilmaydi u. — O‘ylaysizki, men har doim sho‘pir bo‘lganmanmi?.. Yo‘-o‘q, savdo



sohasiga o'qiganman, diplomim bor. Avval yordamchi, keyin sotuvchi bo'ldim. Bizniki aralash mollar do'koni edi. Halol ishladim. Ishonmaysiz-a? Bo'rini og'zi yesayam, yemasayam qon-da, a? Ammo-leki-in hamma birdekmas, aka. Otam, halol bo'l, Xudo barakangni beradi, deb nasihat qildilar. Ishga kirganimning uchinchi yilida zavmagimiz Hojiakbar aka idoraga ishga o'tdi. O'rniga meni qoldirdi. Uyam insofli odam edi. Taroziidan urmasdik. Qolgan ushug'iyam yetib-ortardi. Planni doim oshirib bajarganmiz. Oylik, shunga qarab yaxshi chiqardi. Do'kon o'zimga qoldi. Qattiq harakat qildim. Eplab ketdim.

Idorada yomon gap eshitmadim. Hisobotni Nozima degan hisobchiga topshirardim. Nozima bilan yoshimiz teng. Bir-birimizni ismimiz bilan chaqiramiz. Har kelganimda bitta plitka shokoladmi, hind choyimi olib kelaman. Xudoga shukur, ko'nglim o'zimga to'g'ri. Bizda, ayol bilan do'stmiz, desang boshqacha tushunishadi. U haqida yomon xayolga bormaganman. Aqlli, shirinso'z edi. Xotinim ham shunday bo'lsaydi, degan o'y kelgan xayolimga. Bu bir havas-da, yaxshi ma'noda. Uning ikki farzandi bor. Eri ishchi edi. Boya aytdim-ku, ko'nglimda zig'irchayam egrilik yo'q, deb. Uylanganman, xotinimni yaxshi ko'raman. O'g'ilchamiz emaklab qoldi. Tashvish yo'g'idi, aka. O'sha yaramas ko'p ko'rdi hammasini.

Bozorvoy idoramizda bo'lim boshlig'i edi. Uzr, yoshi katta insonsiz, tushuning, men uni “aka” deyolmayman. Eshiting-da, o'zingiz xulosa chiqarasiz...

Narzillaning shundan keyingi hikoyasi bexosdan kelgan dahshatli zilziladek aqlu hushimni oldi. Odamga yomonlik qilish oson ekan-da? Yo tavba! Bir og'iz gap-a?! Lekin, uni botinib aytishga qora yurak kerak. Ko'mirdek qop-qora yurak!

— Bir kuni idoraga kelsam, Nozima o'rnida yo'q, — yo'lga tikilganicha davom etdi Narzilla. — Xonadagi qizlar g'alati qarashdi. Keyinroq kelarman, deb tashqariga chiqdim. Lotokariqdan sakrab o'tayotgandim. Yelkamga birovning qo'li kelib tushdi. Kuchsiz qo'l urgandek, chimchilagandek bo'ldi. Orqamga o'girilib, dahshatdan haykaldek qotib qoldim! Tizzam qaltiradi,



tomog'im qaqradi. Yuragim orqaga tortib, kalovlandim. Oq nuqtalari bor belburma qizil ko'ylakli ayol hissiz ko'zlari bilan tikilib turardi. Labi shishib, do'rdiyib qolgan. Ko'zlarining atrofi, qovoqlari ko'kargan. Yonoqlaridagi qontalash jarohatlar uni rosa do'pposlashganidan dalolat berib turardi. Xudo ursin agar, shu paytda bu yoqimsiz basharani tanimadim. Ilkis xayolimga ichib yuradiganlardanmi, degan o'y keldi. Shu payt ayolning ko'zlarida bir ma'no paydo bo'ldi. Bu qarash tanish, juda tanish, qadrdon edi! Beg'am, jaydari yuragim qalqib ketdi! Tanidim! Bu..., bu... Nozima edi!!! Uning serma'no ko'zlari savol, ta'na, g'azab bilan qarab turardi.

— Narzilla! Erkakmisiz?! — dedi u o'zinikiga o'zshamagan g'alati ovozda.

“Erkakmisiz?!”. Bu, men umrim bo'yi eshitgan haqoratlar, so'kishlar ichida eng achchig'i! Yigitlik g'ururimni chilparchin qilib yerga uradigan so'z edi. Beixtiyor titradim, qaqshadim! Qo'llarim o'z-o'zidan musht bo'lib tugildi!

— Nozi-ma?! — dedim tishimni g'ijirlatib.

O'zimning ovozimni taniyolmay qoldim. Qattiq qimtilgan lablarimdan ilonnikiga o'xshash vishillagan tovush chiqdi... Tushuntirib berolmayman... “Erkakmisiz?!”, degan haqoratli so'z meni qaynab turgan suvdek ko'pirtirib yuborgandi. Ikkinchi tomondan Nozimaning ayanchli ko'rinishi, ahvoli yuragimni larzaga soldi. Bu o'sha, men bilgan Nozimami?! Uni kim bunday ahvolga soldi?

— Nima gap?! — deyoldim angraygancha.

— Nima gapligini Bozorvoy akadan so'rang! Nimalar degandingiz, unga?!

Nozima ikki qo'lini yuziga bosib yig'lab yubordi. Men hamon nima gapligiga tushunolmay aftodahol turardim. Qandaydir nihoyatda yomon voqea yuz bergandi. Unga iltijoli tikildim:

— Tushuntirib gapiring, Nozima?!

— Kimga, nima degansiz men haqimda?

— Hech kimga, hech nima..., — dovdirab qoldim.

— Unda... Bozorvoy aka nega?..



Nozima o'ksib-o'ksib yig'lay boshladi. Unga achinib ketdim. Endi meni vahima bosdi.

— Nima, Bozorvoy aka? — dedim xunobim oshib.

— Erimga... bizni, o'ynash, debdi!

Men Nozima chekkan jabrning sababini tushuna boshladim: Bu, Bozorvoy aka! Yana o'sha! Idoramizda nechta odamni zir titratgan bu yaramas. Xotinchalish!

Men yosh bo'lsam ham mana shularni mushohada qila olardim. Aka, oradan shuncha yillar o'tdi hamki, o'sha kunni eslasam tanamda titroq turadi!

U jim bo'ldi. Men bu yigitning hikoyasiga ichu tashim bilan sho'ng'ib ketgandim. Voqea nima bilan tugashiga shu darajada qiziqardimki, Narzillaning taqdiri mening ham taqdirimga aylandi go'yo. U esa, qayta junbushga kelgan hissiyotlarini bosib olmoqchidek biroz tin oldi. “Sho'rlik Nozima! Shu kunlar peshonasiga yozilganmi? — xayol surayotgandek pichirladi u. — Eri bir og'iz gapga ishondimi? O'ynashmish! Axir, Nozimadek pokiza ayol haqida bunday xayolga borishning o'zi gunoh-ku?! Yolg'onga ishontirish shunchalar osonmi? G'irt yolg'on, tuhmatku bu?!”

— Men Nozimani ovutish uchun so'z topolmasdim, — ovozini balandlatib davom etdi Narzilla. — Nima ham derdim? Hammasini to'g'rilayman, deymi? Lekin, qanday qilib? Eri bu tuhmatga ishongani aniq. Bo'lmasa, xotinini shu ahvolga solib do'pposlarmidi? Balki...tushuntira olarman... Baribir ko'nglida shubha-gumon qoladi. Ajrashib ketishsa-ya?! Yo'q, u eri bilan ajrashmasligi kerak! O'rtada ikki bola bor. Uvoli tutmaydimi, anavi iflosni! Nimani o'yladi? Nega bunday qildi? Nima qasdi bor menda? O'zimga aytmaydimi?!

Miyam qotib qolgandi. Nozimani shu yerda qoldirdim-da, qaytib idoraga kirdim. Ko'zimga hech nima ko'rinmasdi. Yo'lakda uchragan tanishlargayam qaramadim. Menga Bozorvoy kerak edi! Yaramas, shilliq qurt! Uni borki haqoratli so'zlar bilan la'natlardim.

Shu ahvolda xona eshigiga qo'l yubordim. U to'rdagi stolda bezrayib o'tirardi. Eshikni ochganimda ko'k ko'zlarini menga



qadab surbetlarcha tikildi. Ichimdagi gapni o‘qib olmoqchidek kiprik qoqmay tikildi. Men yosh edim. Nimagadir, biroz bo‘shashdim.

— Ha?!—dedi u holatimni sezib. — O‘ynashingni himoya qilgani keldingmi?!

Men nima deyishimni bilmay qoldim. Botiniy g‘azab, alamimni tashimga chiqarolmay qiynaldim! Nozimani, o‘zimni qanday oqlab olishim mumkin? Buni bilmasdim. Yo‘l topolmay qiynaldim. Kuchli bir bomba portlagan-u, quloqlarim bitgan. Quloqlaringina emas, miyam ham qotib qolgandi go‘yo. Nima qilish, nima deyishimni bilmasdim. Aqldan g‘azab ustun kelganda shunday bo‘ladi. Bu yaramasning qilmishi hech bir qolipga sig‘masdi. Ko‘zimdan olov chiqsa-yu, uni yondirib-kuydirib jizg‘anagini chiqarib yuborsa!

— Ilonga o‘xshab o‘qrayma! — dedi.

Men qarshimda eng yovuz dushmanimni ko‘ra boshlagandim:

— Sen ilonsan! — dedim ichkariga bir qadam tashlab.

U o‘rnidan sapchib turdi:

— Yo‘qol! — dedi eshikni ko‘rsatib.

— Yo‘qolaman!

Eshikni zarb bilan urib chiqib ketdim. Lekin, oldinda meni katta sharmandalik kutardi. O‘ylab ko‘ring: birovning xotiniga, erlik ayolga ko‘z olaytirishdan ortiq sharmandalik, tubanlik bo‘ladimi?! Bunday gunohga qo‘l urgandan ko‘ra eng baland tog‘dan qulab parcha-parcha bo‘lganing yaxshi emasmi?! O‘zganing jufti haloliga qiyo boqqandan ko‘ra o‘zingni ko‘pirib-toshayotgan dengizga otib, nafs olovini o‘chirganing, suv ostidagi tubsizlik sendek nomardga qabr bo‘lgani ming bora afzal-ku!

Tashqarida qiy-chuv ovozlari eshitildi. Chiqqanimda, ne ko‘z bilan ko‘rayki, Nozimani eri sochidan ushlab urardi! Bir yigit bilan bir qiz qichqirgancha ularni ajratishga urinishmoqda. Menda go‘yo qanot paydo bo‘ldi. O‘zimni o‘sha tomonga otdim:

— To‘xta! Yolg‘on hammasi! — dedim g‘azabdan vahshiyga aylanib ketgan yigitga.

U Nozimani qo‘yib yuborib, men tomonga o‘girildi:



— Hali senmi, xotinim bilan o'ynashadigan errayim?! — deb o'kirganicha otildi.

Yuzimga zarb bilan tushgan mushtdan ko'z oldimda chaqmoq chaqnadi! Ko'zimni yumib oldim. Ochganimda, qonga to'lgan vahshiy nigoh g'ajib tashlagudek nafrat bilan tikilib turardi. Bolalikda mushtlashib katta bo'lganmiz. Men ham o'z-o'zidan unga tashlandim. Qanday kalla qo'yganimni bilmay qoldim. U qo'rg'oshinli qo'g'irchoqdek qalqib ketdi. Lekin, yiqilmadi. Bir-birimizni yoqamizdan olib yerga dumaladik. Uning alami kuchli edi. Jon-jahdi bilan musht tushirardi. Men g'ofil ham undan qolishmadim. Yuz-ko'zimiz qonga belandi! Ko'ylaklarimiz pora-pora bo'ldi! Atrofda yig'ilgan izdihom tomoshabin edi. Bir-ikki yigit bizni ajratishga urinardi.

Kimdir xabar qilibdi, militsiya mashinasi yetib keldi. Ikkalamizniyam olib ketishdi. Piyonistalarni terib yuradigan mashinaning temir qutisida o'tirib, ancha o'zimni bosib oldim. Nozimaning eri shu yerdayam bir-ikki tashlandi. Formadagi yigitlar bosib qo'yishdi.

Ichki ishlar bo'limida obdon surishtirishdi. Idoramizga ham kirib chiqishgan ekan. Men bor gapni aytdim. Lekin, Nozima bilan o'rtamizda hech gap yo'qligiga odamlarni ishontirib bo'lmasdi. Yaramas Bozorvoyning g'iybatlari ustun keldi. Jinoyat ishi ochishmadi. Arz qiluvchi yo'q edi-da. Nozimaning eri mum tishlagandek jim bo'lib oldi. Uni qo'yib yuborishdi. Menga o'n besh sutka berishdi.

Ko'cha supurib, ul-bul ishlarni qilib yuraverdim. Dilgirligim ancha bosilgandek edi. Faqat, bechora Nozimani o'ylab siqilaman. "Nima bo'ldi ekan? — degan o'y tegirmon toshidek ezadi. — Eri haqiqatni tushundimi? Ahmoqqa o'xshamaydi. So'rab-surishtirgandir, axir!". Begunoh ayolning kaltakdan shishib ketgan yuzi ko'z oldimga kelsa, ingrab yuboraman...

Oradan uch kun o'tdi. Oldimga Hojiakbar aka keldi. O'sha, o'zimning ustozim! Endi u idoramizda rais o'rinbosari edi. Ko'rinishi xotirjam. Qarashlaridan g'azab ham, ta'na ham sezmadim.



— Shu ish bo‘lmagan-a? — dedi tikilib turib.

— Yo‘q, — dedim boshimni chayqab.

— Menga qara, Narzilla, senga ishonaman!

Unga tikilib qoldim. Ko‘zimga farishtadek ko‘rindi. “Ishonaman”, dedi-ya! Bu, men alam-iztiroblar ichida yashagan so‘nggi kunlarda eshitgan birinchi iliq so‘z edi! Haqiqat yuzaga chiqqandek entikdim. Ichim to‘lib ketdi. Ikki kaftimni yuzimga bosib, unsiz yig‘lab yubordim. Yelkam silkinib-silkinib tushardi. Ko‘zlarimdan tinmay yosh oqadi. Buning yana bir sababi bor. Sizga aytmabman. Meni qamashganining ertasiga xotinim uyiga ketib qolgandi. Buni ovqat olib kelgan onam aytdilar. Hatto onamning ham menga ishonib-ishonmayotgani sezilib turardi... O‘zingiz o‘ylab ko‘ring: butun dunyo menga qarshi. Nima qilishim kerak? Nozimani, o‘zimni qanday oqlab olay? Tuhmat toshni yoradi, deyishgan-ku. Bu tuhmat osuda kunlarimni mumdek eritib yubordi. Ana shu qorong‘ilikda bir shu‘la ko‘rindi. Bu, Hojiakbar akaning “ishonaman”, degan so‘zi edi!

— Bozorvoyni hisobotlaridan Nozima bir necha marta kamchilik topgandi, — dedi ustoz. — Mana, oqibati. U orqadan pichoq uradiganlardan. Sen ham jabrlanding.

Hojiakbar akaning og‘ir-bosiq ohangda aytgan gaplari meni titratib yubordi. Bu, Bozorvoyning o‘chi ekan-da?! Voy ablah-yey! Gap buyoqda ekan-ku?! Shuni aytsang, so‘ksang, ishdan bo‘shatib yuborsang bo‘lmasmidi! Bir pokiza ayolning nomini bulg‘ading. Uyini buzding. Men-chi, men?! Axir meniyan xotinim ketib qoldi-ku! Nomim xotinbozga chiqdi!

— Do‘kondan xavotir olma, — dedi Hojiakbar aka. — Yordamching eplayapti. O‘zim qarab turibman.

Shu paytda meni bir so‘roq qiynardi: Nozimaga nima bo‘ldi? Uning boshiga tushgan g‘avg‘olarda qay bir ma’noda o‘zimni aybdor hisoblardim. Aybsiz aybdor edim men! Uning alam bilan “Erkakmisiz?!”, degani qulog‘im ostida sovuq jaranglab turardi. Nahotki, u hamma gapni mendan chiqqan deb o‘yladi? To‘g‘ri, shunday yigitlar bor. Birorta ayol yaxshi muomala qilsa, meni yoqtirib qoldi, deya lof uradi. Men unday nomardlardan emasman-



ku? Yuragimni tirnayotgan bu so‘roqqa ham Hojiakbar akaning o‘zi javob berdi:

— Nozima, sen kimgadir nimadir..., o‘shanaqa gap qilgansan, deb o‘ylagan ekan. Bunaqa gap chiqmadi. Hammasi oydinlashdi. Nozimani eri ishxonaga kelib turardi. Unga Bozorvoy shipshitgan ekan o‘sha gapni.

Ilon ekan bu Bozorvoy! Uning zahari o‘tkir edi. Shuncha odamni qaqshatdi. “Suv balosi, o‘t balosi, tuhmat balosidan asrasin”, deya duo qilardilar buvim. Bu gapning ma’nosiga o‘shanda tushundim...

* * *

Mashina dala yo‘lidan o‘rtacha tezlikda borardi. Narzilla yo‘lga tikiladi. O‘tgan gaplarni eslab bir yondi-da, sekin o‘chdi go‘yo. Yanayam kim bilsin, sirtidan sokindir u. Inson bunday zarbani unutiladimi? Hamon yuragi ezilayotgandir? Axir, men, Nozima bilan Narzillaga butunlay begona bir odam, qanchalar ta’sirlandim! O‘zimda ularning keyingi taqdirlarini bilish istagini yengolmadim:

— Siz ishdan bo‘shab ketdingiz. Shundaymi?

— Ha.

— Nozima-chi?

— Nozimani Hojiakbar aka ishda olib qoldi. Lekin, eri bilan ajrashdi.

— Eri haqiqatni bilmabdimi?

— Hammasini tushungandir balki... El og‘ziga elak tutib bo‘lmaydi. Gap-so‘z o‘rmalab ketgandi. Qayta yarashmadi... Ko‘ngli bo‘lmagandir... Aslida, unga jabr bo‘ldi. Men xotinim bilan yarashib ketdim. Uning oilasi parokanda bo‘ldi. Ikki bola sarson...

— Keyinchalik Nozima bilan gaplashdingizmi?

— Yo‘q. Ko‘chada ko‘rib qolsam beriroqdan o‘tib ketaman. Shunisi ma’qul. Hozir Bozorvoyni o‘rnida ishlayapti. Shunday deb eshitdim.

— U-chi? — Bu savol beixtiyor labimdan uchdi.

— Unga nima? Bundaylarni jin ham urmaydi. Pensiyaga chiqqan. Haliyam o‘sha-o‘sha yurish... Ko‘rdingiz-ku...





* * *

Mashina jildirab suv oqayotgan ariq bo'yidagi oddiy qishloq uyida to'xtadi. Hovli darvozasi ochiq edi.

— Yetib keldik, — dedi Narzilla. Signalni bir bosib qo'ydi.


Ko'chadan hovlidagi kishmish uzumlar osilib turgan so'ri ko'rindi. So'ri ostidagi supadan boshiga oq ro'mol tashlagan ayol turdi. Meni tanib, ro'molini to'g'iray-to'g'iray darvoza tomonga yugurdi.

— Aka! — dedi singlim yelkamdan quchib. — Otam o'rniga otam!

Uning ko'zidan mehr yoshlari oqardi. Shu payt darvozadan devdek yigit bilan bo'y yetgan nozikkina qiz birin-ketin chiqib kelishdi. Ular ham “tog'ajon”lab yelkamga osilishdi.

Men mehr og'ushida qolgandim. Mashinaning shovqinidan o'zimga keldim. Narzilla qaytib ketayotgandi.

Tamom.



PEDAGOGIK HAMKORLIK

O'QITUVCHI +OTA-ONA= MUVAFFAQIYATLI FARZAND



Iroda TILLABOYEVA

*Nurafshon shahridagi 4-maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

El-manzil: irodatillaboyeva4@gmail.com

Annatotsiya. *Ushbu metodik tavsiya ta'lim va tarbiya jarayoni haqida bo'lib, bu ikki jarayon bir-biriga jambarchas bog'liq ekanligi tarbiyada ta'limdagi kabi qator metodlar mavjudligi va ularni qo'llash orqali samaraga erishish mumkinligi bayon etilgan. Har bir darsda mavzuga mos metod tanlaganimiz kabi tarbiyada ham turli xil usullardan rag'bat va jazodan foydalanish lozimligi ko'rsatib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *ota-ona, hamkorlik, ta'lim-tarbiya, oila, o'quvchi, rag'bat.*

Farzand. U maktabga boradi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi. Bu bola ilmga tashna, e'tiborga muhtoj, rag'batga ilhaq, ta'lim va tarbiyaning eng go'zaliga munosib. Yozilmagan oppoq qog'ozga qiyoslashadi bolani, unga berilgan ta'lim va

tarbiya esa kelajagini belgilab beruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Zero, "Tarbiya – buyuk ne'mat, u kishi taqdirini belgilaydi"- degan edi Belinskiy.

Ta'lim-tarbiya jarayoni murakkab jarayon. Bu jarayonni bir tomonlama olib borishning imkoni yo'q. Bunda albatta, maktab va oila, ustoz va ota-ona hamkorligi juda zarur. Ta'lim va tarbiya jarayonini ijtimoiy hayotning ajralmas qismi, deb qarash lozim.



Chunki ta'lim-tarbiya ishlarini olib bormasdan turib, jamiyatni va shaxsning rivojlanishini tasavvur qilish qiyin. Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmagani kabi, maktab va oilani ham ajratib bo'lmaydi. Oila o'z “zimmasidagi” tarbiya funksiyasi bilan chegaralanib qolmasligi kerak, uning yonida ta'lim deb nomlangan “egiz” tushuncha borligini va bu funksiyaning ham oilaga aloqador ekanligini tushunib qo'yish lozim. Zotan, ayrim ota-onalar ta'lim jarayoniga qiziqmasligi, farzandining o'qish jarayoni bilan shug'ullanmasligi kabi dilni xira qiluvchi vaziyatlar ham uchrab turadi. Bunday vaziyatlarda pedagogdan talabchanlik, sezgirlik va pedagogik mahoratni ishga solish talab qiladi. Eng avvalo, sinf rahbar o'quvchi bilan ishlash davomida uning oilasi bilan tanishib, o'quvchining tarbiya olayotgan maskani bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi zarur.

“Qars ikki qo'ldan chiqadi” deydi dono xalqimiz. Darhaqiqat, faqat oiladagi yoki maktabdagi tarbiyaning o'zi yetmaydi. Maktabdagi jarayonni uyda ham davom ettirsa, ota-ona ham farzandiga ezgu tushunchalar bilan ta'lim-tarbiya bersagina farzand Shaxs bo'la oladi va ta'lim jarayoniga qiziqishi ham ortadi. Maktabdagi tarbiyaga uyida zid ravishda qaraydigan ota-onalar ham oramizda yo'q emas.

O'quvchining ota-onasi bilan doimiy muloqotda bo'lish, farzandining o'quv-tarbiya jarayonidagi ishtirokini muntazam muhokama qilib borish lozim. Bundan tashqari, ota-onalar majlislarini o'tkazishda ham o'qituvchidan ijodkorlik talab qilinadi. Ingliz shoiri va dramaturgi Uilyam Shekspir o'z asarida: “O'z farzandini bilgan ota donishmanddir”, - degan edi. To'rt asr oldin yozilgan bu ibora bugunning ham dolzarb masalasi bo'lib qolyapti. Chunki, aksariyat otalar farzand tarbiyasiga bee'tibor. Tarbiyani onaga topshirib, moddiy jihatdan taminlashni zimmasiga olgan xolos. Biroq shuni anglashimiz kerakki, oilada otaning o'rni, uning tarbiyasi, viqori, qattiqqo'lligi yoki mehribonchiligiga bolada doimo ehtiyoj bor. Bu narsani ayniqsa, otalar tashrif buyurgan tadbirlardan keyin bolaning yuz-ko'zidan anglab olish qiyin emas. Majlisga har doim otaning yoki onaning, buvi yoki buvaning





kelishini oldini olish va farzand ta’lim-tarbiyasiga butun oilani jalb qilish maqsadida majlislarni turlicha nomlash mumkin.

“Otarlar majlisi” deb emas “Dadam men bilan faxrlanadi” yoki “Onalar majlisi” emas, “Men onamga kimligimni isbotlayman” kabi nomlab, majlis oldidan turlicha tadbirlar, tanlovlar o’tkazish katta samara beradi. Bu tadbirlarni tomosha qilish orqali ota-onalarning o’zlari “Farzandimning faolligi qanday?” “Farzandim tadbirlarda yaxshi qatnashyaptimi?” degan savollarga javob topib ketadilar.

Pedagogik tajribadan kelib chiqib yani shularni qo’shimcha qilishim mumkinki, ota-onalarni darslarga jalb qilish uchun “Ochiq eshiklar haftaligi”ni o’tkazish va bu haftada ota-onalarning ochiq darslarga kirib, farzandining o’quv jarayonidagi ishtirokini, darsni, o’qituvchilarni kuzatishi mumkin bo’ladi. Va bu boradagi fikrlarini yozma yoki og’zaki tarzda izohlab berishi mumkin bo’lib, yo’lga qo’yilgan bunday hamkorlikda katta natijalarga erishish mumkin. Bunda bola o’z ota-onasining maktabga borishini o’ziga bo’lgan katta e’tibor deb hisoblaydi. Va darslarga yanada mas’uliyat bilan yondoshadi. Go’yoki bola nazdida o’zini ko’rsatish, qobiliyatlarini namoyon qilish, boshqa o’rtoqlaridan bir qadam oldindaligini ota-onasiga isbotlash uchun qulay fursatdek tuyuladi. Buning uchun darslarga katta tayyorgarlik bilan keladi va faol qatnashadi. Bunday samaradorlikka erishish uchun ota-onadan e’tibor, sinf rahbaridan mahorat va ijodkorlik, har ikki tarafdin esa mustahkam hamkorlik talab qilinadi.

Bolakay o’z onasiga ustozi bergan maktubni olib keladi. Ona bu maktubni o’qib ko’z yoshlarini zo’rg’a tutib turdi va maktubni baland ovozda o’qib berdi: “Sizning o’g’lingiz daho. Lekin bunday iste’dodli bolani tarbiyalashga bizning maktabimiz kichiklik qilyapti. Shuning uchun siz bolangizga uyingizda ta’lim bering». Oradan yillar o’tdi. Insoniyat tarixida ulkan ixtiro kashf qilgan inson Edissonning onasi vafot etdi. Kunlarning birida u onasining javonini ko’zdan kechirayotib, qutidagi xatga ko’zi tushdi. Xatda shunday yozilgan edi: “Sizning o’g’lingiz kaltafahm, tentak! Erta tongdan boshlab, uni maktabimizga kiritmaymiz”. Buni o’qigan Edison rosa yig’ladi. Yig’ladi va o’zining xotira daftariga ushbu



bitiklarni yozib qo'ydi: “Edison tentak bola bo'lgan, lekin aqlli onasining tadbiri ila dahoga aylandi”.

O'quvchiga ta'lim-tarbiya berilar ekan, eng avvalo, uning ota-onasi bu jarayonga katta e'tabor qaratishi lozim. Hozirgi kunda ko'pchilik ota-onalar farzandni moddiy jihatdan ta'milashni tarbiyasiga bo'lgan asosiy e'tabor deb tushunib qolmoqdalar. Bolani nafaqat moddiy ta'minlash, balki ma'naviy jihatdan ya'ni tarbiyasiga ham katta ahamiyat berish kerak. Zero, “Tarbiya – buyuk ne'mat, u kishi taqdirini belgilaydi” - degan edi Belinskiy.

Ta'lim-tarbiya jarayonida ko'prik vazifasini o'tovchi bir bosqich bor. Ya'ni bu ota-onalar majlisi jarayoni. Bu jarayon maktab ma'muriyati yoki sinf rahbari tomonidan tashkil qilinadigan, oshib ketsa yiliga 4 yoki 5 marota tashkil qilinadigan jarayon hisoblanadi. Lekin bu majlisga ota-onalarni jalb qilish tobora murakkablashib bormoqda. Farzandiga bee'tibor bo'lmagan har qanday ota-ona bunday majlislarda faol qatnashadi.

Sinf rahbarlar bu jarayonni kreativlik asosida boshqarishi lozim:

- ota-onalar majlisi uchun taklifnoma yaratish. Bu taklifnomada, albatta, sanasi, vaqti va ko'riladigan mavzulardan tashqari, tarbiya haqida sitata yoki ibratli so'zlarni yozish maqsadga muvofiq bo'ladi;

- majlisni boshlashda albatta biror bir tarbiyaviy ahamiyatga ega qisqa videorolik qo'yib berish yoxud biror ibratli hikoyani gapirib berish mumkin. Bu metod ham ota-onalarga ta'sir qilishning asosiy usullaridan biri;

- majlis jarayonida ota-onalardan farzand tarbiyasiga oid qanday kitoblar o'qiganligini so'rash ham muhim. O'qigan ota-onalar javoblarini aytadi, o'qimaganlari eshitgan kitoblarini o'qishga harakat qiladilar. Agar ota-onalarda hech qanday javob bo'lmasa, o'qituvchining o'zi adabiyotlar tavsiya qiladi. Masalan, Xadicha Kubro Tongarning “Baqirmaydigan onalar” yoki “Olim yetishtirgan onalar”, “Uchgacha ayni payti”, “Yosh bola demang ularni” kabi kitoblarini tavsiya qilish mumkin. Bu kitoblar ota-



onalar farzand tarbiyasida muhim ekanligini eslatuvchi tavsiyalarni berishini yoddan chiqarmaslik lozim;

- har bir ota-ona o'z farzandi haqidagi fikrni eshitish uchun majlisga tashrif buyuradi. Shunday ekan, sinf rahbari har bir o'quvchi uchun alohida fikr bildirish kerak. Buni majlisga bir kun qolganda yozib tayyorlab qo'yish tavsiya qilinadi;

- ota-onalarga farzandi haqida fikr bildirayotganda motivatsiya berish faqatgina kichik kamchiliklari borligi, bu kamchiliklarni to'g'rilasa, albatta ko'p narsani uddalashi mumkinligi aytib o'tish joiz. Farzandi haqida yomon gap eshitish har bir ota-onaga psixologik jihatdan yomon ta'sir qilishi mumkin. Shu sababdan bunday ko'pchilik qatnashayotgan majlislarda o'quvchilarning kamchiliklarini ochiq-oydin ota-onasiga aytish tavsiya qilinmaydi;

- majlisda o'quvchilar bilan birgalikda didaktik o'yinlar tashkil qilish ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, ota-onaga quyidagicha savol berish mumkin:

- Farzandingiz qaysi rangni yaxshi ko'radi?
- Farzandingiz qaysi fanni yoqtiradi?
- Farzandingizning partadoshi kim?
- Farzandingiz do'stlarining ismlarini sanab bering va hk.

Bu kabi savollar majlisdan oldin o'quvchilardan yozma tarzda olingan bo'lib, ota-onaning javobi va o'quvchining javobini solishtirib ko'rish mumkin. Bu jarayon ham ota-onalar faolligini, farzandiga bo'lgan e'tiborini yanada oshirishi mumkin va hk.

Ta'lim va tarbiya jarayonida, albatta, har ikkala taraf fikrlari hamohang tarzda bo'lishi, yaxshilikka, ezgulikka va to'g'rilikka chaqirilishi lozim. Aks holda, bolada ikkilanish, tan olmaslik, tushunmovchilik kabi holatlar yuzaga keladi. Ota-ona ham o'qituvchi ham ta'lim va tarbiya jarayoniga birdek mas'uliyat bilan yondoshsagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Psixologlarning fikriga ko'ra farzand tarbiyasidagi eng muhim va eng birlamchi omil bu – niyat hisoblanar ekan. Eng birinchi navbatda farzandlarimizga nisbatan to'g'ri niyat qila olishimiz zarur.



Ta’lim tizimida tarbiyaning ham o‘ziga xos metodlari bor.

1. *Tushuntirish metodi.* Bu metod farzand tarbiyasidagi eng ko‘p qo‘llaniladigan metod hisoblanadi. Ota-ona ham, o‘qituvchi ham bolaga vaziyatni tushuntirish vaqtida, ayniqsa, kichik maktab yoshidagi o‘quvchi bo‘lsa, bolaning ikki qo‘lidan ushlab, ko‘z-ko‘zga qarab, tana ham bir-biriga qarab turishi kerak. Shundagina bola vaziyat o‘ta jiddiy ekanini anglaydi.

2. *Nemofobiya metodi.* Bunda bolalar har xil keraksiz o‘yinlarga, telefon o‘yinlariga, qimor yoki shunga o‘xshash keraksiz odatlarga o‘rganib qoladi. Buning oldini olish uchun ota-onalarning oilada yaratgan “Oilaviy o‘yinlar”i mavjud bo‘lishi kerak. Shaxmat, shashka, kitob o‘qish yoki turli xil sport o‘yinlarini tashkil qilishi va farzandlar bilan birga bu jarayonni olib borish lozim. Bu tarbiyadagi eng zarur metodlardan biri hisoblanadi.

3. *Namuna metodi.* Farzand – bu ko‘zgu. Siz nima qilsangiz u o‘sha narsani qaytaradi. Siz qanday harakat bajarsangiz u farzandingizda aks etadi. Siz kun bo‘yi telefon titkilaysiz, lekin farzandingiz telefon o‘ynasa, unga tanbeh berasiz. Ayb o‘zingizda ekanligini bilmaysiz! Agar siz kun bo‘yi kitob o‘qing, farzandingiz xuddi shuni qaytaradi. O‘zi aslida farzand birinchi yolg‘onni onasidan o‘rganar ekan. Demak, ota-ona o‘zining namuna ekanligini bilib, qilayotgan xatti-harakatlariga e’tiborli bo‘lishi lozim.

4. *Pand-nasihat metodi.* Ota-ona farzandiga berayotgan har qanday pand-nasihat bolaning ongiga joylashadi. U xuddi shu pand-nasixatlar yetovida kelajagini rejalashtiradi. Ota-ona farzandiga “Sen olim bo‘lasan. Sening chizgan rasmlaring shunday ajoyib, buyuk rassom bo‘lasan” kabi pand-nasixatlarni doimiy ravishda aytib tursa, bu juda foydali hisoblanadi. Chunki bola shu narsaga ishonadi. U o‘ylaydiki: “Demak, ota-onam ishonyapti, uztozim ishonyapti, men albatta uddalayman”. Xuddi “Suyunchi” filmida Abdullaning “Buvim professor bo‘lasan dedilarmi, professor bo‘laman” degan nutqidagidek. Lekin ota-ona ham, o‘qituvchi ham bolaning qobiliyatiga, jussasiga, uning iqtidori va mahoratiga qarab yo‘naltirishi lozim.

5. *Jazolash metodi.* Bu metod ham tarbiya jarayonida muhim hisoblanadi. Jazolash deganda jismoniy jihatdan jazolashni tushunmaslik kerak. Oilada ham har xil oilaviy qonunlar, tartib-qooidani yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq bo'ladi. Qandaydir jazo turlarini o'ylab topib, uni jarima sifatida qo'llash mumkin. Jarimaga kitob o'qish, gullarga suv quyish va shu kabi ishlarni ko'rsatish mumkin.

Farzand tarbiyasi juda nozik masala. Farzand tug'ildimi, demak, «men bu farzandni tarbiya qila olaman» degan tushunchani biroz boyitish lozim. «Farzand tarbiyasida nimalarga e'tabor berish lozim?» tarzidagi mantiqli mulohaza hamisha o'rtada turishi lozim. Turli xil ta'lim-tarbiyaga oid adabiyotlar bilan tanishish kerak bo'ladi. Bu borada yoshi ulug' insonlardan o'rnak olish ham zarar qilmaydi. Qachonki, ota-ona tarbiyali bo'lsagina, tarbiyali farzandlarni voyaga yetkaza oladi.

Xulosa qilib aytganda, bolaga yorqin kelajak hadya qilmog'imiz zarur. Buning uchun ota-ona va o'qituvchi-pedagogning zimmasidagi vazifalari bir xil. Bu vazifalarni bajarishda hamkorlik, hamkorlik va yana hamkorlik kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barkamol avlod orzusi / Tuzuvchilar: Qurboniv Sh., Saidov H., Ahliddinov R. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa konserni, 1999. – 267 bet/
2. Hikmatlar shodasi. /To'plovchi va tarjimonlar: A.Raimov, N Raimova. – T.: O'zbekiston, 2016. – 123 b.
3. Jo'rayev A. J. Tarbiyaviy darslarni o'tish / Sinf rahbarlari uchun qo'llanma. – T.: Sharq 1997. – 70 b.
4. Xadicha Kubro Tongar. Baqirmaydigan onalar. – T., 2023.

KASBIM MENING – FAXRIM MENING

OLIY MAKTABDA KASBIY MA’NAVIYAT FANINI O’QITISH ZARURIYATI



Ravshanbek MAHMUDOV

Falsafa fanlari nomzodi,

GulDU professori

El-manzil: ravshanbek.jalilovich@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada oliy o’quv yurtlari magistratura bosqichida yangi kasbiy ma’naviyat kursini o’qitish davr talabi ekanligi borasida so’z yuritilgan. Kasblar va ularning turlari, barcha kasb egalarining ma’naviy sog’lomlik darajasi to’g’risida ma’lumot berilgan.

Kalit so’zlar: kasb, kasb turlari, ma’naviyat, ma’naviyat qonunlari, ma’naviyat kategoriyalari, o’qituvchi ma’naviyati.

Tilimizda, dilimizda “Yangi O’zbekiston”, “Uchinchi Renessans”, “Yangi O’zbekiston orzusi”, “Inson qadri ulug’”, “Avval inson, keyin jamiyat va davlat”, “Jamiyat – islohotlar tashabbuskori”, “Bu mening Konstitutsiyam” kabi inson ruhiyatini ko’taradigan tushunchalar paydo bo’ldi va muomalada keng qo’llanilmoqda. Bugungi kunda mamlakatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma’naviy-madaniy, ma’rifiy sohalaridagi o’zgarishlarning maqsadi, mohiyati, birinchidan, insonlar dunyoqarashini o’zgartirish, milliy g’oyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish bo’lsa, ikkinchidan, mamlakat taraqqiyotiga mas’ul, har tomonlama chuqur bilimga, salohiyatga, iqtidorga ega, jismoniy sog’lom, axloqan pok, ma’naviy yetuk mutaxassislar tayyorlashdir.



Tarbiyaning o‘zagini aql-idrok, bilim, ma’naviyat tashkil etadi. Tarbiya – barcha davrlarda ham eng dolzarb vazifa hisoblangan. Vatanparvar, sadoqatli, iymon-e’tiqodli, mehr-oqibatli, o‘z kasbini mukammal egallagan, yuksak ma’naviyatli, ma’rifatli va madaniyatli shaxslarsiz mamlakat taraqqiyotini tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun ham keyingi yillarda mamlakatda ilm-fanga, ma’rifatga e’tibor kuchayib, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yanada jonlantirish uchun bir necha zaruriy, me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi PQ-3160 raqamli “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko’tarish to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasining “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni (2019 yil 29 oktyabr O‘RQ-576), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni (2020 yil 19 mayda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan), 2021 yil 26 martdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviyat va ijodni qo‘llab-quvvatlash maqsadli jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-1048 hamda “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-qarorlari qabul qilindi.

Bu qaror va farmonlarda, me’yoriy-huquqiy hujjatlarda mamlakatdagi ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yanada jonlantirish, rivojlantirish rejalari, vazifalari va asosiy mablag‘lari manbalari ko‘rsatilib, aniqlab berildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida bu sohadagi ustuvor vazifalar aniq ko‘rsatib o‘tildi. Bu qaror mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan buyon bu sohaga oid qabul qilingan barcha farmon va qarorlardan tubdan farq qilishi bilan hamda vazifalar, topshiriqlar egasi, mas’ullari ko‘rsatib o‘tilgani bilan tarixiy ahamiyatga ega.



Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markaziga qo'shimcha vazifalar yuklatildi. Ilmiy-tadqiqot, targ'ibot-tashviqot yo'nalishlaridagi vazifalar belgilab berildi. Qarorda respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining “Ma'naviyat targ'ibotchisi” ta'lim muassasasi negizida Markaz huzurida Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutini tashkil etish belgilandi. Shuningdek, “Ta'lim tashkilotlarida ma'naviy-ma'rifiy, madaniy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha umumta'lim muassasalarida ijtimoiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi lavozimi tashkil etilishi belgilandi. Qarorda Oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallarida talabalar sonidan qat'iy nazar, yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor lavozimi tashkil etildi. Barcha tuman va shaharlarda 2021–2023 yillarda tashkil etiladigan “Ma'naviyat va ma'rifat maskani” ro'yxati tasdiqlandi.

Prezident Qarorining to'qqizinchi bandida 2021/2022 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim tizimining tegishli ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalariga bakalavriat bosqichida “Ma'naviyatshunoslik” va magistratura bosqichida “Kasbiy ma'naviyat” kurslarini o'qitish ko'rsatib o'tilgan.

Yangi O'zbekistonning yangi mutaxassislarini tarbiyalab voyaga yetkazish bugungi kunda eng dolzarb vazifalardan biridir. Yangi O'zbekiston yoshlari, ayniqsa, mutaxassislari hamma jihatdan yetuk, komil, barkamol bo'lishlari talab etiladi. Mamalakatimizda 220dan ortiq oliy o'quv yurtlari faoliyat ko'rsatmoqda. O'n mingdan ortiq maktab, kollej va texnikumlarda farzandlarimiz yetuklik attestatlariga, diplomlariga ega bo'lmoqdalar. Mamlakat taraqqiyoti, xalq farovonligi, turmush tarzining yaxshilanishi, yurt obodligi, tinchligi, osoyishtaligi komil, yetuk, barkamol kadrlarni intellektual qobiliyatlariga, salohiyatlariga, bilimlariga bog'liq.

Mamlakat taraqqiyotining asosi bo'lgan yoshlarga xos bo'lgan sifat – komillik, komil so'zi – arabchadan olingan bo'lib yetuk ma'nosini bildiradi. Komillik – tushunchasi esa manbalarda keltirilishicha, IX–XII asrlarda shakllangan. Barkamol – forsha-arabcha so'zlardan olingan bo'lib kamolga, balog'atga erishgan,



voyaga yetgan yetuk ya’ni komillikka yetishgan, ma’rifatli degan ma’nolarni bildiradi.

Ayni kunlarda yetuk, komil, barkamol inson deyilganda ruhiy, axloqiy, ma’naviy, aqliy, jismoniy jihatdan barkamollik tushuniladi. Bunday ulug’lik xislatlari bilimdonlik, ma’rifatlilik bilan omuxta bo’lishi talab etiladi. Har bir shaxsning o’ziga xos ma’naviyati, ma’rifati, fazilatlar, axloqiy xususiyatlari, jihatlari mavjud. Har bir kasb egasiga alohida talablar qo’yiladi. Kasblarning o’ziga xos jihatlari va individual xususiyatlar mavjud.

Kasbiy ma’naviyat kursining obyekti – inson va uning kasb ma’naviyati. Chunki kasb – insonga xos. Insonning axloqi, odobi, madaniyati, estetikasi, mantig’i, falsafasi mavjud. Kasbiy ma’naviyatning predmeti insonning kasbiy ma’naviyati hisoblanadi. Kasbiy ma’naviyatni o’qitishdan maqsad har bir mutaxassisga, u qaysi soha egasi bo’lmasin yuksak axloqqa, ma’naviyatga, keng bilimga ega shaxsga, o’z sohasini mukammal egallashini o’rgatishdan iborat. Mutaxassis, avvalo, inson bo’lishi, axloqiy barkamol, bilimdon, o’z sohasini yaxshi o’zlashtirgan, kasbiga fidoyi, sadoqatli, kasbiga oid yangiliklardan xabardor bo’lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, bir necha tillarni bilishi, notiqlik san’atini, nutq madaniyatini yaxshi egallagan, innovatsion yangiliklarni qo’llaydigan, vatanparvar, adolatli, dunyoviy va diniy bilimlarni mukammal bilishi talab etiladi.

“Biz Yangi O’zbekistonni yetuk ma’naviyatli jamiyat, erkin va baxtli insonlar yashaydigan yurtga aylantirishimiz lozim” [4, 264-b.], degan edi O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

Fanda “kasb etikasi” degan ibora bor. Har bir jamiyatda ham inson axloqi birinchi o’rinda turadi. Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida o’n ikki fazilatga ega bo’lgan insonlar fozildir deya ular rahbarlikka tayinlanishi mumkinligini o’ninchi asr boshlarida ko’rsatib o’tgan edi. Demak, har bir kasbning o’z axloqi, estetikasi, asosiy vazifalari, funksiyalari, kategoriyalari, qonuniyatlari mavjud.



Kasbiy ma'naviyat davr, hayot va taraqqiyotning ehtiyoji sifatida vujudga keldi. Kasb – insoniyat paydo bo'lganidan buyon bor. Har bir inson hayotda mavjud ekan u biron bir kasb egasi bo'lishi kerak. Aql-zakovatli, idrokli insonlar kasbini e'zozlab, yaxshi egallab, o'z davrida katta hurmat va e'tiborga sazovor bo'lganlar. Misollar nihoyatda ko'p. Abu Ali ibn Sino, Sulton Ali Mashhadiy, Ali Qushchi, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabilar o'z kasblarini mukammal egallab, hurmat topgan shaxslarlar.

Kasb – arabcha so'zdan olingan bo'lib ish-faoliyatning ma'lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan biror turi, sohasi; hunar.

Kasb etmoq: 1) ega bo'lmoq, egallamoq. 2) ifodalamoq.

Kasbdosh – so'zi arabcha-forschadan olingan bo'lib – bir xil kasbli, bir kasbdagi; sherik ma'nolarini bildiradi.

Kasbiy – arabchadan olingan bo'lib kasb-hunarga oid, kasbiy manfaat ma'nolarida keladi [8, 371-b.].

Kasbiy – so'zining oddiy ma'nosi kasbiga oid, kasbiga mos, kasbiga xos ma'nolarini bildiradi. Ma'naviyat – arabcha so'zdan olingan bo'lib – axloqiy holat; xususiyatlar ma'nosini beradi. Ma'naviy – arabcha so'zdan olingan bo'lib: 1. Kishining ichki, ruhiy hayotiga oid ma'nosini bildiradi. 2: Axloqiy: misol uchun: Kishining ma'naviy qiyofasi [8, 454-b.]. Bir inson o'z kasbi borasida yetuk mutaxassis bo'lishi uchun to'rt kishi rozi bo'lishi darkor: ota, ona, o'zi va ustози [5, 54-b.].

Ma'naviyat – inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. “Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, u barcha qarashlarning mezonidir” [3, 19-b.]. Bu ta'rif kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o'z ichiga oladi. Ma'naviyat atamasining o'zagida “ma'no” so'zi yotadi. Ma'lumki, insonning tashqi va ichki olami mavjud bo'lib inson tashqi olamiga – uning bo'yi-basti, ko'rinishi, kiyinishi, xatti-harakati kabilar kiradi. Inson ichki olami – uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, intilishlari, his-tuyg'ularini, aql-zakovatini o'z ichiga oladi. Insonning ana shu ichki



olami – ma’naviyat. Oziq-ovqat odamga jismoniy quvvat bersa, ma’naviyat unga ruhiy ozuqa, qudrat bag’ishlaydi [3, 172-b.].

“Mening nazarimda, insoniyat dunyosining buyuk bir yoritqichi – ma’naviyat chirog’i bor. Bu chiroqning boshqalardan farqi shuki, u insonning ongi va tafakkurini yoritadi, qalbi, vijdonini uyg’otadi, odamiylik hissini kuchaytiradi. O‘zbekistonning yangi uyg’onish davrini yaratishga kirishgan ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi va ongida ana shunday ma’naviyat shu’lasi porlashi va u bizni ezgu ishlarga undab, yuksak mas’uliyat tuyg’usi bilan yashashga da’vat etib turishi zarur” [4, 266-b.] - deb yozgan edi O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobida. Haqiqatdan ham inson hayotining ma’nosi, yashash tarzi, maqsadi, orzularining qanday bo’lishi albatta shaxsning axloqiga, dunyoqarashiga, bilimiga, olamga munosabatiga bog’liq.

“Biz uchun ma’naviyat – insonlar o’rtasidagi o’zaro ishonch, hurmat va e’tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo’lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir. Boshqacha aytganda, ma’naviyat – jamiyatlardagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir” [4, 267-b.].

Demak, Kasbiy ma’naviyat kursining asosiy vazifalari quyidagilardir:

- 1) kasbga fidoyilik va sadoqatlilikni tarbiyalash;
- 2) bilimli, yetuk mutaxassis, salohiyatli kasb egasini tayyorlash;
- 3) kasb va uning turlari hamda kasb va hunarlarning o’ziga xos jihatlarini o’rganish;
- 4) bo’lajak mutaxassislarning kasbiy faoliyati uchun puxta, chuqur, nazariy asoslar yaratish;
- 5) har bir sohaning o’ziga xos odob qoidalari bilan tanishtirish;
- 6) mutafakkirlar merosidagi kasb-hunarga oid ma’naviy meroslar bilan tanishtirish;
- 7) yurtimizdagi ustoz-shogird an’analari bilan tanishtirish;
- 8) kasblar o’rtasidagi o’zaro aloqadorlikni o’rganish;



9) jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirishga hissa qo'shish;

10) oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini kasbiy ma'naviyat orqali ta'minlash;

11) har bir soha mutaxassislarining o'ziga xos kasbiy ma'naviyati bo'lishini asoslash;

12) har bir kasb egasini el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga hissa qo'shuvchi yetuk mutaxassis qilib tarbiyalash;

13) jahon tamaddunidagi sharaflı kasblar haqida ma'lumot berish;

14) kasb egasining o'z kasbiga halol munosabatni (halollik vakinasini) shakllantirish va boshqalar.

Aytish mumkinki, ma'naviyat keng tushuncha. Ko'plab olimlar ma'naviyatga turlicha baho va tasnif berganlar. Bizningcha, ma'naviyatning tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi: "g'oyashunoslik (ideologiya), qadriyatshunoslik (aksiologiya), axloqshunoslik (etika), nafosatshunoslik (estetika), madaniy va ijtimoiy ruhshunoslik, dinshunoslik va madaniyatshunoslik (kulturologiya) kabilar [3, 176–177-b.].

Ma'naviyat qonunlari – “ma'naviy sohaga xos narsa va hodisalar”, voqea va jarayonlar o'rtasidagi doimiy va takrorlanib turuvchi uzviy aloqadorlikni, insonning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini, hayotning ma'no-mazmunini belgilab beruvchi yo'l-yo'riqlar, qonun va qoidalar majmuini anglatuvchi tushuncha. Ma'naviyat qonunlari quyidagilardir:

1. Ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi.

2. Ma'naviyatning inson va jamiyat bilan uzviy aloqadorligi.

3. Ma'naviy hayotning ijtimoiy taraqqiyotga bog'liqligi qonuni [7, 10-b.].

Ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi qonuni birinchi Prezident Islom Karimovning “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida asoslab berilgan. Inson va jamiyat hayotida moddiy



va ma'naviy asoslar bir-birisiz mavjud emas. Inson hayotda yashar ekan uning ma'naviy va moddiy ehtiyojlarga talabi bo'ladi. Hayotni kuy-qo'shiqlarsiz, san'atsiz, raqssiz tasavvur qilib bo'lmaganidek, moddiy narsalarsiz – suv va tabiiy ne'matlarsiz – taomlarsiz, oziq-ovqatsiz, kiyim-boshsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ma'naviy va moddiy hayot doimo uyg'un bo'lishi kerak.

Ma'naviyatning inson va jamiyat bilan uzviy aloqadorligi tabiat qonunidir. Inson jamiyatda yashar ekan, u hayotda ma'naviyatsiz yashashi mumkin emas. Insonning ma'naviyatlilik, ma'rifatlilik darajasi jamiyat taraqqiyotining rivojlanishiga asos bo'ladi. Har qanday taraqqiyotda ma'naviy va moddiy hayot o'sish, o'zgarishda muhim omil hisoblanadi. Jamiyatdagi barcha o'zgarishlar ma'naviyatda, ma'naviyatdagi o'zgarish jamiyatda aks etadi.

Ma'naviy hayotning ijtimoiy taraqqiyotga bog'liqligi shundaki, hayot davom etar, jamiyat rivojlanar ekan, ma'naviy hayot ham o'sib, takomillashib boradi. Ma'naviyat qotib qoladigan aqida emas. Jamiyat rivojlangani sayin ma'naviy hayot ham rivojlanadi. Ba'zan ijtimoiy taraqqiyotda iqtisod olg'a o'tib ketishi, ma'naviyat orqada qolishi xam mumkin. Bu tabiiy hodisa sanaladi. Negaki, jamiyatda hamma narsa bir xilda rivojlanishi yoki orqada qolishi mumkin emas. Bu hodisa hayot qonuni, jamiyat qonuni hisoblanadi.

Ma'naviyatning uchta qonunidan tashqari bir necha kategoriyalari ham mavjud. Kategoriya tushunchasini fanga Aristotel kiritgan. “Ma'naviyat, g'oya, mafkura, madaniyat, ma'rifat, din, axloq, nafosat insonning ruhiyati, qalbi va ongi, ma'naviy qiyofasi, his-tuyg'ulari, kechinmalari, barchasi shu tizim doirasiga kiradi” [8, 351-b.].

Ma'naviyatning madaniy, ma'naviy meros, qadriyat, ma'rifat kabi tarkibiy qismlari mavjud. Shuningdek, ma'naviyatning ota-onaga hurmat, poklik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, bilimdonlik, samimiylilik, vijdonlilik, to'g'rilik, mehr-shafqatlilik, oilaga sadoqat, halollik, iymonlilik, e'tiqodlilik kabi tushunchalari ham bor.

Hozirgi zamon ilmida ma'naviyat – “Ma'naviyatshunoslik”, “Ma'naviyat tarixi va nazariyasi”, “Axloqshunoslik”,



“Nafosatshunoslik” kabi fanlarning kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, ma’naviyatning ezgulik, yaxshilik, adolat, do’stlik, bag’rikenglik, mehr-oqibat, sadoqat, vafo, e’tiqod, iymon kabi mezonlari ham mavjud.

Ma’naviyat tushunchasi quyidagilarni qamrab oladi: ma’naviy boyliklar; ma’naviy jasorat; ma’naviy zarar; ma’naviy ideal; ma’naviy meros; ma’naviy poklik; ma’naviy tarbiya; ma’naviy ta’sir; ma’naviy ehtiyojlar; ma’naviy qadriyatlar; ma’naviy o’zlikni anglash; ma’naviy hayot; ma’naviy illatlar – yolg’onchilik, adolatsizlik, hurmatsizlik, loqaydlik, befarqlik, dangasalik, tuhmat, bo’xton, hasad, kibr, xoyinlik, o’g’rilik, ikkiyuzlamachilik, qat’iyatsizlik, vijdotsizlik, xayosizlik, uyatsizlik, orsizlik, nomussizlik.

Kasbiy ma’naviyat kursi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan tashkil etildi va oliy o‘quv yurtlari magistratura bosqichi rejasiga kiritildi. Bu – yangi fan. Bu fan Prezidentning “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori asosida paydo bo‘ldi. Chunki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida barcha sohalardagi ishlar ezgulik, insonparvarlik tamoyiliga asoslanmoqda. “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirishda kasbiy ma’naviyat fanining ahamiyati juda katta.

Respublika oliy o‘quv yurtlarining barcha yo‘nalishlarida kasbiy ma’naviyat o‘qitilishining sababi shundaki, inson qanday kasbdagi mutaxassis bo‘lishidan qat’iy nazar ma’naviyatli bo‘lishi shart. Negaki, kelajagimiz egalari bo‘lmish yoshlarga ma’ruza o‘qiydimi ya’ni o‘qituvchilik qiladimi yoki shifokor sifatida bemorlarni davolaydimi, qisqasi, oliy ma’lumotli har qanday mutaxassis – insonlar bilan muomala qiladi, muloqotda bo‘ladi, insonlar bilan ishlaydi. Demak, kasbiy ma’naviyat deganda har qanday kasbda faoliyat ko‘rsatishidan qat’iy nazar mutaxassis albatta bilimli, fahm-farosatli, o‘z kasbiga fidoyi, birga ishlayotgan



hamkasblariga nisbatan rahm-shafqatli, mehribon, adolatli, vatanparvar, mehnatsevar, o‘z kasbining fidoyisi, bilimdoni bo‘lish talab etiladi.

Bugungi mutaxassisga oson emas. Negaki, bugungi yoshlar, fuqarolar yigirma yil oldingi fuqarolar, yoshlar emas. Ularning fikrlashi, bilimlilik darajasi, dunyoqarashi hatto besh yil oldingilaridan keskin farq qiladi. Bugun axborot, internet asri – tezkor, globallashuv zamon. Kasbiy ma’naviyat mana shunday tezkor zamon yoshlariga ularni qoniqtiradigan va hayratlantiradigan darajada dars o‘tadigan, muomala qila oladigan, xizmat qiladigan mutaxassislar tayyorlanishiga yordam berish vazifasiga ega. Aks holda mutaxassisni fuqarolar, yoshlar oldida hurmat-e’tibori bo‘lmaydi. Bu esa fojia. Shu jihatdan olganda har bir mutaxassis o‘z kasbiy ma’naviyatiga a’lo darajada ega bo‘lishi lozim. Mutaxassis, avvalo, axloqan pok, bilimdon, o‘z sohasini o‘ta darajada yaxshi o‘zlashtirgan muloqot qiluvchilarini hurmatlaydigan, e’zozlaydigan, tengdoshiday, do’stiday, ko‘radigan, ularning fikrlarini eshitadigan, hurmat qiladigan, fikrlarini hisobga oladigan bo‘lishi lozim.

Ma’naviyatli mutaxassis qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim. Birinchidan, mehnatsevar bo‘lishi lozim. Ikkinchidan, yurtparvar, vatanparvar bo‘lishi kerak. Uchinchidan, bag‘rikenglik xislatiga ega bo‘lishi zarur. To‘rtinchidan, ijobiy fazilatlar mujassamligi talab etiladi.

Fazilat nima? Bu fuqarolardagi ko‘zga ko‘rinadigan va ko‘zga tashlanmaydigan ijobiy xislatlar nomi. Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida tabiatan o‘n ikkita tug‘ma xislatni o‘zida birlashtirgan kishigina axloqli, fozil – ma’naviyatli ekanligini sanab ko‘rsatgan:

– birinchidan, bunday odamning barcha a’zolari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo‘lishi zarurki, u bu a’zolari bilan bajarmoqchi bo‘lgan barcha ishlarini osonlik bilan amalga oshira olsin;

– ikkinchidan, barcha masalani, muhokama va mulohazani tezdan va to‘g‘ri tushuna oladigan, uning ma’nosini anglay oladigan,



soʻzlovchining maqsadi, aytilgan fikrining chinligini tezda payqay oladigan boʻlsin;

- uchinchidan, xotirasi juda baquvvat boʻlsin, koʻrgan, eshitgan, sezgan narsalarining birortasini ham esidan chiqarmay, yodida saqlab qoladigan boʻlsin;

- toʻrtinchidan, zehni shu darajada tez va oʻtkir boʻlsinki, biror narsaning alomatini sezishi bilan bu alomat nimani bildirishligini tezdan bilib olsin;

- beshinchidan, soʻzlari aniq boʻlsin, fikrini va aytmoqchi boʻlgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin;

- oltinchidan, bilish va oʻqishga muhabbati boʻlsin, oʻrganmoqchi boʻlgan bilimni charchashni sezmasdan osonlik bilan oʻzlashtira olsin;

- yettinchidan, ovqatlanishda, ichimlik isteʼmol etishda ochkoʻz boʻlmasin, tabiati qimor oʻyinlarini oʻynashdan uzoq boʻlsin va ular keltiradigan xursandlikdan jirkanadigan boʻlsin;

- sakkizinchidan, haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevadigan boʻlsin, yolgʻon va yolgʻonchilarga nafrat bilan qaraydigan boʻlsin;

- toʻqqizinchidan, ruhining gʻururi va vijdonini qadrlaydigan boʻlsin, uning ruhi oʻz tabiati bilan past ishlardan yuqori va oliyjanob ishlarga ishlatiladigan boʻlsin;

- oʻninchidan, dirham, dinor va shu kabi turmush buyumlariga jirkanish bilan qarasin;

- oʻn birinchidan, oʻz tabiati bilan adolatni sevadigan va adolat uchun kurashuvchilarga, adolatsizlikka, jabr-zulm oʻtkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan boʻlsin, oʻz odamlari va boshqalarga adolatli boʻlsin, goʻzal va yaxshi hisoblangan narsalarni barchaga taqdim etgan holda odamlarni adolatga targʻib etadigan, adolatsiz oqibatlarini yoʻqotadigan, ularga yoʻl qoʻymaydigan boʻlsin;

- oʻn ikkinchidan, adolatli boʻlsin, ammo qaysar boʻlmasin, adolat oldida qaysarlik qilib, oʻzbilarmonlikka berilmasin, lekin har qanday adolatsizlik, pastkashlik oldida lafzli boʻlsin, oʻzi zarur deb bilgan narsasini amalga oshirishda qatʼiylik koʻrsatsin, qoʻrqmas, jasur boʻlsin, qoʻrqish va ojizlikni bilmasin [1, 286–288-b.].



Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” kitobida ilgari surgan yetuklik, mukammallik, barkamollik xislatlarini nihoyatda sodda, ma’noli, mantiqli qilib ko’rsatib bera olgan. Qisqasi, insonning to’rt muchasi sog’lom bo’lishi, ko’rishi, eshitishi, tahlil qilishi, o’ylashi, tushunishi, his-hayajoni, fahm farosati rivojlangan bo’lishi lozim. Shuningdek, fozil inson – farosatli, xotirasi kuchli, zakovatli, notiq, bilimli, barcha narsadan ko’zi to’q, haqgo’y va odil, donishmand va oriyatli, nafsini yenga oladigan, adolatparvar, qat’iy fikrli bo’lishi lozimligini ta’kidlab o’tgan alloma. Har qanday kasb egasi Abu Nasr Forobiy ko’rsatgan o’n ikki xislatga ega bo’lishi shart. Bulardan tashqari, kasbiy ma’naviyatga ega inson mustaqil fikrga, sog’lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo’lishi lozim.

Kasbiy ma’naviyat fani barcha fanlar bilan uzviy aloqada: falsafa, pedagogika, psixologiya, ma’naviyatshunoslik, axloq, nafosat, tarix, adabiyot, o’zbek tili, madaniyat, milliy g’oya, mantiq, qisqasi, barcha fanlar mohiyatini ma’naviyat va ma’rifat tashkil etadi. Barcha fanlarning birinchi galdagi vazifalari insonlarni tarbiyalash, aql-idrokklarini o’stirish, jamiyatga kerak bo’ladigan yetuk mutaxassislar tayyorlashdir.

Kasbiy ma’naviyat fani bilan aloqador bo’lgan falsafa, mantiq, pedagogika, tarix, axloq, adabiyot, qisqasi, barcha fanlar bilan bog’liqligi natijasida inson ruhiyati, his-tuyg’ulari, kechinmalari rivojlanishi asosida ezgulik, yaxshilik, adolat, diyonatlilik, bag’rikenglik, mehr-oqibat, sadoqat, vafo, e’tiqod, iymon, vatanparvarlik, o’zlikni anglash kabi ko’plab tamoyillar paydo bo’ladi. Bu tamoyillar insonni ma’naviyatlilik darajasini ko’rsatadi[6, 10-b.].

Xulosa qilib aytganda, Kasbiy ma’naviyat fani endigina paydo bo’lgan takomillashib, rivojlanib borayotgan eng zarur amaliy fanlardan biridir. Har bir mutaxassis qaysi kasbda faoliyat ko’rsatishidan qat’iy nazar inson ekanligini unutmazligi shart. Har bir inson hayotdagi oliy mavjudotdir. Inson o’zini sevishi, hurmat qilishi, e’zozlashi lozim. Inson – har doim oliy qadriyat ekanligini his qilib, atrofidaqilar bilan muomala qilishi kerak bo’ladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. –Т.: “Янги аср авлоди” . 2016. – 320 б.
2. Каримов И. А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Ўзбекистон, 2016. – 395 б.
3. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Т: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2016. – 448 б.
4. Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Т.: “Ўзбекистон”, 2021. – 264 б.
5. Мирҳамидов О. Ҳалол касб-ҳунар қут-барака келтирар. –Т.: “Мовароуннаҳр” нашриёти, 2018. – 110 б.
6. Маҳмудов Р. Ж. Касбий маънавият. / Ўқув қўлланма. Т. “METHODIST NASHRIYOTI” 2023. – 173 б.
7. Назаров Қ. Маънавиятшуносликнинг долзарб масалалари. –Т.: “Мухаррир” нашриёти 2010. – 24 б.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – М.: “Рус тили” нашриёти 1981. – 632 б.



MA'NAVIY SOG'LOMLIK SIRI

METODIKANING OLTIN QONUNIYATLARI



Mutallib HAZRATQULOV

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori, SamDU dotsenti*

El-manzil: hazratqulovmutallib@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada inson tarbiyasi, uning ma'naviy sog'lom bo'lib shakllanishida ta'lim-tarbiyaning o'rni, bu borada maktab, o'qituvchi va metodika ilmining burch va vazifalari borasida so'z yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *metodika, qonuniyat, maktab, o'rgatish, o'rganish, so'z, o'qituvchi, axborot.*

Metodikaning asl qonuniyati nimada? Uning vazifalari nimalardan iborat? Atrofga e'tibor bersak, har soniyada, har qadamda o'rgatish-o'rganish jarayonini ko'ramiz. Kimdir amali, kimdir so'zi bilan, yana kimdir taqlid orqali o'rganyapti, o'rgatyapti. Gapiirishni, yurishni, qanday turishu qanday tutishni har soniyada, har qadamda ongli va ongsiz ravishda o'rganyapmiz, o'rgatyapmiz. Demak, odamzod tug'ilgandan to vafotiga qadar nimanidir o'rganadi, nelarnidir o'rgatadi. Butun hayot mohiyatan metodikadan iborat, degan fikr keladi kishining xayoliga da'atan. Shu jarayonda maktabda o'rgatish va o'rganishning o'rni qay darajada bo'lishi mumkin? Maktab buni qanday bajaryapti? Aslida, qanday bajarishi kerak?

Agar o'rgatuvchi-ustoz bo'lmasa, orolga yolg'iz tashlab ketilgan bola gapirolmaydi, tuzukroq ovqatlanishni, hatto kiyinishni ham bilmasligi aniq. Uning shunchaki oddiy hayvondan, boshqa tilsiz va ongsiz mavjudodlardan farqi, deyarli, bo'lmaydi. Bunday vaziyatda



bola uchun yagona yordam uning genida saqlanib qolgan axborot-ma'lumotlar bo'lib, shuning evazigagina yashab qolish imkoniyatidan foydalanishi mumkin, xolos.

Odam Ato farzandlarining yer yuzida yashab ketishi oson kechmagan, albatta. Sababi ularni yashashga to'g'ri yo'naltiradigan o'rgatuvchilarning yo'qligi edi. Hobil Qobilni o'ldirib qo'yganida nima qilishni bilmay qoladi. Shunda uni yerga ko'mish kerakligini qarg'adan o'rganadi. Mazkur holat ta'lim-tarbiyaning paydo bo'lish davri va insonga har qanday vaziyat yoki holatda yo'naltiruvchi ustoz-o'qituvchi hamda uning vaziyat-holatni to'g'ri tashkil etishga qaratilgan metodikasining o'rniyu ahamiyati qanchalar muhim ekanini ko'rsatib beradi.

“Bugun ta'lim muassasalarida o'rgatish va o'rganish jarayoni qanday ketayotgani, bu vazifaning bajarilish jarayoni o'zini oqlay olyaptimi?” kabi savolarga ham “Ha”, ham “Yo'q” deb javob berish mumkin. “Ha” degan savolga javobda respublika bo'ylab maktablarda faol o'rgatish jarayoni rostdan ham bo'layotganini ko'rib turasiz. Natijalarning o'ta kambag'alligi esa “yo'q” degan javobga asos bo'ladi. Birgina misol: eng yaxshi o'quvchilar orasidan oliy maktabga saralab olingan talabalar orasida juda oz qismigina mustaqil maqola yoza oladi. Sababi aniq – ular maktabda yaxshi tayyorlanilmagan.

O'quvchilar qobiliyatsiz emas. Ularda qobiliyat bor. Lekin uni yuzaga chiqarish, ularga o'rgatish jarayoni noto'g'ri tashkil etilgandek. Metodik jarayon noto'g'ri amalga oshirilgandek. Metodikaning oltin qoidasini – nimani qanday o'rgatish kerakligini bilmaslik bu vaziyatning asosi deyish mumkin. Buning uchun muammo ildizini topish, ildizgacha kirib borishga to'g'ri keladi.

Bu muammo ildizi, ya'ni yechimini uch jihat bilan asoslash mumkin:

“Niyatlar amallarni belgilaydi” hadisi maktablardagi mavjud muammoning birinchi ildizi hisoblanadi. Maqsad bilan niyat birbiridan farqlanadi. Niyat ko'ngildagi o'y, orzu, o'ylab qo'yilgan ish, maqsad esa erishish, amalga oshirish ko'zda tutilgan muddao. Aslida universitetga kirishdagi maqsad va niyatlarimizni eslasak,



nima maqsadda kirgan edik? Shu paytda bizning kelajagimiz bo'lgan “yosh avlodga bilim sirlarini o'rgataman” deganmizmi yoki diplomli bo'lish, boshqalardan bir pog'ona yuqorida turish, kimligimizni isbotlash, qulay pul topish imkoniyatini qo'lga kiritish bo'lganmi? Mana shu holatlar bizning aslida kim va qandayligimizni oynaga solib ko'rsatadigan asl qiyofamiz hisoblanadi.

Maktabga dars uchun ketayotgan o'qituvchi ham chetdan qaraganda “o'quvchilarga dars berish uchun boryapti. Uning asl maqsadi (agar o'zi buni bilolsa) haqiqatan o'quvchilarga bilim berishmi, yoki bugungi kunni bir iloj qilib o'tkazish, hech kimdan gap eshitmaslik, va ish kunini iloj qilib kech qilishmi? O'zlarini yaxshi o'qituvchi deb hisoblaydiganlarning ham aksariyati yoki rahbariyatga yaxshi ko'rinish, yoki ota-onalarning e'tirofiga erishish, odamlar “yaxshi o'qituvchi” deyishligi uchun dars berayotgan bo'lishi mumkin. Barcha o'qituvchi maktabga borayotganda maqsadi dars berish bo'lishi, biroq bundan o'zlari ham bexabar ichki niyatida boshq-boshqa fikrlar bo'lishi mumkin. Demak, “barcha amallar niyatga bog'liq” ekan, niyatsiz amallarimiz natijasidan hech ham hayratlanmasligimiz kerakdir, balki.

Muammoning ikkinchi ildizi narsizm faoliyati bilan bog'liq. Maktab faoliyati ham turmush tarzimizdagi salbiy holatlar ta'siridan chetda qolgan emas. Maktabda narsizm ko'rinishlari qanday kechadi? Narsizm – kishi yoki shaxsning o'z hayoti majud bo'lmasdan o'zgalar qarashi, gapi, e'tirofi, maqtovi bilan yashash tarzi hisoblanadi. Ya'ni bunday odamlarning o'z shaxsiy hayoti mavjud bo'lmasdan o'zgalarning bergan xulosasini hayot tarzi qilib oladi-yu, shu alfozda hayot kechiradi. Ularning qayg'u va xursandchiliklari ham o'zgalarning fikriga qarab belgilanadi. Odamlar nazaridan, e'tirofidan qolgan paytdan uning hayot mazmuni ham yo'qoladi.

Maktabdagi aksariyat o'qituvchilarning faoliyati narsist odamlar hayotiga o'xshab qolgan. Bunday o'qituvchilarning asl maqsadi, niyati bo'lmaydi. Ular komissiya, uchun, rahbar gapirmasligi uchun, ota-onalar tinch qo'yishligi uchun, hech



bo‘lmaganda kimdir yaxshi o‘qituvchi deyishligi uchun dars tashkil qilishadi. Bunday darslarni foydali va samarali dars deyish qiyin.

Muammoning uchinchi ildizi – yechimi mehnatimiz natijasini to‘g‘ri anglashimizda. Bu hayotda har bir tirik jon borki, harakat qilar ekan, albatta, natija kutadi. Masalan, hasharotlar pir-pir uchib o‘zi uchun kerakli ozuqani topadi. Hayvonlar suv yoki ozuqa uchun uzoq yo‘l bosishadi. Odamlar ham, jumladan o‘qituvchi ham dars o‘tar ekan, nimadir evaz yoki natija kutadi nimagadir erishishni istaydi. Aniqrog‘i, odamlar biror narsadan o‘zi uchun foydalilik darajasiga qarab, shunga mos harakt qilishadi. Ba‘zilar “Menga hech narsa kerak emas, hech narsasiz ishlayman” deganlari bilan, aslida ularning ham o‘zlari bilmaydigan ichki istaklari mavjud bo‘ladi. Faqat odamning nimani istayotganligini aniq bilmasligi uning xatosi hisoblanadi.

Bu jarayonni oddiyroq tushuntirish lozim bo‘lsa, hozirgi paytda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining oylik-maoshi, ish haqi oila va turmush muammolarini bartaraf etishga yetarli darajada emasdir. Lekin bu miqdor oylik-maosh uchun ishlaydiganlarga kam hisoblanadi. “Oylik-maosh olmasak, unda nima uchun ishlaymiz?” degan savol paydo bo‘ladi. Biz, aslida, o‘zimiz uchun, farzandlarimiz uchun, salomatligimiz uchun, farovonligimiz uchun, to‘kin sochinligimiz uchun, o‘zimiz va yaqinlarimiz baxti uchun ishlaymiz. Biz bu natijalarga oylik maosh miqdori va tannarxi bilan belgilab o‘rganib qolganmiz.

To‘g‘ri, zarur moddiy ehtiyojlarimiz pul bilan hal etiladi. Demak, bizga zarur moddiy ehtiyojni ham hayotdan olishimiz mumkin. Aynan maktab rahbari yoki buxgalteriya kassasidan emas. Bu jarayonda biz “shartnoma”ni maktab direktori bilan emas, Hayot bilan tuzishimiz lozim bo‘ladi. To‘g‘ri bu qoidani qabul qilish qiyin. Lekin bu – haqiqat. Bu – qonuniyat. Haqiqat bo‘lganda ham shunday ilohiy qonuniyatki, unga amal qilibgina barcha muammolar, chigalliklar, ko‘ngilsizliklarning yechimini topishimiz mumkin.

Hind faylasufi Robin Sharma aytadi: “Bu hayot ijaraxonaga o‘xshaydi, unga qancha haq to‘lasang, qiymat kiritsang, shuncha



yaxshi natijaga erishasan”. O’qituvchining hayotga qiymat kiritish jarayoni sof va samimiy dars tashkil eta olishi deb tushunish mumkin. Mohiyatan olib qaraydigan bo’lsak, hozirgi boshlang’ich sinf o’qituvchisining oylik-maoshi yetmayotgan ekan, bunga sabab ish haqining kamligi emas, o’sha o’qituvchining hayotga kiritayotgan qiymati – dars sifatining pastligi hisoblanadi. Ya’ni bu o’qituvchi dars jarayoni orqali hayotga arzirli qiymatni kirita olmay, qoida-qonuniyatni buzyapti. Bundan tashqari, oylik maoshining kamligidan norozi bo’lib, shikoyat qilib, ikkinchi xatoga yo’l qo’yyapti. Ijarachining ijara egasidan haq to’lamasdan yoki oz haq to’lab, ko’proq foydalanish pozitsiyasiga o’tib olish – tekinxo’rlik va dangasalikka o’tib olish yo’lini qo’llayotganlikni anglatadi.

Bu o’qituvchi, agar, hozirgi oladigan maoshiga nisbatan o’n baravar ko’p qiymat kiritganda – ya’ni yaxshi dars o’tganda unga bu hayotda yaratilgan sharoit – moddiy farovonlik, to’kinlik, baxt, quvonch shunga mos o’n barobar tashkillashtirilardi. Bu – hayot qonuniyati. “Zarra misqolchalik yaxshilik ham, zarra misqolchalik yomonlik ham hisobga olinadi” hadisi ham bunga misol bo’la oladi.

Alisher Navoiy “Naf’ing agar xalqqa beshakdurur, Bilki, bu naf o’zingga ko’prakdurur” deganda shu narsani nazarda tutadi. Alisher Navoiyning o’zi hayoti bilan bunga namuna bo’la oladi. Juda katta maosh olsa-da, faqat kunlik yeguligi, qog’oz va siyohgagina harajat qiladi. Qolgan maoshini muhtojlarga taraqatadi. Bizga ma’lumki Alisher Navoiy Naqshbandiya tariqati namoyondalaridan hisoblanib, Naqshbandiyning “Kimki o’zgani debdi, bilsinki, o’zini debdi, Kimki o’zini debdi, bilsinki, o’zini demabdi”, degan naqliga amal qiladi.

Demak, biz o’quvchilarga chin ma’noda dars o’tsak, ular uchun nimadir qila olsak, oylik-maoshimiz qaysidir ma’noda o’zgarishsiz qolsa ham, hayot bizga boshqa sabablar, boshqa yo’llar orqali shu miqdorni yetkazadi. Faqat biz buni bilolmaganligimiz, tushuna olmaganligimiz uchun ham ishonmaymiz. Ishonmagan narsamizga amal qilolmaymiz. Barcha o’qituvchilar bu qoidalarni o’z faoliyatlarida sinab ko’rishlari mumkin.





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husanboyeva Q., Hazratqulov M., Xolsaidov F. Ona tili va o‘qish savodxonligiga o‘rgatish metodikasi. Darslik. – T.: Innovatsiya-ziyo, 2022. – 252 bet.
2. Husanboyeva Q. Adabiyot darslari estetik dunyoqarashni shakllantirish omili sifatida. //Uzluksiz ta’lim. – 2007. – 4-son. – 61–63-b.
3. Husanboyeva Q. Adabiyot – ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009. – 368 b.
4. Husanboyeva Q. Tahlil – adabiyotni anglash yo‘li. – T.: “Muharrir” nashriyoti, 2013. –432 b.



ADABIY ALOQALAR

ADABIY DO‘STLIK – ABADIY DO‘STLIK



Mohira SADULLAYEVA

Qoraqalpoq Davlat universiteti dotsenti

El-manzil: sadullayevamohira59@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek va qoraqalpoq xalqlari adabiyoti, ularning o‘tmishi va bugungi hayoti, ikki qardosh xalqning ulug‘ ijodkorlari, ular yaratgan asarlar, shuningdek, o‘zbek-qoraqalpoq adabiyotshunosligiga oid adabiy aloqa, adabiy ta’sir va o‘ziga xoslik, ijodkor mahorati va badiiy tarjimaga doir ilmiy-adabiy masalalar muallif X.Abdullayevning “O‘zbek-qoraqalpoq adabiy aloqalari” darsligi asosida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: adabiy aloqa, adabiy ta’sir, tarjima, badiiyat, ijodkor, ijodkor mahorati, nasr, she’riyat, obraz, obrazlilik.

Hozirgi globallashuv jarayonida yashayotgan bir davrda, inson ma’naviy olamini boyitish, uni komillik sari yuksaltirish har doimgidan ham muhim va dolzarb masalaga aylandi. Ayniqsa, dunyo aholisining qariyb uchdan bir qismini tashkil etadigan yoshlarni gumanistik g‘oyalar ruhida tarbiyalashda badiiy so‘z san’atining o‘rni va mas’uliyatini har qachongidan ham yuksaltirish zarurligini bugun hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Shu bilan bir qatorda, asrlar davomida komil inson tarbiyasi, adolatli jamiyat, shaxs erkinligi, Vatan ozodligi, bunyodkorlik, bag‘rikenglik va baynalminalchilik, odamiylik, mehr-oqibat, birdamlik kabi o‘lmas

fazilatlarni tarannum etib kelayotgan adabiyotimizning eng sara namunalarini qardosh hamda xorijiy tillarga o'girish va ularni ommaga targ'ib etish bo'yicha yurtimizda bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

Dunyo madaniyatining shakllanishi va taraqqiy etishida muhim o'rin tutgan turkiy xalqlar o'zlarining necha asrlik boy madaniyati bilan doimo haqli ravishda faxrlanib kelganlar. Qardosh xalqlar madaniyati va adabiyoti shu ma'noda dunyo madaniyati va adabiyotining alohida tarmog'i va bosqichi bo'lishi bilan birga asosiy tarkibiy qismi hamdir. Turkiylar dunyoning qadimiy va qudratli xalqlaridan biridir. XX asr turk adabiyotining mashhur namoyondasi Aziz Nesin aytganidek: “Har bir millatning buyukligi aholisining ko'pligi va maydonining kattaligiga qarab belgilanmaydi. Har bir xalqning buyukligi uning tarixi va madaniyatining qadimiyligi va boyligi bilan aniqlanadi”. Shu nuqtayi nazardan, turkiylar tarix va madaniyatining qadimiyligi, boyligi bilan dunyo xalqlari orasidagi buyukligi hamda yetakchiligini tamomila isbotlay olishgan. Turkiy xalqlar ichida o'zbek va qoraqalpoq xalqining bashariyat tamadduni taraqqiyoti, dunyo ijtimoiy-siyosiy modeli hamda tafakkurining mulohazasining shakllanishida tutgan o'rnini hisobga olsak, bu xalqlar o'ziga xos tarix va madaniyatga ega ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi. Yurtboshimiz Muhtaram Sh. M. Mirziyoyevning ta'kidlaganlaridek, **“Ikki el bir bo'lganmiz, mehrimiz mehrimizga qo'shilgan, qon-u qarindoshmiz. Tanti qoraqalpoq xalqini yuragimdan e'zozlayman. G'urur bilan aytamanki, men nafaqat o'zbek xalqining, balki qoraqalpoq xalqining ham farzandiman”**[1, 234-b.]. Qadimda bir bo'lgan o'sha ma'naviy-ruhiy yaqinligimizga qaytish, o'zaro qarindoshligimizni yanada chuqurlashtirish zarurati paydo bo'lmoqda.

Shu boisdan, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti Xamro Abdullayev muallifligidagi Oliy o'quv yurti talabalari uchun “O'zbek-qoraqalpoq adabiy aloqalari” darsligining nashr etilishi ham yuqoridagi zaruratning bir natijasidir. Mazkur



darslik o'zbek qoraqalpoq do'stlik va adabiy aloqalarining mustahkamlanishida ma'lum ma'noda tayanch bo'lib xizmat qilsa ajabmas. Qardosh xalqlarning birdamligi, totuvligi yo'lidagi sa'y-harakatlarning davomiyligi ikki xalq o'rtasidagi adabiy munosabatlarning abadiy davom etishiga zamin bo'lib xizmat qiladi. Zero, yurtimiz rahbari yana bir nutqida: **“Biz O'zbekistonda “Adabiy do'stlik – abadiy do'stlik” degan chuqur ma'noli tamoyilga amal qilgan holda, jahon adabiyotining durdona asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish va nashr etish masalasiga g'oyat jiddiy e'tibor qaratmoqdamiz”** deya nafaqat, jahon adabiyoti, balki turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek-qoraqalpoq xalqlari adabiyotini ham nazarda tutgan.

Mazkur darslikda turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek va qoraqalpoq xalqlari adabiyoti, ularning o'tmishi va bugungi hayoti, ikki qardosh xalqning ulug' ijodkorlari, ular yaratgan asarlar, shuningdek, o'zbek-qoraqalpoq adabiyotshunosligiga oid adabiy aloqa, adabiy ta'sir va o'ziga xoslik, ijodkor mahorati va badiiy tarjimaga doir ilmiy-adabiy masalalar qamrab olingan. Xususan, o'zbek, qoraqalpoq, qozoq va turkman adabiy aloqalari qadimiy an'anaga ega. Jumladan, ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy zamonasidan tortib, to hozirgi kunga qadar bu hamkorliklar katta samaralar berdi. Alisher Navoiyning ulkan merosi turkman, qozoq, qoraqalpoq kitobxonlari, baxshilari, xonanda va sozandalari orqali turonzamin xalqlariga keng tarqalib, qalblariga singib ketganidek, Berdaq, Maxtumquli, Abay kabi qoraqalpoq, turkman, qozoq she'riyati yorug' yulduzlarining o'lmas asarlari ham qardosh ellarning ma'naviy mulkiga aylangan. Bu ulug' so'z san'atkorlari timsolida biz xalqlarimiz va adabiyotlarimiz do'stligi va ijodiy hamkorligining ajoyib yutuqlarini ko'ramiz.

Qoraqalpoq xalqining o'zbek xalqi bilan necha asrlardan buyon yonma-yon bo'lib yashashi bilan bir qatorda, ularning, ayniqsa, bir yurt atrofida birlashuvi, o'zbek tilida yaratilgan kitoblarning xalq orasida keng tarqalishi, ularning bir-biriga qondoshlarcha hurmat-izzatda yashab kelayotganligi, ikkala xalq adabiyotida yaratilgan sara asarlarning tarjima qilinib nashr qilinishi bu ikki xalq



orasidagi qarindosh-birodarlikni yanada mustahkamladi. Adabiy aloqalarning eng asosiy o‘zagi bo‘lgan tarjima masalasi, namuna bo‘la oladigan adabiyotlarni o‘rganish natijasida yangi janrlarning paydo bo‘lishi, madaniy aloqalarimizni mustahkamlashda dramaturgiyaning roli, yirik o‘zbek nasrida va lirikasida qoraqalpoqlar mavzusining paydo bo‘lishi haqida ma’lumotlar berilgan.

Mazkur kitob ma’lum darajada, o‘zbek-qoraqalpoq adabiy aloqalarining uzilmas rishta ekanligining bir karra isboti desak, aslo yanglish bo‘lmaydi. Yaqin o‘tmishda xalqlarimiz va adabiyotlarimiz do‘stligiga jonkuyarlik bilan xizmat qilgan qardosh adiblarning ijodiy faoliyati, shaxsiy ibrati misolida adabiyotlar hamkorligi, ijtimoiy-ma’naviy hayotimiz uchun naqadar qudratli kuch, yangi-yangi asarlarning yaratilishida esa ilhom manbai bo‘lganligini adabiy misollar orqali dalillab berishga uringan. Jumladan, Alisher Navoiyning “Xamsa” yozish an’anasini o‘z ustozlaridan bo‘lgan Nizomiy Ganjaviydan o‘rganganligi va shuningdek, kelajakni bashorat qilib, turkiy tilda besh doston yozib qoldirganligi haqida ham aytadi. Masalan:

Nizomiyni tafakkuriga hayron qolgan
So‘z gavharin saylab terandan olgan
Sayragan bulbuli mehnatkash xalqning
Oldin taxmin qilib kelajakka nazar slogan [2, 50-b.].

Sadiq shoir ushbu she’rida Alisher Navoiy ijodiga keng sayohat qilib, donishmand shoir merosidan ilhomlanib:

Buyuk shoir, badiiy so‘zning ustasi,
“Farhod-Shirin”, “Layli-Majnun” nusxasi
Sizdan bizga meros qoldi Navoiy
Qiz yigitning suyib o‘qigan qissasi [2, 51-b.]

misralari orqali, Navoiy ijodining qoraqalpoq adabiyoti tarixida tutgan o‘rnini odilona va teran tarzda baholab ko‘rsatadi. Yoki yana bir misol: Abbaz shoirning “Navoiy haqida” deb atalgan she’rida u o‘z ustozini haqida yozar ekan:

Hiroat shaharida qolgan tufrog‘ing,
Tug‘gan-tug‘ishganing yana urpog‘ing.



O'sha paytda yotib qolgan bu bog'ing,
Qaytadan dunyoga keldi Navoiy.
deb butun dunyoga jar soladi. Bundan keyin Abbaz shoir Navoiy
qissalari orqali mahoratini yanada oshirganligini ta'kidlaydi:
Bizlar ko'rdik sening qissalaringni,
Ham o'qidik yozgan nusxalaringni.
So'z mulkida uzun-qisqalaringni,
Bilgandan so'ng xalqqa yoyding Navoiy[2, 51-b].
deya hayratlanib, o'zining Navoiy qissalarini o'qiganligidan
faxrlansa, ikkinchidan, “so'z mulkidagi uzun-qisqalik” fikri asosida
Abbaz bu buyuk so'z ustasining janr xususiyatlari, g'azal,
muxammas va masnaviylari haqida ham ba'zi fikrlarni
bildirmoqchi bo'lgan. Sababi, bayt asosida aruz vazni bilan yozilgan
g'azallar og'zaki adabiyot uslubida qisqa she'rlar yozgan
qoraqalpoq o'quvchilari uchun yangilik bo'lganligi ham ma'lum.

Shuningdek, kitobda G'afur G'ulom va qoraqalpoq
ijodkorlarining o'zaro munosabati hamda do'stona samimiylilik
haqida so'z yuritilgan. Xususan, Ibrayim Yusupovning qoraqalpoq
va o'zbek xalqlari do'stligi mavzusiga bag'ishlangan she'rlaridan
birida G'afur G'ulom shaxsiyati va tabiatiga xos quvnoqlikni alohida
tilga olib o'tishi ham bejiz emas:

Ketip baratirsam shayxana betten,
Kulkisin esittim G'afur G'ulamnin...[2, 110-b.]

G'afur G'ulomga bunday hurmat uning zamondoshlari
Jo'lmirza Aymirzayev, Tilewbergan Jumamuratov, Bayniyaz
Qayipnazarov, Xo'jabek Seyitov, Babash Ismailov kabi shoir va
yozuvchilar tomonidan ham ko'rsatilgan. O'zbek shoirining bu
qalam ahllari bilan umrining oxiriga qadar davom etgan do'stona
aloqalari, ijodiy tajriba almashuvlari ikki adabiyot uchun foydali
bo'lganiga yana bir misol sifatida Jo'lmirza Aymirzayev “Kurash”
nomli poemasini G'afur G'ulomning “Ko'kan” dostoni ta'sirida
yozganligini ham ta'kidlash o'rinlidir. Agar qoraqalpoq shoirining
yuqorida ta'kidlangan she'rlarini G'afur G'ulomning urush yillarida
yaratgan harbiy lirikasiga qiyoslab ko'rsak, ko'p o'xshashliklarni,



umumiyliklarni, Vatan va insonlar taqdiri talqinidagi mushtaraklikni, uslubiy yaqinlikni ko‘ramiz.

Yuqoridagi kabi misollarni darslikda istagancha topish mumkin. Ammo shunisi muhim-ki, bu kabi sa’y-harakatlar mintaqadagi adabiy aloqalarning bundan keyin ham yanada rivojlanishiga “turtki”lik vazifasini o‘tasa, ijodkorlarimiz o‘rtasida an’anaga aylanib qolgan do‘stona munosabatlarni yangi cho‘qqilarga ko‘tarishda xizmat qilsa, tom ma’noda maqsadga erishilgan hisoblanadi. Shuni ham ta’kidlash joizki, mazkur kitob o‘zbek va qoraqalpoq adabiy aloqalari fani bo‘yicha ilk darslik ekanligi bilan alohida ahamiyatga molik.

Muxtasar qilib aytganda, siz-u biz, og‘a-ini, opa-singil birgalikda bu kabi jarayonlarni faollashtirishga, xalqlarimiz o‘rtasidagi birodarlik munosabatlarini yangi tarixiy bosqichga, yangi O‘zbekiston g‘oyasi nuqtayi nazaridan tamomila yangi mazmunda davom ettirish va rivojlantirishga harakat qilishimiz o‘rinlidir. Xalqlarimiz o‘rtasidagi tarixiy-ma’naviy birlikning ahamiyati eng nufuzli minbarlardan gapirila boshlandi. O‘zbek va qoraqalpoq xalqlari o‘rtasidagi yuksak hurmat, ishonch, birodarlik va tarixiy mushtaraklik ayni haqiqat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2016.
2. Abdullayev X. O‘zbek-qoraqalpoq adabiy aloqalari. – Nukus. Ilm-Nur. 2024.
3. Abdurahmonov X., Mahmudov N. So‘z estetikasi. – T.: O‘qituvchi, 2002.
4. Юсупов И. Шарқнинг отахон шоири. «Ўзбекистон адабиёти ва санъати», 1983, 13 май.
5. Аймырзаев Ж. Устазымыз – ағамыз. «Совет Каракалпакстаны», 1983, 17 май.



Bosh muharrir:

Qunduzxon Husanboyeva

Pedagogika fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati:

- 1. Qodirov Valijon - pedagogika fanlari doktori, professor*
- 2. Hamroyev G’ofir - pedagogika fanlari doktori, tadqiqotchi professor*
- 3. Yusupov Qonisbay - pedagogika fanlari doktori, professor*
- 4. Mavlonova Klara - pedagogika fanlari doktori, dotsent*
- 5. Qambarova Saodat - pedagogika fanlari doktori, dotsent*
- 6. To’ychiyeva Mahfuza - pedagogika bo’yicha falsafa doktori, dotsent*
- 7. Hazratqulov Mutallib - pedagogika bo’yicha falsafa doktori, dotsent*
- 8. Nurmuhammadov Jamoliddin - Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi bosh mutaxassisi*
- 9. Yusupjonova Nazokat - pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori*
- 10. Tuxliyeva Dilfuza - pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori*
- 11. Hasanova Kibriyo - pedagogika fanlari nomzodi, professor*
- 12. Turdaliyev Dilshod - pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent*
- 13. Mahmudov Ravshan - falsafa fanlari nomzodi, professor*
- 14. Shohruh Abduraimov, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori, dotsent*
- 15. Valiyeva Mahmuda - Yunusobod tumani 274-maktab oliy toifali ona tili va adabiyot o’qituvchisi*
- 16. Namoz Rasulov - Respublika Ta’lim markazi bosh mutaxassisi*

“METODIST” ILMIY-INNOVATSION, METODIK JURNALI TA’LIMY, ILMIY-INNOVATSION NASHR
BO’LIB, BIR YILDA 6 MARTA CHOP ETILADI.

*Tahririyatga kelgan maqolalar Tahrir hay’atining tavsiyasiga binoan jurnalda e’lon
qilinadi. Nashr etilmagan maqolalar tahlil qilinmaydi.*

Tahririyat manzili:

Toshkent shahri Yakkasaroy tumani Dilbuloq MFY Shota Rustaveli ko’chasi 1-uy.

Jurnal direktori: Xolsaidov F.B.

*Bosishga 30.05.2024.da ruxsat etildi. Bichimi 60x90. “Cambria” garniturası.
Ofset bosma usulida bosildi. Shartli bosma tabog’i 10. Nashr bosma tabog’i 10.
Adadi 200 nusxa.*

“METODIST NASHRIYOTI” MCHJ matbaa bo’limida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahri Shota Rustaveli 2-vagon tor ko’chasi 1-uy.



+99893 552-11-21

Nashriyot rozilgisiz chop etish ta’qiqlanadi.



